Tadqiqot.uz

# YANGI O‘ZBEKISTON: 2026

CONFERENCES.UZ

## ILMIY TADQIQOTLAR

DAVRIYLIGI: 2018-2026

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN TELEFON

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO‘P TARMOQLI ILMIY KONFERENSIYA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O‘QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR





TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO‘CHASI, PR.1, 2-UY.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



AVGUST №91

# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР 2-ҚИСМ

# НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН: НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ЧАСТЬ-2

# NEW UZBEKISTAN: SCIENTIFIC RESEARCH PART-2

ТОШКЕНТ-2026

**УЎК 323(575.1)(063)**
**КБК 66.3(5Ў)я43**
**И-18**
**DOI 10.5281/zenodo.11390854**

**«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2026]**

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 91-кўп тармоқли илмий маърифий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2026 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2026. – 107 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегияси — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: — илмий изланиш ютукларини амалий-тажриби жиҳат йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.
Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талабалар-иштирокчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилиб бориб, унда таълим тизимида илғор замонавий ёндашувлар, натижалар, муаммолар, ечимлар, статистик вазиятлар ва илмий-тараққиётнинг истиқболли режалари таҳлил қилинади конференцияси.

**Масъул муҳаррир**: Файзиев Шохруд Фармонови, ю.ф.д., доцент

***1.Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -***
Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

***2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -***
Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

***3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар –***
Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

***4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни-***
Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

***5.Давлат бошқаруви-***
Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

***6.Журналистика-***
Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

***7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –***
Самигова Умида Хамидуллаевна (“Kinder land of Asia” НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

***8.Адабиёт-***
PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

***9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -***
Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

***10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -***
Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

***11.Жисмоний тарбия ва спорт-***
Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

***12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -***
Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

***13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -***
Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)
***14.Тасвирий санъат ва дизайн-***
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

***15.Мусиқа ва ҳаёт-***
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

***16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -***
Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

***17.Физика-математика фанлари ютуқлари -***
Доцент Сохадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

***18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар –***
Зупарова Зулфия Ахрор қизи DSc (Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, фармацевтика фанлари доктори)

***19.Фармацевтика***
Жалилов Фазлиддин Содиқович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

***20.Ветеринария***
Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

***21.Кимё фанлари ютуқлари -***
Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

***22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -***
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

***23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -***
Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович "ТИИМСХ"

***24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -***
Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

***25.География-*** Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

***Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.***

**© Муаллифлар жамоаси**
**© Tadiqiqot.uz**

**Page maker/Верстка/Сахифаловчи:** Хуршид Мирзахмедов

**Контакт редакции журнала.**
**www.tadqiqot.uz**
ООО Tadiqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of**
**www.tadqiqot.uz**
Tadiqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

## ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

# ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН О КРУПНЫХ СДЕЛКАХ В ХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОБЩЕСТВАХ

**Камалова Гулноза Абдубаситовна**
соискатель учёной степени PhD по юридическим наукам
Ташкентский государственный юридический университет
г. Ташкент, Республика Узбекистан
e-mail: gulnoza1989@gmail.com

**Аннотация.** В тезисе рассматриваются вопросы совершенствования законодательства Республики Узбекистан о крупных сделках в акционерных обществах и обществах с ограниченной ответственностью. Отмечается значение реформы законодательства об обществах с ограниченной ответственностью 2026 года, предусматривающей переход к критерию стоимости чистых активов. Обосновывается необходимость содержательной модели корпоративного контроля, включающей определение обычной хозяйственной деятельности, признаки взаимосвязанности сделок, последующее одобрение, защиту добросовестного контрагента и ответственность органов управления.

**Ключевые слова:** крупная сделка, чистые активы, обычная хозяйственная деятельность, взаимосвязанные сделки, корпоративный контроль, добросовестный контрагент.

# PROSPECTS FOR IMPROVING THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON MAJOR TRANSACTIONS IN BUSINESS COMPANIES

**Abstract.** The thesis examines issues related to improving the legislation of the Republic of Uzbekistan on major transactions in joint-stock companies and limited liability companies. The paper highlights the 2026 reform introducing the net asset value criterion and argues for a substantive model of corporate control, including ordinary business activity, interconnected transactions, subsequent approval, protection of bona fide counterparties and liability of corporate bodies.

**Keywords:** major transaction, net assets, ordinary business activity, interconnected transactions, corporate control, bona fide counterparty.

Институт крупных сделок занимает важное место в корпоративном праве, поскольку обеспечивает баланс между свободой предпринимательской деятельности и защитой имущественных интересов участников и акционеров. Его назначение состоит не только в установлении стоимостного порога сделки,

но и в создании механизма контроля за решениями исполнительных органов, способными существенно повлиять на имущественное положение общества.

Принятие Закона Республики Узбекистан от 21 апреля 2026 года № ЗРУ-1137 «Об обществах с ограниченной ответственностью» стало важным этапом развития национального корпоративного законодательства. Согласно статье 50 указанного Закона, крупной признаётся сделка либо несколько взаимосвязанных сделок, связанных с приобретением, отчуждением или возможностью отчуждения имущества общества, стоимость которого [1]. Такой подход является более экономически обоснованным, чем прежняя модель, поскольку учитывает реальное финансовое положение юридического лица.

Вместе с тем переход к критерию чистых активов не устраняет всех проблем правового регулирования. На практике сохраняются вопросы определения обычной хозяйственной деятельности, квалификации взаимосвязанных сделок, содержания решения об одобрении, защиты добросовестного контрагента и ответственности органов управления.

Представляется целесообразным закрепить двойной критерий крупной сделки: количественный, связанный со стоимостью сделки, и качественный, выражающийся в выходе сделки за пределы обычной хозяйственной деятельности общества. Это позволит исключить автоматическое признание крупной любой дорогостоящей, но обычной для конкретного бизнеса операции.

Заслуживает внимания нормативное определение обычной хозяйственной деятельности. Сделка может считаться обычной, если она соответствует предмету деятельности общества, его фактической предпринимательской практике, ранее совершавшимся аналогичным операциям и направлена на поддержание либо развитие текущей деятельности. Целесообразно также закрепить презумпцию обычности сделки, пока заинтересованное лицо не докажет обратное.

Для предотвращения искусственного дробления сделок необходимо установить признаки их взаимосвязанности. К ним могут относиться единая экономическая цель, общее хозяйственное назначение, участие одних и тех же сторон или выгодоприобретателей, заключение сделок в непродолжительный период времени, единый источник финансирования либо достижение общего хозяйственного результата.

Решение об одобрении крупной сделки должно иметь содержательный характер. В нём целесообразно отражать стороны сделки, выгодоприобретателя, предмет, цену или порядок её определения, сроки исполнения, условия оплаты, обеспечение обязательств, наличие или отсутствие аффилированности и предполагаемые последствия сделки для общества. Изменение существенных условий уже одобренной сделки должно требовать повторного одобрения.

Для акционерных обществ перспективным является усиление роли наблюдательного совета [2]. При вынесении вопроса об одобрении крупной

сделки на общее собрание акционеров наблюдательный совет мог бы готовить мотивированное заключение с оценкой условий сделки, её стоимости, экономической целесообразности, рисков, влияния на финансовое положение общества и наличия конфликта интересов.

В законодательство возможно внедрить институт последующего одобрения крупной сделки. Такое одобрение допустимо, если сделка была совершена с процедурным нарушением, но соответствует интересам общества, не причинила ему ущерба, заключена на экономически обоснованных условиях и не связана со злоупотреблением правом, конфликтом интересов или сговором исполнительного органа с контрагентом.

Нарушение порядка одобрения крупной сделки не должно автоматически влечь её недействительность. Сделка может признаваться недействительной только при существенном нарушении и нарушении интересов общества, его участников или акционеров. При этом следует учитывать характер нарушения, наличие ущерба, добросовестность контрагента, раскрытие информации, последующее одобрение и последствия признания сделки недействительной для гражданского оборота [3].

Законодательство должно одновременно защищать добросовестного контрагента и обеспечивать ответственность органов управления. Если контрагент проявил разумную осмотрительность и получил документы, подтверждающие одобрение сделки, она не должна признаваться недействительной только вследствие внутренних корпоративных нарушений [4]. В то же время органы управления должны отвечать за убытки, причинённые обществу вследствие недобросовестного или неразумного поведения, но не за обычный предпринимательский риск.

## Выводы

1. Переход к критерию чистых активов является важным этапом развития института крупных сделок, однако нуждается в дополнении содержательными критериями корпоративного контроля.

2. Для квалификации сделки в качестве крупной целесообразно использовать двойной критерий: стоимостной порог и выход сделки за пределы обычной хозяйственной деятельности.

3. Перспективными направлениями являются закрепление понятия обычной хозяйственной деятельности, признаков взаимосвязанности сделок, последующего одобрения, защиты добросовестного контрагента и самостоятельной ответственности органов управления.

## Список использованных источников

1. Закон Республики Узбекистан от 21 апреля 2026 года № ЗРУ-1137 «Об обществах с ограниченной ответственностью» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан.

2. Закон Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан.

3. Гражданский кодекс Республики Узбекистан // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан.

4. Постановление Пленума Верховного Суда Российской Федерации от 26 июня 2018 года № 27 «Об оспаривании крупных сделок и сделок, в совершении которых имеется заинтересованность».

5. Камалова Г.А. Совершенствование правового регулирования крупных сделок в хозяйственных обществах Узбекистана: сравнительно-правовой анализ и предложения по реформированию // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer Herald. 2025. № 6. С. 75–84.

# СУД ҲУКМИНИНГ ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИ ЧИҚАРИШ АСОСЛАРИ

**Пирназаров Абдурашид Абдулхаевич**
Тошкент давлат юридик университети мустақил изланувчиси,
юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD)

**Аннотация.** Мақолада суд ҳукмининг турлари ва уларни чиқариш асослари таҳлил қилинган. Айблов ва оқлов ҳукмларининг процессуал табиати, уларнинг ички дифференциацияси, аралаш (қисман оқлов) ҳукм масаласи ҳамда айбсизлик презумпциясининг ҳукм турини белгилашдаги роли ёритилган. Шунингдек, хорижий тажриба қиёсий таҳлил қилиниб, қонунчиликни такомиллаштиришга доир таклифлар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** суд ҳукми, оқлов ҳукми, ҳукм чиқариш асослари, айбсизлик презумпцияси, ҳукмнинг қонунийлиги ва асослилиги, реабилитация.

Ҳукм – жиноят иши бўйича одил судловнинг якунловчи ҳужжати бўлиб, унда давлат номидан шахснинг жиноят содир этишдаги айбдорлиги ёки айбсизлиги масаласи ҳал этилади. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг (кейинги ўринларда ЖПК) 454-моддасига мувофиқ ҳукм суд томонидан давлат номидан чиқарилади, 455-моддасига кўра эса у қонуний, асосли ва адолатли бўлиши шарт [1]. Айнан ушбу учта талаб ҳукмнинг ҳам турини, ҳам уни чиқариш асосларини мазмунан белгилаб беради.

ЖПКнинг 462-моддасига мувофиқ суд айблов ҳукмини ёки оқлов ҳукмини чиқариши мумкин. Суд ҳукмининг икки турга бўлинигши тасодифий эмас: Олий суд Пленумининг 2014 йил 23 майдаги 7-сонли “Суд ҳукми тўғрисида”ги қарорининг 7-бандида тўғридан-тўғри таъкидланганидек, ЖПКнинг 23-моддасида мустаҳкамланган айбсизлик презумпцияси принципи ҳукм турини аниқловчи мезон сифатида эътироф этилади [2]. Бошқача айтганда, «айбдор» ва «айбсиз» ўртасида учинчи ҳолат мавжуд эмас: айбдорлик исботланмаган ҳар қандай ҳолат оқлов ҳукми чиқарилишига олиб келиши шарт.

Айни пайтда қонунчиликда ҳукмнинг ички дифференциациясини ҳам белгиланган. Хусусан, ЖПКнинг 463-моддасига кўра айблов ҳукми жазо тайинлаш билан; жазо тайинлаб, судланувчини уни ўташдан озод қилиш билан; ёхуд жазо тайинламасдан чиқарилиши мумкин.

Юқорида қайд этилган пленум қарорининг 7-банди яна бир қоидани мустаҳкамлайди: суд битта ҳукм билан айбловнинг айрим эпизодлари бўйича судланувчини оқлаб, бошқалари бўйича айбдор деб топиши, шунингдек бир неча судланувчидан бирини оқлаб, қолганларини айбдор деб топиши мумкин. Демак бундан келиб чиқадики, амалда жиноят-процесуал қонунчилигида

«аралаш ҳукм» институти мавжуд, лекин у алоҳида ҳукм тури сифатида расмийлаштирилмаган.

ЖПКнинг 463-моддаси биринчи қисмида айблов ҳукмининг икки шарти белгиланган яъни, у тахминларга асосланиши мумкин эмаслиги ва фақат суд муҳокамаси чоғида судланувчининг жиноят содир этишдаги айбдорлиги исботланган тақдирдагина чиқарилиши белгиланган. Ушбу норма ЖПКнинг 26-моддаси (суд фақат суд мажлисида текширилган далилларга асосланиб ҳукм чиқаради) ва 22-моддаси (ҳақиқатни аниқлаш) билан узвий боғлиқ.

Айблов ҳукмининг асослилиги амалда энг кўп низо туғдирадиган масалалардан бириб бўлиб, ҳукмларнинг бекор қилиниши кўпинча суд хулосаларининг дастлабки терговда тўпланган, аммо суд мажлисида текширилмаган далилларга асослантирилиши билан боғлиқ. Олий суд Пленумининг 2018 йил 24 августдаги 24-сонли “Далиллар мақбуллигига оид жиноят-процессуал қонуни нормаларини қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида”ги қарори айнан шу муаммога қаратилган бўлиб, қонунни бузиш йўли билан олинган далил айблов ҳукмининг асоси бўла олмаслигини белгилайди [3].

Айблов ҳукмининг тавсиф ва қарор қисмларига қўйиладиган талаблар ЖПКнинг 467 ва 468-моддаларида белгиланган бўлиб, қарор қисми 457-моддада санаб ўтилган барча масалаларга жавобни акс эттириши лозим. Амалиётда квалификация «тўғри квалификация қилинган» деган умумий ибора билан чекланиб қолиши ҳукмнинг мотивлилиги талабини бузади.

ЖПКнинг 464-моддасида оқлов ҳукмини чиқариш асослари белгиланган ва улар мазмунан ЖПКнинг 83-моддасида назарда тутилган реабилитация асослари билан мос келади. Бундай асосларга: жиноят ҳодисаси бўлмаганлиги; қилмишда жиноят таркиби йўқлиги; судланувчининг жиноят содир этишда иштироки исботланмаганлиги киради.

Пленумнинг 2014 йил 23 майдаги 7-сонли “Суд ҳукми тўғрисида”ги қарорида ушбу асосларнинг ҳар бири очиб берилган. Жиноят ҳодисаси бўлмаганлиги асоси ҳодисанинг умуман содир бўлмаганлиги ёхуд оқибатлар зарар кўрган шахснинг ўз ҳаракатлари ёки табиат кучлари таъсирида юзага келганлиги ҳолларида қўлланилса. Қилмишда жиноят таркиби йўқлиги асоси эса, хусусан, қилмиш кам аҳамиятлилиги сабабли ижтимоий хавфлилик касб этмаган (ЖК 36-моддаси) ёки зарурий мудофаа ва охирги зарурат ҳолатида содир этилган (ЖК 37, 38-моддалари) ҳолларни қамраб олиши белгиланган.

Эътиборли жиҳати шундан иборатки, Пленум ЖПКнинг 464-моддаси мазмунидан келиб чиқиб, оқлов ҳукми чиқариш учун қуйидаги учта ҳолат ҳам асос бўлишини кўрсатган: ишда тўпланган далилларнинг етарли эмаслиги; далиллар қонунга зид равишда олинганлиги сабабли уларнинг далил ҳисобланмаслиги; судланувчининг тўлиқ айбдорлиги тўғрисидаги шубҳани бартараф қилиш имкони йўқлиги. Ушбу тушунтириш назарий жиҳатдан жуда қимматли бўлиб, у айбсизлик презумпциясининг «шубҳа айбланувчи фойдасига ҳал қилинади» деган қоидасини (ЖПК 23-моддаси учинчи қисми) ҳукм даражасида амалга оширишга имкон беради. Бироқ ушбу учта ҳолат

ЖПКнинг 464-моддаси матнида бевосита ва аниқ ифодаланмаган бўлиб, уларнинг мазмуни асосан Пленум қароридаги ҳуқуқий шарҳ орқали очиб берилмоқда. Бу эса оқлов ҳукмини чиқариш асосларининг норматив аниқлиги ва ҳуқуқий кафолатланганлиги нуқтаи назаридан муайян муаммони юзага келтиради. Зеро, суднинг шахсни оқлашга олиб келувчи асосий ҳолатлар, айниқса, далилларнинг етарли эмаслиги, қонун талабларини бузган ҳолда олинган далилларнинг мақбул эмаслиги ҳамда бартараф этиб бўлмайдиган шубҳаларнинг мавжудлиги каби ҳолатлар жиноят-процессуал қонуннинг ўзида аниқ белгиланиши мақсадга мувофиқ. Бундай ёндашув шахснинг айбсизлик презумпцияси, қонун ва суд олдида тенглиги, шунингдек, жиноят ишларини ҳал этишда қонунийлик ва асослилик принципларини таъминлашга хизмат қилади. Шу нуқтаи назардан, Пленум томонидан берилган тушунтиришлар амалиёт учун муҳим методик аҳамият каса этса-да, мазкур қоидаларни қонуннинг ўзида аниқ ифодалаш норматив-ҳуқуқий тартибга солиш нуқтаи назаридан янада мақбул ҳисобланади. Чунки Пленум қарорининг шарҳловчи хусусияти уни қонун нормаси билан тенглаштириш имконини бермайди. Натижада суд амалиётида оқлов ҳукмини чиқариш асосларини талқин қилишда турлича ёндашувлар юзага келиш эҳтимоли мавжуд. Шу сабабли ЖПК 464-моддасини такомиллаштиришда Пленум шарҳида назарда тутилган мазкур учта ҳолатни қонун нормасининг ўзида тизимлаштирган ҳолда белгилаш, шу орқали оқлов ҳукмининг моддий ва процессуал асосларини янада аниқлаштириш мақсадга мувофиқ.

Шу ўринда, масаланинг ҳуқуқий моҳиятини янада чуқурроқ очиб бериш мақсадида қиёсий-ҳуқуқий таҳлилга мурожаат қилиш ўринлидир. Зеро, хорижий давлатлар қонунчилиги ва суд амалиётида оқлов ҳукмини чиқариш асосларига нисбатан шаклланган ёндашувлар миллий қонунчиликни такомиллаштириш учун муҳим аҳамият касб этади.

Германия жиноят процессида ҳукм икки эмас, уч гуруҳга ажратилади. Немис доктринасига кўра, Sachurteil (моҳият бўйича ҳукм) айблов (Verurteilung) ёки оқлов (Freispruch) шаклида чиқарилса, Prozessurteil (StPO 260-параграфи 3-банди) процессуал тўсиқлар мавжуд бўлганда ишни тугатиш ҳукмидир [4].

Бу фарқлашнинг ҳуқуқий оқибати жиддий: фақат оқлов ҳукми моддий қонуний кучга эга бўлиб, айбловни «сарфлайди», процессуал тугатиш ҳукмидан кейин эса тўсиқ бартараф этилса, шахсга нисбатан айблов қайта қўйилиши мумкин.

Россия Федерацияси ЖПКнинг 302-моддаси айблов ҳукмининг Ўзбекистондагига ўхшаш учта кўринишини назарда тутади, аммо рус доктринасида жазо тайинланмаган айблов ҳукмининг асослари қонунда очиб берилмагани танқид қилинмоқда [5], [6]. Қозоғистонда ҳам масала Олий суднинг норматив қарори орқали тартибга солинган [7].

Англо-саксон тизимида вазият бошқача: Шотландия ҳуқуқидаги «not proven» (исботланмаган) вердикти оқлов оқибатини келтириб чиқарса-да,

судланувчи устидан гумон соясини қолдиради. Замонавий адабиётда оқловнинг фақат битта айбдорлик асосли шубҳадан холи исботланмаганлигини тасдиқловчи шаклини сақлаб қолиш таклиф этилмоқда [8]. Бу мунозара Ўзбекистон учун ҳам аҳамиятли, зеро ишнинг “реабилитация қилмайдиган асослар” бўйича тугатилиши шунга ўхшаш “ярим оқлов” вазиятини вужудга келтиради.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. https://lex.uz/docs/111460

2. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2014 йил 23 майдаги 7-сонли “Суд ҳукми тўғрисида”ги қарори // https://lex.uz/ru/docs/2413562

3. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2018 йил 24 августдаги 24-сонли “Далиллар мақбуллигига оид жиноят-процессуал қонуни нормаларини қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида”ги қарори // https://www.lex.uz/docs/3895986

4. Heinrich B., Reinbacher T. Das Urteil (Arbeitsblatt Nr. 41). — Universität Würzburg, 2023. — https://www.jura.uni-wuerzburg.de

5. Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации. Статья 302 «Виды приговоров».

6. Основания освобождения от наказания при постановлении обвинительного приговора // КиберЛенинка. — https://cyberleninka.ru/article/n/osnovaniya-osvobozhdeniya-ot-nakazaniya-pri-postanovlenii-obvinitelnogo-prigovora

7. Нормативное постановление Верховного Суда Республики Казахстан «О судебном приговоре». — https://adilet.zan.kz/rus/docs/P180000004S

8. Rabin Y., Levine I. Two Kinds of Acquittals — Different Kinds of Doubts. — 2020.

# СУД ҲУКМИНИ ЎЗГАРТИРИШ ИНСТИТУТИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

**Пирназаров Абдурашид Абдулхаевич**
Тошкент давлат юридик университети мустақил изланувчиси,
юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD)

**Аннотация.** Мақолада суд ҳукмини ўзгартириш учун процессуал асослар таҳлил қилинган. Ҳукмни бекор қилиш ва уни ўзгартириш асосларининг ўзаро нисбати, ўзгартиришнинг процессуал чегаралари ҳамда маҳкумнинг аҳволини оғирлаштиришга йўл қўймаслик қоидаси ёритилган. Қиёсий таҳлил асосида миллий қонунчиликка каузаллик мезонини жорий этиш зарурати асослантирилган.

**Калит сўзлар:** суд ҳукми, ҳукмни ўзгартириш, ҳукмни бекор қилиш, апелляция, кассация, тафтиш, процессуал қонун бузилиши, жазонинг адолатсизлиги, ҳукм барқарорлиги, каузаллик мезони.

Суд ҳукмининг барқарорлиги одил судлов сифатининг асосий кўрсаткичларидан биридир. Айни пайтда барқарорлик ҳукмнинг ҳар қандай ҳолатда ўзгармаслигини эмас, балки уни фақат қонунда аниқ белгиланган асосларга кўра ва зарур ҳажмдагина ўзгартиришни англатади. Ушбу мувозанатни таъминлашда суд қарорларини юқори инстанцияларда қайта кўришнинг процессуал механизмлари муҳим аҳамият касб этади. Шу нуқтаи назардан, суд ҳукмларининг қонунийлиги, асослилиги ва адолатлилигини таъминлаш билан бир қаторда, уларнинг асоссиз равишда ўзгартирилиши ёки бекор қилинишига йўл қўймасликка қаратилган қайта кўриш тартибларининг самарадорлиги алоҳида илмий ва амалий аҳамиятга эга.

Мазкур масаланинг долзарблиги, аввало, жиноят-процессуал қонунчилигида суд қарорларини қайта кўриш тизимининг сўнгги йилларда жиддий ўзгаришларга учрагани билан белгиланади. Хусусан, 2023 йилги ислоҳот билан суд қарорларини текшириш институти тубдан ўзгартирилиб, назорат тартиби ўрнига тафтиш инстанцияси жорий этилди [1]. Шу билан бирга, юқори инстанция судларида кўрилаётган ишлар ҳажми ҳам сезиларли даражада ортиб бораётганини қайд этишимиз лозим: апелляция тартибида 2020 йилда 4 152 та иш кўрилган бўлса, 2023 йилда бу кўрсаткич 14 162 тани, кассация тартибида эса мос равишда 5 357 ва 9 218 тани ташкил этган [2].

ЖПКнинг 478-моддасига мувофиқ суд қарорларининг қонунийлиги, асослилиги ва адолатлилигини текшириш апелляция, кассация ҳамда тафтиш тартибида амалга оширилади [3]. Ушбу учта шакл ислоҳотдан кейин изчил кетма-кетликка келтирилган: қонуний кучга кирмаган ҳукм апелляция тартибида, қонуний кучга кирган ҳукм кассация тартибида, апелляция ёки кассацияда кўрилган қарор эса тафтиш тартибида қайта кўрилади.

Юқори инстанция суди муҳокамасининг предмети ЖПКнинг 482-моддасида белгиланган: суд ҳукмнинг қонунийлиги, асослилиги ва адолатлилигини ишда мавжуд бўлган ҳамда процесс иштирокчилари қўшимча тақдим этган ёхуд суднинг ўзи талаб қилиб олган материаллар асосида текширади. Демак, ҳукмни ўзгартириш учун асос юқори инстанцияда тақдим этилган қўшимча материаллардан ҳам келиб чиқиши мумкин.

ЖПКнинг 485-моддаси апелляция, кассация ва тафтиш тартибида ҳукмни бекор қилиш ёки ўзгартириш учун ягона асослар тизимини белгилайди. Уларга суд терговининг тўлиқ эмаслиги ёки бир ёқлама олиб борилганлиги, суд хулосаларининг ишнинг ҳақиқий ҳолатларига мувофиқ эмаслиги, ЖПК нормаларининг жиддий бузилганлиги, Жиноят кодекси нормаларининг нотўғри қўлланилганлиги, жазонинг адолатсизлиги ҳамда қонунда назарда тутилган айрим ҳолатларда жазони қўлламаслик зарурати киради. Ҳар бир асоснинг мазмуни 486–491-моддаларда очиб берилган.

Мазкур тизимдаги муаммо шундаки, асослар ягона рўйхатда белгиланган бўлса-да, аниқланган нуқсоннинг қайси ҳолларда ҳукмни бекор қилиш ва ишни янгидан кўришга юборишга, қайси ҳолларда эса юқори инстанциянинг ўзи томонидан ҳукмни ўзгартиришга олиб келиши етарлича аниқлаштирилмаган. Бунда ҳал қилувчи мезон асоснинг номи эмас, балки аниқланган камчиликни юқори инстанция суди янги суд муҳокамасисиз бартараф эта олиши ёки олмаслиги бўлиши лозим. Агар камчиликни суднинг ўзи бартараф этиб, иш бўйича қонуний ва асосли қарор қабул қилиш мумкин бўлса, ҳукмни ўзгартириш, акс ҳолда эса уни бекор қилиб, ишни тегишли инстанцияга юбориш мақсадга мувофиқ.

Бундай ёндашув хорижий тажрибада ҳам кузатилади. Масалан, Германия ЖПКси (StPO)нинг 354-§-сига кўра, ҳукм фақат қонунни қўллашдаги хато туфайли бекор қилинган ва ишни қўшимча фактик муҳокамаларсиз ҳал этиш мумкин бўлса, ревизион суд ишни ўзи ҳал қилади; бошқа ҳолларда эса иш янги кўриш учун қуйи судга қайтарилади [4]. Қозоғистон ЖПКсида (431-442 моддалар) ҳам асослар ягона тизимда берилган, бироқ айрим процессуал бузилишлар аниқланган ҳолларда ишни янги кўришга юбориш, бошқа ҳолларда эса қарорни ўзгартириш имконияти алоҳида тартибга солинган [5].

Шу муносабат билан ЖПКнинг 495-моддасида ҳукмни бекор қилиш ва ўзгартиришнинг аниқ мезонларини белгилаш таклиф этилади. Хусусан, аниқланган нуқсон юқори инстанция суди томонидан янги суд муҳокамасисиз бартараф этилиши мумкин бўлса, ҳукмни ўзгартириш, уни бартараф этиш учун далилларни қайта текшириш, суд терговини ўтказиш ёки ишни янгидан кўриш зарур бўлган ҳолларда эса ҳукмни бекор қилиш ва ишни тегишли инстанцияга юбориш қоидасини мустаҳкамлаш мақсадга мувофиқ. Бу ишларни қуйи судларга асоссиз қайтаришни камайтиради, процессуал муддатларнинг чўзилишининг олдини олади ва суд ҳукмларининг барқарорлиги билан одил судлов самарадорлиги ўртасидаги мувозанатни таъминлайди.

Ҳукмни ўзгартириш ваколати чексиз эмас. ЖПКнинг 494-моддаси маҳкумнинг ёки оқланган шахснинг аҳволини оғирлаштириш томонга ҳукмни бекор қилиш ва ўзгартиришнинг қатъий чекловларини белгилайди.

Олий суд Пленумининг 2019 йил 24 майдаги 11-сонли «Жиноят ишларини назорат тартибида кўриш бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги қарори ҳукмни ўзгартиришнинг аниқ шаклларини кўрсатиб берган [6]. Хусусан, суд қилмишни Жиноят кодексининг бошқа моддасига қайта квалификация қилишга, агар бу маҳкумга илгарисидан жиддий фарқ қиладиган айблов қўйилишига ёки унга оғирроқ жазо тайинланишига олиб келмасагина ҳақлилиги белгиланган.

Германия жиноят процессида ҳукмни ўзгартириш ёки бекор қилиш масаласи каузаллик мезони орқали ҳал этилади. StPO 337-параграфига кўра ревизия фақат ҳукм қонун бузилишига асосланганлиги (Beruhen) далили билан қаноатлантирилади: нисбий ревизия асосларида шикоят берувчи ҳукм ушбу бузилишга асосланган бўлиши эҳтимолини кўрсатиши шарт, StPO 338-параграфида санаб ўтилган мутлақ асосларда эса каузаллик рад этиб бўлмайдиган тарзда презумпция қилинади [7]. Бундан ташқари, StPO 354-параграфи 1a-банди ревизия судига ҳукмни бекор қилмасдан жазони ўзи ўзгартириш ваколатини беради.

АҚШда шунга ўхшаш вазифани «harmless error» доктринаси бажаради. Хусусан, апелляция суди процессуал хатони аниқласа ҳам, агар ушбу хато иш натижасига таъсир қилмаганлиги исботланса, ҳукм ўз кучида қолдирилади [8].

Ушбу қиёслаш миллий қонунчиликдаги асосий бўшлиқни очиб беради: ЖПКнинг 485-моддаси бузилишларни санайди, лекин ҳукмнинг айнан ўша бузилишга асосланганлигини исботлашни талаб қилмайди. Натижада ҳукм натижасига таъсир кўрсатмаган камчиликлар ҳам бекор қилиш асоси сифатида қўлланилиши, аксинча, жиддий бузилишлар «аҳамиятсиз» деб баҳоланиши мумкин.

Шу сабабли ЖПКнинг 485-моддасини иккинчи қисм билан тўлдириб, унда мазкур модда биринчи қисмининг 1–4-бандларида кўрсатилган асослар ҳукмни бекор қилишга ёки ўзгартиришга, башарти улар ҳукмнинг қонунийлигига, асослилигига ёхуд адолатлилигига таъсир кўрсатган ёки кўрсатиши мумкин бўлган тақдирдагина олиб келиши белгилаб қўйилиши таклиф этилади. Айни вақтда ушбу мезон процессуал кафолатларни қадрсизлантирувчи воситага айланиб қолмаслиги учун ЖПКнинг 488-моддасида процессуал қонуннинг ҳар қандай ҳолатда ҳукмни бекор қилишга олиб келувчи бузилишларини аниқ ажратиш зарур. Мутлақ бузилишлар доирасига, хусусан, суд таркибининг ноқонунийлиги, ҳимоя ҳуқуқининг таъминланмаганлиги ва иш юритиш тилига оид талабларнинг бузилиши каби ҳолатларни киритиш мумкин.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 27 сентябрдаги ЎРҚ-869-сонли «Суд қарорларининг қонунийлиги, асослилиги ва адолатлилигини

текшириш институти такомиллаштирилиши муносабати билан Жиноят-процессуал кодексига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги Қонуни. — https://lex.uz/docs/6619783

2. Кучқаров Х.З. Жиноят ишларини юқори инстанция судларида қайта кўрилишини такомиллаштириш: DSc дисс. автореферати. — Тошкент, 2024.

3. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. — https://lex.uz/docs/111460

4. Strafprozessordnung (StPO), § 354 «Eigene Entscheidung in der Sache; Zurückverweisung». Германия Федератив Республикасининг расмий қонунчилик портали // https://dejure.org/gesetze/StPO/354.html

5. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан // https://continent-online.com/Document/?doc_id=31575852

6. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2019 йил 24 майдаги 11-сонли «Жиноят ишларини назорат тартибида кўриш бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги қарори. — https://lex.uz/docs/4393049

7. Heinrich B., Reinbacher T. Die Revision, §§ 333 ff. StPO (Arbeitsblatt Nr. 45). — Universität Würzburg, 2023. — https://www.jura.uni-wuerzburg.de

8. Edwards H.T. To Err is Human, But Not Always Harmless // New York University Law Review. — 1995. — Vol. 70. — https://www.law.nyu.edu/sites/default/files/ECM_PRO_059252.pdf

# ОДАМ САВДОСИ ЖИНОЯТИНИНГ МАХСУС МАҚСАДИ: ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИДАГИ ТЕРМИНОЛОГИК НОМУВОФИҚЛИК ВА УНИ БАРТАРАФ ЭТИШНИНГ ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

**Ахмедов Абдулатиф Машрапович**
Ўзбекистон Республикаси
Ҳуқуқни муҳофаза қилиш
академияси кафедра доценти,
мустақил изланувчи
E-mail: ahmedovabdulatif85@gmail.com

**Аннотация.** Тезисда Жиноят кодексининг 135-моддаси диспозициясида одам савдосининг махсус мақсадини ифодаловчи «ундан фойдаланиш мақсадида» ибораси таҳлил қилинган. Беш минтақага мансуб 32 та давлат қонунчилигининг қиёсий таҳлили асосида мақсад элементини баён этишнинг тўртта модели ажратилган ҳамда Жиноят кодексининг 135-моддаси ва «Одам савдосига қарши курашиш тўғрисида»ги Қонуннинг 3-моддасига ўзгартиш киритиш бўйича аниқ таклифлар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** одам савдоси, эксплуатация, махсус мақсад, Палермо протоколи, қиёсий-ҳуқуқий таҳлил, жиноят қонуни терминологияси.

**1. Муаммонинг қўйилиши.** Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси (кейинги ўринларда — ЖК) 135-моддасининг биринчи қисмида одам савдосининг махсус мақсади «одамни ундан фойдаланиш мақсадида ёллаш, ташиш, топшириш, яшириш ёки қабул қилиш» тарзида, яъни халқаро стандартдаги «эксплуатация» атамаси орқали эмас, ҳуқуқий жиҳатдан бетараф «фойдаланиш» атамаси орқали ифодаланган [13]. Худди шу ёндашув «Одам савдосига қарши курашиш тўғрисида»ги Қонуннинг 3-моддасида ҳам такрорланган [15]. Ҳолбуки, Палермо протоколининг 3-моддаси «а» бандига мувофиқ, одам савдоси таркиби учта элементдан — ҳаракат (act), усул (means) ва мақсад (purpose) — иборат бўлиб, мақсад элементи «эксплуатация қилиш мақсадида» (for the purpose of exploitation) формуласи билан ифодаланади [1; 2]. Ўзбекистон мазкур протоколга 2008 йил 12 августда қўшилиб, миллий жиноят қонунчилигини унинг талабларига мослаштириш мажбуриятини олган [3]. Махсус мақсад — жабрланувчини кейинчалик эксплуатация қилиш нияти — жиноятнинг субъектив томонини тавсифловчи ҳамда уни мазмунан яқин таркиблардан ажратувчи асосий белгидир [41, P. 12–53].

**2. Тадқиқот гипотезаси.** ЖКнинг 135-моддасида қўлланилган «фойдаланиш» атамаси Палермо протоколидаги «exploitation» тушунчасининг мазмунини тўлиқ ва аниқ ифодаламайди, шу сабабли одам савдосининг мақсадини белгилаш ва мазкур жиноятни ўхшаш қилмишлардан фарқлашда ҳуқуқий ноаниқликларни келтириб чиқаради. Тадқиқотнинг эмпирик базасини

халқаро ҳуқуқ ҳужжатлари [1; 2; 4–7], UNODC методик ҳужжатлари [8–10], миллий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва Олий суд Пленумининг қарори [13–17] ҳамда беш минтақага мансуб 32 та давлатнинг жиноят қонунчилиги ташкил этади. Қўлланилган усуллар: қиёсий-ҳуқуқий, формал-юридик, ҳуқуқий-лингвистик (герменевтик), тизимли-структуравий ва статистик усуллар. Хорижий норматив матнлар асл тилда, расмий давлат ҳуқуқий базаларидан олинди.

**3. Миллий қонунчиликдаги терминологик номувофиқлик объектив мавжуд.** Олий суд Пленумининг 24.11.2009 йилдаги 12-сон қарори 2-бандида диспозиция қонун матнидан фарқли равишда — «одамни эксплуатация қилиш мақсадида ёллаш, ташиш, топшириш, яшириш ёки қабул қилиш» тарзида қайта баён этилган, 4-бандида эса «...жиноий жавобгарлик юзага келишининг зарур шарти одамни эксплуатация қилишга қаратилган мақсад мавжудлиги ҳисобланади» деб белгиланган [16]. Айниқса диққатга сазовори — 5-бандда Пленум икки атамани қавс ичида тенглаштиришга мажбур бўлганлигидир: «Одамлардан фойдаланиш (эксплуатация қилиш) бошқа шахсларнинг фоҳишалигидан фойдаланишни ёки улардан шаҳвоний фойдаланиш (эксплуатация қилиш)нинг ўзга шаклларини... англатади» [16]. Расмий русча матнда эса «фойдаланиш» атамаси умуман учрамайди [17]. Демак, олий суд органи қонундаги нуқсонни суд талқини воситасида бартараф этмоқда, ваҳоланки бу — қонун чиқарувчининг ваколатидир. 2025 йил 19 майдаги ЎРҚ-1065-сон Қонун билан 135-модданинг иккинчи ва учинчи қисмлари янги таҳрирда баён этилган, бироқ биринчи қисмдаги мақсад элементи қайта кўриб чиқилмаган [14].

**4. Халқаро стандарт махсус мақсадни умумлаштирувчи атама ва очиқ рўйхат орқали мустаҳкамлайди.** Палермо протоколининг 3-моддаси эксплуатациянинг тугал бўлмаган («at a minimum») рўйхатини беради [1]; айни формула Европа Кенгашининг «Одам савдосига қарши курашиш тўғрисида»ги 197-сонли Конвенциясининг 4-моддасида [4] ҳамда Европа Парламенти ва Кенгашининг 2011 йил 5 апрелдаги 2011/36/ЕИ-сон Директивасининг 2-моддасида [5] сўзма-сўз такрорланган. 2024 йилги (ЕИ) 2024/1712 Директиваси эксплуатация шаклларини суррогат оналик, мажбурий никоҳ ва ноқонуний фарзандликка олиш билан кенгайтирган, аммо «эксплуатация қилиш мақсадида» формуласини ўзгаришсиз қолдирган [6]. Бу қонунчилик техникаси учун муҳим далил: махсус мақсад умумлаштирувчи атама орқали, унинг шакллари эса очиқ рўйхат тарзида мустаҳкамланиши лозим.

**5. Одам савдоси жинояти таркиби формал бўлиб, эксплуатациянинг амалда рўй бериши талаб қилинмайди.** UNODC қўлланмасида принципиал қоида белгиланган: Палермо протоколининг 3-моддасида назарда тутилган жиноят анча эрта босқичдаёқ тугалланган ҳисобланади ва бунинг учун жабрланувчининг амалда эксплуатация қилиниши шарт эмас [8, para. 33]. UNODCнинг намунавий қонунида ҳам субъектив белги «for the purpose of exploitation of that person» ифодаси орқали белгиланган [9, Art. 8].

**6. «Фойдаланиш» атамаси жиноятнинг тугалланиш пайтини нотўғри белгилаш хавфини туғдиради.** «Фойдаланиш» сўзи одатда шахснинг меҳнати, хизматлари, танаси ёки имкониятларидан амалда наф олиш жараёнини англатади. Шу сабабли мазкур атама ҳуқуқни қўлловчида одам савдоси тугалланган деб топилиши учун жабрланувчидан реал фойдаланилгани, яъни эксплуатация амалда бошлангани исботланиши шарт, деган нотўғри тасаввурни шакллантириш хавфини келтириб чиқаради [10]. Натижада эксплуатация амалга оширилишидан олдин аниқланган ёллаш, ташиш ёки топшириш ҳолатлари тугалланган одам савдоси эмас, балки жиноятга тайёргарлик кўриш ёки суиқасд сифатида нотўғри баҳоланиши эҳтимоли пайдо бўлади.

**7. «Эксплуатация қилиш мақсадида» ибораси икки муҳим ҳолатни аниқ ифодалайди.** Биринчидан, у айбдорнинг келажакка қаратилган махсус мақсадини — жабрланувчини кейинчалик эксплуатация қилиш ниятини — кўрсатади. Иккинчидан, у жиноятнинг тугалланишини эксплуатация натижасининг юз бериши билан боғламайди. Бунда «эксплуатация» тушунчаси фақат мажбурий меҳнатни эмас, балки бошқа шахснинг фоҳишалигидан фойдаланиш, шаҳвоний эксплуатациянинг бошқа шакллари, мажбурий меҳнат ёки хизматлар, қуллик ва қулликка ўхшаш одатлар, эрксиз ҳолатда сақлаш ҳамда инсон аъзоларини ажратиб олиш каби шаклларни ҳам қамраб олади. Ўзбекистонга нисбатан берилган халқаро баҳоларда ҳам ЖК 135-моддасидаги таъриф Палермо протоколининг уч таркибий қисми билан тўлиқ уйғунлаштирилмагани қайд этилган [11; 12].

**8. Қиёсий-ҳуқуқий таҳлил мақсад элементини баён этишнинг тўртта моделини ажратиш имконини берди.** Биринчи модел — умумлаштирувчи «эксплуатация» атамаси ва унинг қонуний очиқ таърифи: Франция ЖКнинг 225-4-1-моддаси — «...эксплуатация мақсадида...» ва иккинчи хатбошидаги батафсил таъриф [26]; Нидерландия ЖКнинг 273f-моддаси — «...эксплуатация қилиш нияти билан...», 2-қисмдаги таъриф «камида ўз ичига олади» формуласи билан очиқ қолдирилган [29]; Канада ЖКнинг 279.01-моддаси — «уларни эксплуатация қилиш ёки уларнинг эксплуатациясига кўмаклашиш мақсадида», 279.04-моддада эксплуатация рўйхат орқали эмас, объектив «хавфсизлик таҳдиди» мезони орқали таърифланган [35]. МДҲ давлатларида ушбу модел истисносиз амал қилади: Россия ЖКнинг 127.1-моддаси ва 2-изоҳ [31], Беларусь ЖКнинг 181-моддаси ва унга изоҳ [33], Украина ЖКнинг 149-моддаси ва 1-изоҳдаги энг кенг очиқ рўйхат [34]. Қозоғистон ЖКнинг 128-моддасида мақсад «...эксплуатация мақсадида...» деб белгиланиб, 3-модданинг 1-бандида ҳал қилувчи мезон «...айбдор томонидан шахсга нисбатан мулкдорнинг айрим ёки барча ваколатларини амалга ошириш» тарзида мустаҳкамланган [32]. Ҳиндистоннинг Bharatiya Nyaya Sanhita ҳужжатида мақсад диспозициянинг бошига қўйилган [38]; Мексика [37] ва Колумбия «эксплуатация мақсадида» формуласини қўллайди, бунда Колумбия таърифи конститутив белги сифатида «иқтисодий фойда ёки бошқа ҳар қандай наф олиш» мезонини мустаҳкамлайди [36].

Иккинчи модел — «эксплуатация» атамаси қўлланилиб, унинг таърифи берилмаган ҳолат (Швейцария, Испания, Италия, Чили, Бразилия, Боливия). Учинчи модел — миллий тилдаги эквивалент атама, лекин мажбурий қонуний таъриф билан: Польша ЖКнинг 189а-моддаси бланкет норма бўлиб, барча белгилар 115-модда 22-параграфида берилган — «...ундан фойдаланиш мақсадида, ҳатто унинг розилиги билан ҳам, хусусан, фоҳишаликда, порнографияда ёки жинсий фойдаланишнинг бошқа шаклларида...» [30]. Поляк қонунчилиги «фойдаланиш» атамасини қўллаган, аммо уни «ҳатто унинг розилиги билан ҳам» қоидаси билан кучайтирган ва очиқ рўйхат орқали ҳуқуқий мазмун билан тўлдирган — Ўзбекистон учун бу энг яқин, аммо айнан таъриф мавжудлиги билан фарқ қилувчи ечимдир.

Тўртинчи модел — умумлаштирувчи атамасиз, мақсадларнинг ёпиқ рўйхати (Туркия ЖКнинг 80-моддаси [39]; АҚШ — 22 U.S.C. § 7102 [40]). Германия [27] ва Буюк Британия [28] мақсадни мос равишда «...эксплуатация қилиниши кўзда тутилган...» ва «...жабрланувчи эксплуатация қилиниши мақсадида...» конструкциялари орқали ифодалайди.

**9. Миқдорий кўрсаткичлар Ўзбекистон қонунчилигининг ажралиб турувчи ҳолатини тасдиқлайди.** Таҳлил қилинган 32 та давлатнинг 22 тасида (68,8%) жиноятнинг мақсади умумлаштирувчи «эксплуатация» атамаси орқали ифодаланган, 20 тасида (62,5%) эса ушбу атаманинг қонуний таърифи бевосита жиноят қонунида мустаҳкамланган. Энг муҳим хулоса шундаки, мақсадни бетараф атама (масалан, «фойдаланиш») билан ифодалаб, айни пайтда унинг қонуний таърифини бермайдиган бирорта давлат аниқланмади. Бошқача айтганда, бетараф атамани танлаган давлатлар уни албатта қонуний таъриф билан тўлдирган (Польша модели), таърифсиз қолдирган давлатлар эса «эксплуатация» атамасининг ўзидан фойдаланган. Ўзбекистон қонунчилиги эса ҳар икки кафолатдан ҳам маҳрум бўлиб, ажратилган моделларнинг ҳеч бирига мувофиқ келмайди.

**10. Миллий доктринада ҳам атаманинг беқарорлиги қайд этилган.** О. Субанов «фойдаланиш» ва «эксплуатация» атамаларининг семантик фарқини таҳлил қилиб, «...мазкур жиноят тушунчасини ўзбек тилида ифода этишда, бизнингча “эксплуатация” сўзини ишлатиш ўринли» деган хулосага келади [20, б. 503]. Н. Ҳамидов ҳам шу позицияни қўллаб-қувватлайди: «Слово “эксплуатация” совершенно отличается по значению и содержанию от слова “использование”» [21, с. 81]. И. Фазилов 135-моддани «эксплуатация мақсадида шахсни ушлаб туриш» қоидаси билан тўлдиришни таклиф этган [18; 19, б. 38–39]. Д. Қурбонов бир таҳлил доирасида ҳам «одамлардан фойдаланиш», ҳам «эксплуатация» атамаларини қўллашга мажбур бўлади [22, б. 8–9], З. Фарходова эса 135-моддани инглизчага таржима қилганда «фойдаланиш»ни «exploitation» деб беради [25, p. 42]. Мазкур масала Н. Отақулов [23] ва Н. Шоимов [24] ишларида ҳам қисман кўтарилган, бироқ мақсад элементи терминологияси кенг қамровли қиёсий-ҳуқуқий таҳлил предмети бўлмаган.

**11. «Фойдаланиш» атамаси камида учта жиддий камчиликка эга.** Биринчидан, семантик кенглик: «фойдаланиш» шахснинг хизматидан наф кўришнинг ҳар қандай, шу жумладан мутлақо қонуний шаклини қамрайди — меҳнат шартномаси бўйича ходимнинг меҳнатидан фойдаланиш ҳам грамматик жиҳатдан унга киради. Шу сабабли Пленум махсус тўсиқ ўрнатишга мажбур бўлган: «Эксплуатация человека отсутствует во всех случаях использования труда и услуг человека в соответствии с нормами трудового, гражданского законодательства...» [17]; бироқ Пленум қарори қонун кучига эга эмас. Иккинчидан, конститутив белгиларнинг йўқлиги: эксплуатациянинг доктринал белгилари — (а) шахс иродасининг бўйсундирилиши ёки қалтис аҳволидан фойдаланиш, (б) наф олишга қаратилганлик, (в) қонунга хилофлик — «фойдаланиш» атамасида акс этмаган. Ж. Аллэн ҳал қилувчи мезон сифатида «шахс устидан мулк ҳуқуқига хос ваколатларни амалга ошириш»ни асослайди [44]; ушбу мезон Қозоғистон ЖКнинг 3-моддасида қонун даражасида мустаҳкамланган [32]. Учинчидан, lex certa принципига мувофиқ келмаслик: норма шахс ўз хатти-ҳаракатининг ҳуқуқий оқибатларини олдиндан кўра биладиган даражада аниқ бўлиши керак. А. Галлахер таъкидлаганидек, айнан мақсад элементининг аниқлиги одам савдосини қўшни таркиблардан фарқлаш имконини беради [41; 42], Ж. Хэтэуэй Палермо режими эксплуатация тушунчасини етарлича аниқламагани миллий даражада ноаниқликка олиб келишини кўрсатади [43], А. Ковалькова ҳам таърифни такомиллаштириш зарурлигини асослайди [45].

**12. Муқобил позицияга эътироз.** С. Громов [46] ва А. Тукубашева [47] махсус мақсаднинг мажбурийлиги норма қўлланиш доирасини торайтиради ва исботлашни мураккаблаштиради, деб ҳисоблайдилар. Фикримизча, ушбу эътироз асосли эмас: махсус мақсад Палермо протоколининг императив талаби [1] бўлиб, ундан воз кечиш халқаро мажбурият талабига риоя этмаслик ҳисобланади; исботлаш қийинчилиги атамани ноаниқ қолдириш билан эмас, мақсад мазмунини қонун даражасида очиб бериш орқали енгиллаштирилади; амалдаги таҳрирда эса суд «фойдаланиш» тушунчасининг қонуний мезонларига умуман эга эмас. Бундан ташқари, таклиф мақсад элементини бекор қилишни эмас, аниқлаштиришни назарда тутади.

**13. Таклиф этилаётган таҳрир.** Юқоридагилар асосида қуйидаги ўзгартиш ва қўшимчаларни киритиш таклиф этилади.

1) ЖК 135-моддасининг биринчи қисмидаги «ундан фойдаланиш мақсадида» сўзларини «уни эксплуатация қилиш мақсадида» сўзлари билан алмаштириш;

2) Жиноят кодексининг атамалар бўлимига «шахсни эксплуатация қилиш» атамасини киритиш ва унга қуйидаги таърифни бериш: «Шахсни эксплуатация қилиш деганда ундан ёки унинг меҳнати ёхуд хизматларидан ғайриқонуний равишда моддий ёки бошқа наф олиш мақсадида, шахс устидан мулкдорга хос ваколатларнинг айримларини ёки барчасини амалга ошириш билан боғлиқ қуйидаги хатти-ҳаракатлар тушунилади: бошқа шахснинг фоҳишалигидан фойдаланиш ёки шаҳвоний эксплуатациянинг бошқа

шакллари, мажбурий меҳнат ёки хизматлар, шу жумладан тиланчиликка мажбурлаш, қуллик, қулликка ўхшаш одатлар ёки эрксиз ҳолат, мажбурий никоҳ ёки мажбурий ҳомиладорлик, ҳуқуққа хилоф фаолиятга жалб қилиш, инсон аъзолари ва (ёки) тўқималарини ғайриқонуний ажратиб олиш, эксплуатациянинг бошқа шакллари. Жабрланувчининг розилиги жавобгарликни истисно этмайди, меҳнат ва фуқаролик қонунчилигига мувофиқ фойдаланиш эксплуатация ҳисобланмайди»;

3) «Одам савдосига қарши курашиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 3-моддасидаги «одамлардан фойдаланиш» атамасини «одамларни эксплуатация қилиш» атамаси билан алмаштириш ва унинг таърифини ЖКнинг янги таърифи билан мувофиқлаштириш [15].

**14. Таклифнинг методологик асоси.** Таклиф этилаётган таъриф учта асосни бирлаштиради: 1) шаклларнинг очиқ рўйхати — Палермо протоколи [1] ва ЕИ директивалари [5; 6] мантиғида; 2) наф олишга қаратилганлик мезони — Колумбия модели [36] бўйича; 3) мулкдорга хос ваколатларни амалга ошириш мезони — Қозоғистон модели [32] ва Ж. Аллэн доктринаси [44] бўйича. Розилик ва қонуний меҳнат муносабатларига оид қоидалар эса Пленум қарори даражасидан [16; 17] қонун даражасига кўтарилади.

**15. Хулосалар.** Ўтказилган таҳлил қуйидаги якуний хулосаларни шакллантириш имконини беради.

Биринчидан, ЖК 135-моддасидаги «ундан фойдаланиш мақсадида» ибораси Палермо протоколидаги «for the purpose of exploitation» формуласининг адекват эквиваленти эмас: у ҳуқуқий жиҳатдан бетараф бўлиб, махсус мақсадни аниқ ифодалашга қодир эмас.

Иккинчидан, миллий ҳуқуқий тизимда терминологик номувофиқлик объектив мавжуд: қонун «фойдаланиш», унинг расмий русча варианти ва Пленум қарори эса «эксплуатация» атамасини қўллайди [16; 17]. Муаммони суд талқини воситасида ҳал этиш ҳуқуқий давлат принципларига зид бўлиб, у қонунчилик даражасида бартараф этилиши лозим.

Учинчидан, 32 та давлат қонунчилигининг қиёсий таҳлили тўртта моделни ажратиш имконини берди. Давлатларнинг 68,8 фоизида «эксплуатация» атамаси, 62,5 фоизида эса унинг қонуний таърифи қўлланилади; Ўзбекистон қонунчилиги эса моделларнинг ҳеч бирига мувофиқ келмайди.

Тўртинчидан, ЖК 135-моддасига терминологик ўзгартиш ва эксплуатациянинг қонуний таърифини берувчи изоҳ киритиш ҳамда «Одам савдосига қарши курашиш тўғрисида»ги Қонуннинг 3-моддасини мувофиқлаштириш халқаро мажбуриятлар бажарилишини, жиноят қонунининг аниқлигини ва ҳуқуқни қўллаш амалиётининг бир хиллигини таъминлайди.

## АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

*Изоҳ: электрон манбалар тўғридан-тўғри кириш имконига эга (ҳаволалар 2026 йил 15 август ҳолатига текширилган).*

### I. Халқаро ҳуқуқ ҳужжатлари ва расмий халқаро манбалар

1. Protocol to Prevent, Suppress and Punish Trafficking in Persons (Palermo Protocol, 15.11.2000), Art. 3. URL: https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/protocol-prevent-suppress-and-punish-trafficking-persons

2. Палермский протокол 2000 г., ст. 3 (официальный русский текст). URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/protocol1.shtml

3. UN Treaty Collection, Ch. XVIII-12-a (Ўзбекистоннинг қўшилиши — 12.08.2008). URL: https://treaties.un.org/pages/ViewDetails.aspx?src=IND&mtdsg_no=XVIII-12-a&chapter=18

4. CoE Convention on Action against Trafficking in Human Beings, CETS No. 197 (2005), Art. 4. URL: https://rm.coe.int/168008371d

5. Directive 2011/36/EU of 5 April 2011, OJ L 101, 15.4.2011, Art. 2. URL: https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2011/36/oj

6. Directive (EU) 2024/1712 of 13 June 2024, OJ L, 2024/1712, 24.6.2024. URL: https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2024/1712/oj

7. ILO Forced Labour Convention, 1930 (No. 29), Art. 2(1). URL: https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/forced-labour-convention-1930-no-29

8. UNODC. Legislative Guides… — Vienna, 2004. — Part Two, para. 33. URL: https://www.unodc.org/pdf/crime/legislative_guides/Legislative%20guides_Full%20version.pdf

9. UNODC. Model Law against Trafficking in Persons. — Vienna, 2009. — Arts. 5, 8. URL: https://www.unodc.org/documents/human-trafficking/UNODC_Model_Law_on_Trafficking_in_Persons.pdf

10. UNODC. Issue Paper: The Concept of “Exploitation”… — Vienna, 2015. — 130 p. URL: https://www.unodc.org/documents/congress/background-information/Human_Trafficking/UNODC_2015_Issue_Paper_Exploitation.pdf

11. U.S. Department of State. Trafficking in Persons Report 2025: Uzbekistan. URL: https://www.state.gov/reports/2025-trafficking-in-persons-report/uzbekistan/

12. UN CRC. Concluding observations: Uzbekistan (OPSC), CRC/C/OPSC/UZB/CO/1, 08.07.2013. URL: https://digitallibrary.un.org/record/756285

**II. Ўзбекистон Республикасининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари**

13. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси (22.09.1994), 135-модда. URL: https://lex.uz/docs/111453

14. ЎзР Жиноят кодексининг 135-моддасига ўзгартириш киритиш тўғрисида ЎзР Қонуни, ЎРҚ-1065-сон, 19.05.2025. URL: https://lex.uz/docs/7532326

15. «Одам савдосига қарши курашиш тўғрисида» ЎзР Қонуни, ЎРҚ-154-сон, 17.04.2008 (ЎРҚ-633-сон, 17.08.2020 таҳририда), 3-модда. URL: https://lex.uz/uz/docs/1339436

16. ЎзР Олий суди Пленумининг «Одам савдосига оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида» 24.11.2009 й. 12-сон қарори. URL: https://lex.uz/docs/1616053

17. Тот же документ на русском языке (постановление № 12 от 24.11.2009 г.). URL: https://www.lex.uz/acts/1616058

**III. Миллий илмий адабиётлар**

18. Фазилов И.Ю. Одам савдосига қарши курашнинг жиноят ҳуқуқий ва криминологик жиҳатлари: DSc дисс. автореф.: 12.00.08. — Т.: ЎзР ИИВ Академияси, 2016. — 106 б. URL: https://inlibrary.uz/index.php/autoabstract/article/view/49073

19. Фазилов И. Повышение ответственности за торговлю детьми // Uzbek Law Review. — 2014. — № 3-4. — Б. 35–40. URL: https://inlibrary.uz/index.php/uzbek_law_review/article/view/13798

20. Subanov O.S. Odam savdosi jinoyatining tushunchasi va uning ijtimoiy xavfli koʻrinishlari // J. of Science-Innovative Research in Uzbekistan. — 2024. — Vol. 2, Iss. 11. — B. 501–506. URL: https://inlibrary.uz/index.php/journal-science-innovative/article/view/62595

21. Ҳамидов Н.О. Торговля людьми как форма транснациональной организованной преступности… // Журнал правовых исследований. — 2026. — Т. 11, № 2/2. — С. 77–84. URL: https://www.tadqiqot.uz/index.php/law/article/view/13587

22. Qurbonov D.R. Shaxsning ozodligiga qarshi jinoyatlar obyekti // Kriminologiya va jinoiy odil sudlov. — 2022. — № 4. — B. 4–17. URL: https://proacademy.uz/postfiles/sets/8p/ll/8PlLb1QNlSEYsbmGue49Cjz-E_xltbCl.pdf

23. Отақулов Н.А. Одам савдоси билан боғлиқ жиноятларнинг жиноий-ҳуқуқий жиҳатлари // PEDAGOG. — 2023. — Т. 6, № 4. — Б. 228–234. URL: https://zenodo.org/records/7846831

24. Шоимов Н. Одам савдосига қарши курашишни ташкил этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари // Innovative Research in Science. — 2024. — № 3(6). — Б. 133–140. URL: https://inlibrary.uz/index.php/irs/article/view/52607

25. Farxodova Z.F. The Phenomenon of “Human Trafficking” in Uzbekistan… // Int. J. of History and Political Sciences. — 2024. — Vol. 4, No. 09. — P. 40–48. URL: https://inlibrary.uz/index.php/ijhps/article/view/44256

**IV. Хорижий давлатлар қонунчилиги**

26. Code pénal (France), art. 225-4-1. URL: https://www.legifrance.gouv.fr/codes/article_lc/LEGIARTI000027811040

27. Strafgesetzbuch (Deutschland), § 232 Menschenhandel. URL: https://www.gesetze-im-internet.de/stgb/__232.html

28. Modern Slavery Act 2015 (UK), ss. 2, 3. URL: https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2015/30/section/2

29. Wetboek van Strafrecht (Nederland), art. 273f. URL: https://wetten.overheid.nl/BWBR0001854

30. Kodeks karny (Polska), art. 189a, art. 115 § 22. URL: https://isap.sejm.gov.pl/isap.nsf/DocDetails.xsp?id=WDU19970880553

31. Уголовный кодекс Российской Федерации, ст. 127.1 и примечание 2. URL: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/

32. Уголовный кодекс Республики Казахстан от 03.07.2014 № 226-V, ст. 128, ст. 3. URL: https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000226

33. Уголовный кодекс Республики Беларусь, ст. 181 и примечание к ней. URL: https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900275

34. Кримінальний кодекс України, ст. 149 і примітка 1. URL: https://zakon.rada.gov.ua/laws/show/2341-14

35. Criminal Code (Canada), R.S.C. 1985, c. C-46, ss. 279.01, 279.04. URL: https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/C-46/section-279.01.html

36. Ley 985 de 2005 (Colombia), art. 3 (Código Penal, art. 188A). URL: https://www.oas.org/dil/esp/ley_985_de_2005_colombia.pdf

37. Ley General… en Materia de Trata de Personas (México, 2012), art. 10. URL: https://www.diputados.gob.mx/LeyesBiblio/pdf/LGPSEDMTP.pdf

38. Bharatiya Nyaya Sanhita, 2023 (India), s. 143. URL: https://www.indiacode.nic.in/handle/123456789/20062

39. Türk Ceza Kanunu (Kanun No. 5237), madde 80. URL: https://www.mevzuat.gov.tr/mevzuatmetin/1.5.5237.pdf

40. 22 U.S.C. § 7102 (TVPA, definitions). URL: https://www.law.cornell.edu/uscode/text/22/7102

**V. Хорижий илмий адабиётлар**

41. Gallagher A.T. The International Law of Human Trafficking. — Cambridge: Cambridge University Press, 2010. — Ch. 2. — P. 12–53. DOI: 10.1017/CBO9780511761065.

42. Gallagher A.T. The International Legal Definition of “Trafficking in Persons”: Scope and Application // Kotiswaran P. (ed.). Revisiting the Law and Governance of Trafficking… — Cambridge: CUP, 2017. — P. 83–111. DOI: 10.1017/9781316675809.003.

43. Hathaway J.C. The Human Rights Quagmire of “Human Trafficking” // Virginia Journal of International Law. — 2008. — Vol. 49, No. 1. — P. 1–59. URL: https://repository.law.umich.edu/articles/296/

44. Allain J. The Legal Definition of Slavery into the Twenty-First Century // The Legal Understanding of Slavery. — Oxford: OUP, 2012. — P. 199–219. DOI: 10.1093/acprof:oso/9780199660469.003.0012.

45. Ковалькова А.С. Торговля людьми и криминальная эксплуатация человека… // Юридический вестник Самарского университета. — 2024. — Т. 10, № 1. — С. 98–105. URL: https://sci.ru/articles/17017

46. Громов С.В. Уголовно-правовая характеристика торговли людьми и использования рабского труда: дисс. … канд. юрид. наук. — М., 2006. — 155 с. URL: https://www.dissercat.com/content/ugolovno-pravovaya-kharakteristika-torgovli-lyudmi-i-ispolzovaniya-rabskogo-truda

47. Тукубашева А.И. Уголовно-правовые и криминологические аспекты торговли людьми (на материалах Кыргызской Республики): дисс. … канд. юрид. наук. — Бишкек, 2011. URL: https://lawtheses.com/ugolovno-pravovye-i-kriminologicheskie-aspekty-torgovli-lyudmi

## ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

# AZERBAIJAN AND UZBEKISTAN: THE HISTORY OF LITERARY AND CULTURAL COOPERATION

**Turdieva Khulkar Komilovna,**
PhD, Associate Professor,
Alfraganus University

**Abstract**. This paper examines Azerbaijan–Uzbekistan literary and cultural relations through Sherali Turdiyev's works "Nizomiy bolidan" and "Qodiriy va qardoshlar satirasi." It explores shared literary heritage, the influence of Nizami and Navoi, the role of periodicals such as *Molla Nasraddin*, *Füyuzat*, *Oyina*, and *Sadoyi Turkiston*, and Azerbaijani scholars' recognition of Abdulla Qodiriy's *O'tkan Kunlar*. It also highlights cooperation in theater, translation, journalism, education, and satire, viewing these ties as part of the wider Turkic cultural space.

**Key words:** Azerbaijan-Uzbekistan literature, Sherali Turdiyev, literary relations

Sh. Turdiyev is a devoted Uzbek scholar who dedicated his life to uncovering the hidden history of Uzbek Jadid literature, literary relations of Uzbek and Turkic brother nations.

Sherali Turdiyev authored several important books on literary relations, including "The Result of Literary Cooperation" and "The History of Interrelations among Turkic Literatures". In addition, he published numerous articles on the literary and cultural ties between Azerbaijan and Uzbekistan [1].

He was active to write articles as well about Azerbaijan and Uzbek literary relations. Article "Nizami bolidan" — "Nizami's honey", the meaning is Nizami's beautiful words, highlights both nations' love towards Nizami, Fuzuli and Navoi. It also notes that the works of the works such as Aliakbar Sabir, Muhammad Hadi and others were widely spread in Turkistan. Similarly, the works of Uzbek writers like Muqimiy, Hamza, S. Ayni, Siddiqi, Qodiri became famous among the Azerbaijani people. Furthermore, when Abdulla Qodiriy's novel O'tkan Kunlar (Bygone Days) was banned in Uzbekistan and readers were prohibited from accessing it, an Azerbaijani scholar translated the novel into Azerbaijani. This demonstrates that Azerbaijani intellectuals recognized the literary and social significance of O'tkan Kunlar earlier and more objectively than it was acknowledged in Uzbekistan at that time.

Likewise, Azerbaijani newspapers such as "Füyuzat" and "Molla Nasraddin" became widely known in Turkestan, while Turkestan's newspapers "Sadoi Farg'ona", "Sadoi Turkiston", and "Oyina" also gained popularity in Azerbaijan. These publications had a profound influence on people's intellectual outlook, as their primary goal was to awaken national consciousness and encourage people to resist political oppression and the colonial system.

In 1916, the prominent Azerbaijani actor Sadig Ruhulla visited Uzbekistan and developed close professional ties with Mannon Uygur and Abdulla Avloniy. Azerbaijani actors performed "Layli and Majnun" at the Colosseum Theatre in Tashkent, while many Uzbek actors and actresses later went to Azerbaijan to study and improve their theatrical skills.[2] This mutual exchange significantly strengthened cultural and theatrical cooperation between the two nations.

In 1925 Navoi's works were not celebrated due to political reasons in Uzbekistan, whereas Azerbaijani scholars and writers published proceeding collection titled "Navai" in 1930. This shows Azerbaijani recognized more quickly the social value of Uzbek culture than Uzbekistan.

In 1916, the newspaper Turkiston published the march composed by Uzeyir Hajibeyov. It had a profound impact on both intellectuals and ordinary people by inspiring national consciousness. Here are a few lines from this march in the Azerbaijani language:

*Kim ol zaman Türk hökümran,*
*Türkə müti nəfsi-cahan,*
*Gör nə ləzzət çəkdi bu millət.*

Its English translation is:

*When the Turks ruled the world,*
*And the world bowed before them,*
*This nation lived in honor.*

In his research, Sherali Turdiyev also highlights several works by poets and writers dedicated to Azerbaijani literature and culture [3]. These include Cho'lpon's article on Fuzuli, Hamid Riza's dissertation on Uzbek–Azerbaijani literary relations, and Abdulla Oripov's poem (episode of A.Oripov's poem: Xəzər piyalə olsun, yəni Cəm camı, İçək şərəflə dövrü-zamanı. Əgər mövcud olmasaydı dünyada, Düşünüb tapardım Azərbaycanı) Azerbaijan, among others.

What was Sherali Turdiyev's contribution? First, through his research, he demonstrated the important role of Azerbaijani scholars in providing an objective evaluation of Abdulla Qodiriy's novel O'tkan Kunlar (Bygone Days). At a time when an honest discussion of this novel was nearly impossible in Uzbekistan, Azerbaijani intellectuals recognized and appreciated its literary and social significance. Second, Sherali Turdiyev revealed the close cooperation between Azerbaijan and Uzbekistan, particularly in the fields of theatre, translation, journalism, and education. Students, writers, and artists from both countries actively exchanged knowledge, ideas, and professional experience [4].

Overall, Sherali Turdiyev made a significant contribution to uncovering the history of literary and cultural relations between Azerbaijan and Uzbekistan. His research has also opened new and promising directions for future scholarly investigation.

**Reference:**

1. Турдиев Ш. Адабий дўстлигимиз тонгида.–Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 1974 йил. – 37б.
2. Турдиев Ш. Ҳаётбахш таъсирлар. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги

Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – 108 б.
3. Турдиев Ш. Адабий алоқалар тарихидан // Шарқ юлдузи, №1, 1965 йил. – Б. 132-133.
4. Khulkar, T. (2021). Uzbek scholar Sherali Turdiev: discoverer of the closed pages. *Бюллетень науки и практики*, *7*(5), 575-579.

# O‘ZBEK VA TURK TILLARIDA OMONIMIYA HODISASINING NAZARIY VA LINGVISTIK ASOSLARI

**Abdurashidova Odina A'zam qizi**
TDSHU magistr
Теоретические и лингвистические
основы явления омонимии
в узбекском и турецком языках
Theoretical and Linguistic
Foundations of Homonymy in the
Uzbek and Turkish Languages
*Master's student at TDSHU*
https://orcid.org/0009-0003-3556-0614
samandarova.odina@icloud.com

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqotda o‘zbek va turk tillaridagi omonimik birliklarning shakliy, semantik va lingvokognitiv xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Omonimlarning yuzaga kelish omillari, polisemiya bilan munosabati hamda kontekst asosida ma’nolarining farqlanish mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari ikki tildagi omonimiyaning umumiy va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

**Аннотация:** В данном исследовании проводится сопоставительный анализ формальных, семантических и лингвокогнитивных особенностей омонимических единиц в узбекском и турецком языках. Рассматриваются факторы возникновения омонимов, их взаимосвязь с полисемией и механизмы разграничения значений на основе контекста. Результаты исследования позволяют выявить общие и отличительные особенности омонимии в двух языках.

**Abstract:** This study provides a comparative analysis of the formal, semantic, and linguocognitive features of homonymous units in the Uzbek and Turkish languages. It examines the factors contributing to the emergence of homonyms, their relationship with polysemy, and the mechanisms of distinguishing meanings based on context. The findings contribute to identifying the common and distinctive features of homonymy in the two languages.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek tili, turk tili, omonimiya, omonim birliklar, polisemiya, semantika, lingvokognitiv tahlil.

**Ключевые слова:** узбекский язык, турецкий язык, омонимия, омонимические единицы, полисемия, семантика, лингвокогнитивный анализ.

**Keywords:** Uzbek language, Turkish language, homonymy, homonymous units, polysemy, semantics, linguocognitive analysis.

**Kirish.** Omonimiya tilning lug'aviy tizimida muhim o'rin tutuvchi murakkab lingvistik hodisalardan biridir. Bir xil shaklga ega bo'lgan, ammo turli ma'nolarni ifodalovchi birliklar nutq jarayonida kontekst orqali farqlanadi. O'zbek va turk tillari tarixiy va tipologik jihatdan yaqin bo'lishiga qaramay, ulardagi omonimik birliklarning shakllanishi, semantik xususiyatlari va qo'llanishida o'ziga xos jihatlar mavjud. Shu sababli mazkur hodisani qiyosiy o'rganish ikki tilning leksik-semantik tizimini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Zamonaviy tilshunoslikda omonimiya faqat shakliy o'xshashlik asosida emas, balki semantik, etimologik va kognitiv jihatlar bilan birgalikda tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, omonimiya va polisemiya o'rtasidagi chegarani aniqlash, omonimlarning yuzaga kelish omillarini belgilash hamda ularning kontekstda anglashilishini o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, o'zbek va turk tillaridagi omonim birliklarni qiyosiy tahlil qilish mavzuning ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi o'zbek va turk tillaridagi omonimik birliklarning shakliy, semantik hamda lingvokognitiv xususiyatlarini aniqlash va ularning o'xshash hamda farqli jihatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda omonimiyaning shakllanish omillari, polisemiya bilan munosabati va kontekst orqali ma'nolarning farqlanish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** O'zbek va turk tillaridagi omonimiya hodisasi leksikologiya, semantika, etimologiya va lingvokognitiv tilshunoslik doirasida tadqiq etib kelinmoqda. Mazkur masalaga oid ilmiy adabiyotlarda omonimiyaning shakliy va semantik belgilari, yuzaga kelish sabablari hamda polisemiya bilan munosabati asosiy tadqiqot yo'nalishlari sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, H. K. Erkınay Tamtamışning turk tiliga oid tadqiqotlarida omonimlarning shakllanish jarayoni, tarixiy taraqqiyoti va etimologik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchi omonimlarni aniqlashda faqat shakliy o'xshashlikka tayanish yetarli emasligini, birliklarning ma'nosi va kelib chiqishini ham hisobga olish zarurligini asoslaydi. Shuningdek, ayrim omonimlarning o'zlashma so'zlar, fonetik va semantik o'zgarishlar natijasida shakllanishi ko'rsatib beriladi.

N. Abdurahmanovaning o'zbek va turk tillariga bag'ishlangan tadqiqotlarida omonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari kengroq yoritilgan. Muallif omonimik birliklarni nafaqat shakl va ma'no munosabati, balki insonning idrok etishi, tafakkuri va mental leksikoni bilan bog'liq holda talqin qiladi. Bu yondashuv omonimlarning nutq jarayonida kontekst orqali farqlanishini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotlar o'zbek va turk tillaridagi omonimiyani qiyosiy o'rganish uchun nazariy asos vazifasini bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasini **qiyosiy, tavsifiy, semantik, kontekstual va lingvokognitiv tahlil** usullari tashkil etadi. Dastlab o'zbek va turk tillaridagi omonimik birliklar aniqlanib, ularning shakliy va grammatik xususiyatlari tavsiflanadi. Keyingi bosqichda birliklarning lug'aviy ma'nolari, semantik farqlari va kelib chiqish omillari qiyoslanadi. Kontekstual tahlil orqali omonimlarning muayyan nutqiy vaziyatda qaysi ma'noni ifodalashi aniqlanadi. Shuningdek,

omonimiya va polisemiya oʻrtasidagi farqlar tahlil qilinib, ikki tildagi umumiy va oʻziga xos jihatlar belgilanadi.

Tadqiqotda **induksiya va deduksiya** usullaridan ham foydalanilib, alohida misollar asosida umumiy ilmiy xulosalar shakllantiriladi. Shu orqali oʻzbek va turk tillaridagi omonimiya hodisasining shakllanishi, semantik rivoji va funksional xususiyatlarini kompleks tarzda yoritish maqsad qilinadi.

**Natija va xulosalar.** Tadqiqot natijalari oʻzbek va turk tillaridagi omonimiya hodisasi shakliy oʻxshashlik bilan cheklanmasligini, uning semantik, etimologik, grammatik va lingvokognitiv xususiyatlar bilan chambarchas bogʻliqligini koʻrsatdi. Ikki tilda ham omonimik birliklarning shakllanishida fonetik va semantik oʻzgarishlar, soʻzlarning tarixiy taraqqiyoti hamda boshqa tillardan oʻzlashish jarayonlari muhim omil sifatida namoyon boʻladi.

Qiyosiy tahlil natijasida omonimlarning maʼnosini aniqlashda **kontekst asosiy vositalardan biri** ekanligi aniqlandi. Bir xil shakldagi birliklarning turli maʼnolari gapning mazmuni, grammatik qurilishi va nutqiy vaziyat orqali farqlanadi. Bu holat omonimiyaning nafaqat leksik-semantik, balki kognitiv xususiyatga ham ega ekanligini koʻrsatadi. Shuningdek, omonimiya va polisemiya oʻrtasidagi chegarani belgilashda birliklarning kelib chiqishi va maʼnolar oʻrtasidagi semantik bogʻliqlikni hisobga olish zarurligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek va turk tillaridagi omonimiya umumiy turkiy til xususiyatlari bilan bir qatorda har bir tilning tarixiy va leksik taraqqiyotiga xos jihatlarni ham aks ettiradi. Omonimlarni qiyosiy va kompleks oʻrganish ikki tilning leksik-semantik tizimini chuqurroq anglash, ularning oʻxshash va farqli tomonlarini aniqlash hamda zamonaviy tilshunoslikda omonimiya hodisasini yanada mukammal tadqiq etish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Erkınay Tamtamış H.K. Türkçede Eş Adlılık // Akademik Dil ve Edebiyat Dergisi. – 2021. – Vol. 5, No. 1. – B. 619–653.
2. Erkınay Tamtamış H.K. Çok Anlamlılıktan Eş Adlılığa Doğru Tarihsel Bir Yolculuk // Folklor/Edebiyat. – 2022. – Vol. 28, No. 4. – B. 1025–1045.
3. Abdurahmanova M. Ranks of Mental Homonymy in the Uzbek and Turkish Languages // Foreign Linguistics and Linguodidactics. – 2024. – Vol. 2, No.23. – B. 273–279.
4. Abdurahmanova M. Artistic and Cognitive Properties of Lexical Homonyms in the Uzbek and Turkish Languages // Qutty Bilik. – 2025.
5. Hojiyev A. Oʻzbek tili morfologiyasi, morfemikasi va soʻz yasalishi. – Toshkent: Fan, 2002.

# IQTISODIY TERMINOLOGIYADA ANTONIMIK MUNOSABATLARNING IFODALANISHI

**Zoidjonova Oydinoy Muhammadjon qizi**,
*TDSHU magistr*

THE EXPRESSION OF ANTONYMIC RELATIONS IN ECONOMIC TERMINOLOGY

ВЫРАЖЕНИЕ АНТОНИМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

https://orcid.org/0009-0003-6347-4764
oydinoyzoidjonova@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda oʻzbek iqtisodiy terminologiyasida antonimik munosabatlarning shakllanishi va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Iqtisodiy tushunchalarning qarama-qarshi yoki bir-birini toʻldiruvchi jihatlarini ifodalovchi terminlar gradual, komplementar va konvers munosabatlar asosida guruhlanadi.

**Kalit soʻzlar:** iqtisodiy terminologiya, antonimiya, antonim, gradual antonim, komplementar antonim, konvers antonim, semantik munosabat.

**Abstract.** This thesis analyzes the formation and semantic features of antonymic relations in Uzbek economic terminology. Terms expressing contrasting or complementary aspects of economic concepts are classified into gradual, complementary, and converse relations.

**Keywords:** economic terminology, antonymy, antonym, gradual antonym, complementary antonym, converse antonym, semantic relations.

**Аннотация.** В тезисе анализируются особенности формирования и семантические характеристики антонимических отношений в узбекской экономической терминологии. Термины, выражающие противоположные или взаимодополняющие стороны экономических понятий, классифицируются на градуальные, комплементарные и конверсивные отношения.

**Ключевые слова:** экономическая терминология, антонимия, антоним, градуальные антонимы, комплементарные антонимы, конверсивные антонимы, семантические отношения.

Zamonaviy iqtisodiy terminologik tizim terminlar oʻrtasidagi turli semantik munosabatlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Xususan, sinonimik, giponimik va antonimik munosabatlar iqtisodiy tushunchalarning oʻzaro aloqasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Antonimiya ikki leksik birlik oʻrtasidagi semantik qarama-qarshilikni ifodalovchi munosabat boʻlib, iqtisodiy terminologiyada uning qoʻllanishi iqtisodiy hodisa va jarayonlarning koʻpincha ikki qarama-qarshi holat yoki yoʻnalish asosida namoyon boʻlishi bilan izohlanadi.

Iqtisodiy terminologiyadagi antonimik birliklarni semantik xususiyatiga koʻra bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni gradual, ya’ni darajali antonimlar tashkil etadi. Bunday birliklar oʻrtasida oraliq holat yoki darajalar mavjud boʻlishi mumkin. Masalan, inflyatsiya – deflyatsiya munosabatida narxlar

umumiy darajasining oshishi va pasayishi qarama-qarshi iqtisodiy jarayonlarni ifodalaydi. Ular oʻrtasida narxlar barqarorligi holati mavjud boʻlishi mumkin.

Ikkinchi guruhga komplementar antonimlar kiradi. Bunday birliklarda qarama-qarshi tushunchalar oʻrtasida uchinchi oraliq holat mavjud boʻlmaydi yoki tushunchalar muayyan tasnif doirasida bir-birini inkor etadi. Masalan, byudjet defitsiti – byudjet profitsiti juftligi byudjet mablagʻlari va xarajatlari oʻrtasidagi ikki qarama-qarshi holatni ifodalaydi.

Uchinchi guruhni konvers, ya’ni munosabatdosh antonimlar tashkil etadi. Bunday birliklar bir xil iqtisodiy hodisa yoki munosabatni uning turli ishtirokchilari nuqtayi nazaridan ifodalaydi. Masalan, kreditor – debitor juftligida bir xil qarz munosabatining ikki tomoni aks etadi: kreditor mablagʻ beruvchi, debitor esa mablagʻni oluvchi tomon hisoblanadi. Bu kabi birliklarda qarama-qarshilik bevosita predmet yoki hodisaning belgisiga emas, balki iqtisodiy munosabatdagi ishtirokchilarning oʻzaro pozitsiyasiga asoslanadi.

Iqtisodiy terminologiyada antonimik munosabatlar faqat ikki terminning lugʻaviy ma’nosi orqali emas, balki termin birikmalari tarkibida ham ifodalanadi. Masalan, ichki bozor – tashqi bozor, ichki qarz – tashqi qarz, qisqa muddatli kredit – uzoq muddatli kredit, toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiya – bilvosita investitsiya kabi birliklarda qarama-qarshilik termin tarkibidagi muayyan komponentlarning semantik farqi orqali yuzaga keladi. Bunday holatda antonimik munosabat butun termin birikmasining mazmuniga taalluqli boʻlib, iqtisodiy tushunchalarni muayyan mezon asosida farqlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy terminologiyada antonimik munosabatlar iqtisodiy hodisa va jarayonlarning qarama-qarshi, muqobil yoki munosabatdosh jihatlarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Ularning gradual, komplementar va konvers kabi turlarga ajratilishi iqtisodiy terminlar oʻrtasidagi semantik farqlarni aniqroq belgilash imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Murphy M. L. *Semantic Relations and the Lexicon: Antonymy, Synonymy and Other Paradigms*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
2. Axmedov O. S. Ingliz va oʻzbek tillarida soliq-bojxona terminologiyasida antonimiya hodisasining oʻrni. // *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari*. – 2023. – № 16.
3. Yuldasheva D. B., Yuldasheva Sh. Q. *Lexical-Semantic Properties of Financial Terms*. // *International Journal of Political Sciences and Economics*. – 2026.
4. Qutliyeva M. Analysis of the Assimilation Process of Banking and Financial Terminology from Russian to Uzbek. // *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education*. – 2024. – Vol. 2, No. 12. – P. 651-654.
5. Sayidirahimova N. S. Semantic Classification of the Syntax Antonyms of Uzbek Language. // *Theoretical & Applied Science*. – 2020. – Vol. 84, No. 4. – P. 670-673.

# ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

## IQTISODIYOT TARMOQLARIDA ENERGIYA MENEDJMENTI VA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI: ENERGIYA SAMARADORLIGI INDEKSINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

**RAIMOV AKBAR ALISHEROVICH**
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
magistratura tinglovchisi

**ANNOTATSIYA** Ushbu maqolada O‘zbekiston ishlab chiqarish korxonalarida energiya samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari, xususan, energosamaradorlik indeksini (A, B, C, D, E) joriy etishning metodologik va institutsional asoslari tahlil qilinadi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan besh darajali indeks tizimi Yevropa Ittifoqi (ODEX), Yaponiya (“Top Runner”), Germaniya (KfW kreditlash tizimi) va Buyuk Britaniya (MEES) tajribalariga asoslanadi. Maqolada 2024-yilda qabul qilingan “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qonun hamda Energiya samaradorligi milliy agentligi faoliyatining tashkiliy-huquqiy jihatlari yoritilgan. Indeksni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi va makroiqtisodiy ta’siri baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** *energiya samaradorligi, energiya indeksi, energiya menedjmenti, sanoat korxonalari, ISO 50001, energiya auditi, energiya tejash, “yashil” iqtisodiyot*

## УПРАВЛЕНИЕ ЭНЕРГОПОТРЕБЛЕНИЕМ И ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ В СЕКТОРАХ ЭКОНОМИКИ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ВНЕДРЕНИЯ ИНДЕКСА ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ

**РАИМОВ АКБАР АЛИШЕРОВИЧ**
Слушатель Академии государственной политики и управления при
Президенте Республики Узбекистан

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье анализируются актуальные вопросы повышения энергоэффективности производственных предприятий Узбекистана, в частности, методологические и институциональные основы внедрения индекса энергоэффективности (A, B, C, D, E). Разработанная автором пятиуровневая система индексов основана на опыте Европейского Союза (ODEX), Японии («Top Runner»), Германии (система кредитования KfW) и Великобритании (MEES). В статье освещены организационно-

правовые аспекты Закона «Об энергосбережении, рациональном использовании и повышении энергоэффективности», принятого в 2024 году, а также деятельности Национального агентства по энергоэффективности. Оцениваются экономическая эффективность и макроэкономическое влияние внедрения индекса.

**Ключевые слова:** *энергоэффективность, энергетический индекс, энергетический менеджмент, промышленные предприятия, ISO 50001, энергоаудит, энергосбережение, «зеленая» экономика*

# ENERGY CONSUMPTION MANAGEMENT AND WAYS TO IMPROVE ENERGY EFFICIENCY ACROSS ECONOMIC SECTORS: INSTITUTIONAL FOUNDATIONS FOR IMPLEMENTING AN ENERGY EFFICIENCY INDEX

**RAIMOV AKBAR ALISHEROVICH**
Student at the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan

**ANNOTATION:** This article analyzes the pressing issues of improving energy efficiency in manufacturing enterprises of Uzbekistan, particularly the methodological and institutional foundations for introducing an energy efficiency index (A, B, C, D, E). The five-tier index system developed by the author is based on the experiences of the European Union (ODEX), Japan ("Top Runner"), Germany (KfW lending system), and the United Kingdom (MEES). The article covers the organizational and legal aspects of the Law "On Energy Saving, Rational Use and Improvement of Energy Efficiency" adopted in 2024, as well as the activities of the National Agency for Energy Efficiency. The economic efficiency and macroeconomic impact of introducing the index are assessed.

**Keywords:** *energy efficiency, energy index, energy management, industrial enterprises, ISO 50001, energy audit, energy saving, green economy*

## 1. Kirish (Introduction)

***Tadqiqotning dolzarbligi.***

Oʻzbekiston iqtisodiyoti jadal oʻsish bosqichida boʻlib, 2030-yilga borib aholi sonining 41 millionga yetishi kutilmoqda. BMT Aholishunoslik jamgʻarmasi (UNFPA) maʼlumotlariga koʻra, Oʻzbekiston aholisi soni joriy kunda 37,8 million nafarga yetgan boʻlsa, 2030-yilga kelib 41 millionga, 2050-yilga borib esa 51 milliongacha ortishi prognoz qilinmoqda [5]. Bu energiya resurslariga boʻlgan talabni sezilarli darajada oshiradi. Boston Consulting Group (BCG) xalqaro konsalting kompaniyasi prognoziga koʻra, Oʻzbekistonda 2035-yilga borib elektr energiyasi isteʼmoli deyarli ikki baravarga — 2024-yildagi 68 mlrd kVt/soatdan 123 mlrd kVt/soatgacha oshishi kutilmoqda [6]. Sanoat sektori isteʼmoli 56 mlrd kVt/soatgacha, aholining uy-roʻzgʻor sarfi esa 28 mlrd kVt/soatgacha koʻtarilishi

prognoz qilinmoqda [6]. Ushbu holat energiya samaradorligini oshirish masalasini nafaqat iqtisodiy maqsadga muvofiqlik, balki milliy xavfsizlik va raqobatbardoshlikning strategik omiliga aylantiradi.

***Tadqiqot muammosi.***

Oʻzbekiston ishlab chiqarish korxonalarida energiya samaradorligini baholash, taqqoslash va ragʻbatlantirishning yagona tizimli mexanizmi mavjud emas. Xalqaro tajribada keng qoʻllanilayotgan energiya samaradorligi indekslari (Yevropa ODEX, Yaponiya “Top Runner”, Xitoy va Koreyaning darajali tizimlari) mamlakatimiz sharoitiga moslashtirilmagan [7, 8].

***Tadqiqotning maqsadi.***

Oʻzbekiston ishlab chiqarish korxonalari uchun energosamaradorlik indeksining (A, B, C, D, E) ilmiy asoslangan modelini ishlab chiqish, uni joriy etishning institutsional mexanizmlarini taklif etish hamda xorij tajribasini oʻrganish asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

***Tadqiqot farazlari:***

• Energosamaradorlik indeksini joriy etish korxonalarning energiya isteʼmolini kamaytirishga va ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishga xizmat qiladi;
• Besh darajali (A, B, C, D, E) indeks tizimi xalqaro standartlarga mos keladi va Oʻzbekiston sharoitida samarali qoʻllanilishi mumkin;
• Indeksni joriy etish uchun zarur normativ-huquqiy baza shakllantirilgan.

**Metodlar.** Tadqiqot 2025–2026-yillar davomida oʻtkazildi. Tadqiqotda quyidagi metodlar qoʻllanilgan:

***Tahlil usullari:*** Mavzu boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi OʻRQ-940-sonli “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish toʻgʻrisida”gi Qonuni [1], Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Energiya samaradorligi milliy agentligi toʻgʻrisidagi Nizom (02.05.2025 y. 292-son) [3] hamda VMning 19.10.2024 y. 690-son “Yoqilgʻi-energetika resurslari isteʼmolchilarini hamda bino va inshootlarni energiya isteʼmolini energiya auditidan oʻtkazish tartiblarini belgilash toʻgʻrisida”gi Qarori [4] atroflicha tahlil qilindi.

***Qiyosiy tahlil:***Yevropa Ittifoqi (ODEX indeksi) [7], Yaponiya (“Top Runner” dasturi) [8], Germaniya (KfW kreditlash tizimi), Buyuk Britaniya (MEES tizimi), Xitoy va Janubiy Koreya tajribalari qiyosiy oʻrganildi.

***Model loyihalash:***Energiya samaradorligi indeksini hisoblash formulasi ishlab chiqildi va besh darajali (A, B, C, D, E) klassifikatsiya taklif etildi. Har bir toifa uchun miqdoriy mezonlar ($EEI \leq 40\%$, $40\% < EEI \leq 60\%$, $60\% < EEI \leq 85\%$, $85\% < EEI \leq 100\%$, $EEI > 100\%$) belgilandi.

***Tadqiqot materiallari:***Oʻzbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari [1, 2], Energiya samaradorligi milliy agentligi maʼlumotlari [3], Xalqaro energetika

agentligi (IEA) [8] va Jahon banki hisobotlari [9], shuningdek, ilg‘or xorij tajribasiga oid ilmiy nashrlar tahlil qilindi.

**Natija.** Tadqiqot natijasida O‘zbekistonda energiya samaradorligi sohasida quyidagi normativ-huquqiy baza shakllantirilganligi aniqlandi:

Birinchidan, 2024-yil 7-avgustda “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-940-son) qabul qilindi [1]. Ushbu Qonunning maqsadi energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonun 11 ta bob va 55 ta moddadan iborat bo‘lib, asosiy prinsiplari qonuniylik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik ekanligi belgilangan [1].

Ikkinchidan, 2025-yil 27-martda Prezidentning PF-63-son Farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida Energiya samaradorligi milliy agentligi tashkil etildi [2]. Agentlikning asosiy vazifalari qatoriga energiya samaradorligini oshirish sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, energiya servis kompaniyalari (ESKO) xizmatlari bozorini rivojlantirish va “yashil” moliyaviy dastaklarni kengaytirish kiradi [2]. Agentlik huzurida byudjetdan tashqari Energiya samaradorligini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etilgan [2].

Uchinchidan, 2024-yil 19-oktyabrdagi 690-son Qaror bilan yoqilg‘i-energetika resurslari iste’molchilarining energiya auditini o‘tkazish tartibi tasdiqlandi [4]. 2024-yil 1-noyabrdan boshlab foydalanish maydoni 200 $m^2$ dan ortiq bo‘lgan bino va inshootlarning energiya samaradorligi toifasini aniqlash uchun “A”, “B”, “C”, “D”, “E”, “F” va “G” belgilari joriy etildi [4].

**Energosamaradorlik indeksi modeli.** Tadqiqot natijasida ishlab chiqarish korxonalari uchun quyidagi besh darajali energosamaradorlik indeksi (EEI) modeli taklif etiladi:

**EEI = (E_haqiqiy / E_etalon) × 100%**

bu yerda:

E_haqiqiy — korxonaning ma’lum davrdagi barcha energiya resurslari yig‘ma iste’moli;

E_etalon — soha bo‘yicha eng yaxshi texnologiyalar (BAT) asosida aniqlangan minimal mumkin bo‘lgan energiya iste’moli darajasi.

| Toifa | EEI qiymati | Tavsifi |
|---|---|---|
| A | EEI ≤ 40% | Eng yuqori energiya samaradorligi — jahon standartlari darajasi (ISO 50001) [10] |
| B | 40% < EEI ≤ 60% | Yuqori energiya samaradorligi |
| C | 60% < EEI ≤ 85% | O‘rtacha energiya samaradorligi — minimal majburiy talab |

| | | |
|---|---|---|
| D | 85% < EEI ≤ 100% | Qoniqarli daraja |
| E | EEI > 100% | Past samaradorlik — xavf zonasi |

**Tadqiqot jarayonida xorijiy tajriba oʻrganib chiqildi.** Yevropa Ittifoqi — ODEX indeksi. Yevropa Ittifoqida sanoat korxonalarining energiya samaradorligini baholash uchun ODEX indeksidan foydalaniladi [7]. ODEX 10 ta ishlab chiqarish tarmogʻi boʻyicha solishtirma isteʼmol indeksining oʻrtacha ogʻirlikdagi qiymati sifatida hisoblanadi. 2023/1791-sonli Yangilangan Energiya Samaradorligi Direktivasi boʻyicha oʻrtacha yillik energiya isteʼmoli 85 TJ dan ortiq boʻlgan korxonalar ISO 50001 sertifikatiga ega boʻlishlari shart [7, 10].

Yaponiya — "Top Runner" dasturi. Yaponiyada "Top Runner" dasturi doirasida har bir mahsulot turi boʻyicha eng energiya samarador model etalon sifatida belgilanadi [8]. Boshqa ishlab chiqaruvchilar maʼlum muddat ichida shu etalon darajaga yetishlari shart. Dastur 20 dan ortiq mahsulot guruhini qamrab oladi [8].

Germaniya — KfW imtiyozli kreditlash tizimi. Germaniyaning KfW banki orqali korxonalar energiya samaradorligini oshirish loyihalari uchun 25 million yevrogacha imtiyozli kreditlar oladilar. Kredit boʻyicha foiz stavkasi korxonaning energiya tejash hajmiga bogʻliq.

Buyuk Britaniya — MEES tizimi. Buyuk Britaniyada 2023-yil 1-apreldan boshlab barcha tijorat binolari kamida "E" sinfi energiya samaradorligi sertifikatiga ega boʻlishi talab qilinadi. 2030-yil 1-aprelgacha esa "B" sinfiga chiqish majburiy qilib belgilangan.

**3.4. Iqtisodiy samaradorlik bahosi**

Tadqiqot natijalariga koʻra, agar Oʻzbekistonda barcha ishlab chiqarish korxonalari "C" toifasiga (EEI ≤ 85%) chiqsa, mamlakat miqyosida quyidagi makroiqtisodiy samaradorlikka erishiladi [9]:

- Yillik energiya tejash — 3–4 mlrd kVt/soat elektr energiyasi [9];
- Tabiiy gaz tejash — 1,5–2 mlrd $m^3$ [9];
- Korxonalarning operatsion xarajatlari 15–20% ga kamayadi;
- $CO_2$ chiqindilari 2–3 million tonnaga qisqaradi [9].

**Taklif etilayotgan indeks tizimining xalqaro tajribaga muvofiqligi.** Taklif etilayotgan besh darajali (A, B, C, D, E) indeks tizimi quyidagi jihatlarda xalqaro tajribaga mos keladi:

Birinchidan, Yevropa Ittifoqining ODEX indeksiga oʻxshab, tarmoq va mahsulot turlari boʻyicha differensiatsiyani nazarda tutadi [7]. Etalon koʻrsatkichlar har bir ishlab chiqarish tarmogʻi boʻyicha alohida belgilanadi va har 3–5 yilda qayta koʻrib chiqiladi.

Ikkinchidan, Yaponiyaning "Top Runner" dasturiga oʻxshab, soha boʻyicha eng yaxshi korxona koʻrsatkichlarini etalon sifatida belgilash mexanizmini oʻz ichiga oladi [8].

Uchinchidan, Germaniyaning KfW tizimiga o‘xshab, indeks toifasiga qarab moliyaviy rag‘batlantirish (tarif imtiyozlari, imtiyozli kreditlar) mexanizmlarini taklif etadi.

To‘rtinchidan, Buyuk Britaniyaning MEES tizimiga o‘xshab, bosqichma-bosqich majburiylashtirish mexanizmini (2026-yil — davlat korxonalari uchun “C” sinfi, 2030-yil — barcha korxonalar uchun “C” sinfi) nazarda tutadi.

**4.2. Indeksni joriy etishning institutsional imkoniyatlari**

O‘zbekistonda energiya samaradorligi indeksini joriy etish uchun zarur institutsional shart-sharoitlar mavjud:

• Energiya samaradorligi milliy agentligi — indeksni joriy etish, monitoring qilish va reyestr yuritish uchun mas’ul organ sifatida faoliyat yuritadi [2, 3];
• Energiya samaradorligini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi — moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini amalga oshiradi [2];
• Energiya auditi tizimi — korxonalarning EEI ni hisoblash uchun zarur bazaviy ma’lumotlarni taqdim etadi [4];
• Davlat energetika reyestri — energiya sub’yektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasi [1].

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Ushbu tadqiqot quyidagi jihatlarda ilmiy yangilikka ega:
• O‘zbekiston ishlab chiqarish korxonalari uchun birinchi marta energosamaradorlik indeksining (A, B, C, D, E) ilmiy asoslangan modeli ishlab chiqildi;
• Indeksni joriy etishning bosqichma-bosqich mexanizmi (tayyorgarlik, audit va baholash, tasniflash va reyestrga kiritish, monitoring) taklif etildi;
• Har bir toifa uchun aniq miqdoriy mezonlar, texnologik talablar va moliyaviy rag‘batlantirish choralari ishlab chiqildi;
• Xalqaro tajriba (Yevropa ODEX, Yaponiya “Top Runner”, Germaniya KfW, Buyuk Britaniya MEES) tizimli qiyosiy tahlil qilindi va O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar berildi [7, 8].

Ushbu tadqiqot quyidagi cheklovlarga ega: taklif etilayotgan indeks modeli pilot korxonalarda amaliy sinovdan o‘tkazilmagan; soha va mahsulot turlari bo‘yicha etalon ko‘rsatkichlar hali ishlab chiqilmagan; indeksni hisoblash uchun zarur ma’lumotlar bazasi to‘liq shakllantirilmagan.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O‘zbekistonda energiya samaradorligini oshirish sohasida zarur normativ-huquqiy baza shakllantirilgan: 2024-yilda O‘RQ-940-sonli maxsus Qonun qabul qilingan [1], Energiya samaradorligi milliy agentligi tashkil etilgan [2], energiya auditini o‘tkazish tartibi tasdiqlangan [4].

2. Taklif etilayotgan besh darajali (A, B, C, D, E) energosamaradorlik indeksi Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Germaniya va Buyuk Britaniya tajribasiga mos keladi va O‘zbekiston sharoitida samarali qo‘llanilishi mumkin [7, 8].

3. Indeksni joriy etish quyidagi bosqichma-bosqich reja asosida amalga oshirilishi tavsiya etiladi: 2026-yil — davlat ulushi 50% dan ortiq korxonalar uchun “C” sinfi majburiy; 2028-yil — barcha yirik korxonalar uchun “C” sinfi majburiy; 2030-yil — barcha korxonalar uchun “C” sinfi majburiy.

4. Indeksni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi yuqori — yillik energiya tejash 3–4 mlrd kVt/soat elektr energiyasi va 1,5–2 mlrd m³ tabiiy gazni tashkil etishi mumkin [9].

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining 07.08.2024 y. O‘RQ-940-son “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qonuni. — LexUZ.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.03.2025 y. PF-63-son “Energiya samaradorligi sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish va energiya servis kompaniyalari xizmatlari bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. — LexUZ.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.05.2025 y. 292-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Energiya samaradorligi milliy agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. — LexUZ.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.10.2024 y. 690-son “Yoqilg‘i-energetika resurslari iste’molchilarini hamda bino va inshootlarni energiya iste’molini energiya auditidan o‘tkazish tartiblarini belgilash to‘g‘risida”gi Qarori. — LexUZ.
5. BMT Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA) ma’lumotlari. O‘zbekiston aholisi 2030 yilda 41 millionga yetishi prognozi. — UzA, 2025.
6. Boston Consulting Group (BCG) prognozi. O‘zbekiston energetika tizimida 2035-yilgacha elektr energiyasi iste’moli 123 mlrd kVt/soatgacha oshishi. — Kursiv Media Uzbekistan, 2025.


ENERGOSAMARADORLIK INDEKSI (A,  B, C, D, E)
ENERGOSAMARADORLIK
(A - Eng Yugori Energiya Samaradorligi).
EEI qiymati: EEI ≤ 40%
Jahon standartiari darajasi (ISO 50001) [10]
TEJAMKORLIK
>90%
A
EEI ≤ 40%
YUQORI ENERGIYA SAMARADORLIGI
EEI qiymati: 40% < EEI ≤ 80%
TEJAMKORLIK
75-89%
B
4EI < 60%
O'RTACHA ENERGIYA SAMARADORLIGI
EEI qiymati: 60% < EEI ≤ 85%
— minimal majburiy talab
TEJAMKORLIK
60-74%
C
EEI ≤ 85%
QONIQARLI DARAJA
EEI qiymati: 85% < EEI ≤ 100%
TEJAMKORLIK
40-59%
D
EEI ≤ 100%
PAST SAMARADORLIK
EEI qiymati: EEI > 100%
— xavf zonasi
TEJAMKORLIK
<40%
E
EEI > 100%
ENERGOMARADJLIK
INDEKSI
(A, B, C, D, E)

# TURIZM SOHASIDA INSON KAPITALINING TUTGAN O‘RNI

**Xakimova Zavqiya Umarbek qizi,**
Yangiariq tumanidagi 24-son
umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi.
e-mail: zavkiya11@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada turizm sohasida inson kapitalining tutgan o‘rni, foydalanish zaruriyati, o‘ziga xos xususiyatlari va mavjud imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, turizm sohasida inson kapitalining tutgan o‘rnini tadqiq qilish yuzasidan xulosa bayon etilgan.

**Аннотация**. В данной статье рассматривается роль человеческого капитала в туристическом секторе, необходимость его использования, его специфические характеристики и существующие возможности. Также представлены выводы по исследованию роли человеческого капитала в туристическом секторе.

**Abstract**. This article discusses the role of human capital in the tourism sector, the need for its use, its specific characteristics and existing opportunities. It also presents a conclusion on the study of the role of human capital in the tourism sector.

**Kalit so‘zlar.** Turizm, soha, inson, inson kapitali, sifat, xodim.

**Ключевые слова**. Туризм, сектор, человек, человеческий капитал, качество, работник.

**Key words**. Tourism, sector, human, human capital, quality, employee.

Zamonaviy iqtisodiyotda inson kapitali milliy iqtisodiyot va alohida tarmoqlar raqobatbardoshligini ta’minlovchi omil bo‘lib hisoblanadi. Bu holatda xizmat ko‘rsatish sohalari, jumladan, turizmda inson kapitalining ahamiyati yuqori bo‘lib, turistlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifati, turistlarning qoniqish darajasi, korxonalar samaradorligi va hududning turistik jozibadorligi ko‘p jihatdan mehnat resurslarining bilim, malaka, tajriba va kasbiy kompetensiyalariga bog‘liq bo‘ladi. Turizm sohasida inson kapitali xizmatlar sifati va turistlar qoniqish darajasini oshirishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi [1].

Inson kapitali tushunchasi aslida insonning iqtisodiy faoliyat jarayonida foydalaniladigan bilimlari, kasbiy ko‘nikmalari, malakasi, tajribasi, ijodiy qobiliyati, sog‘lom mehnat salohiyati va shaxsiy kompetensiyalarining majmuasini ifodalaydi. Turizm sohasida esa inson kapitali ushbu umumiy xususiyatlar bilan birga muloqot madaniyati, xorijiy tillarni bilish, turli madaniyat vakillari bilan ishlay olish, mehmondo‘stlik, servis ko‘nikmalari, raqamli texnologiyalardan foydalanish qobiliyati va turistlarning individual ehtiyojlarini tushunish kabi maxsus kompetensiyalarni ham qamrab oladi. Shu sababli, turizmda inson kapitali moddiy resurslardan farqli ravishda xizmat ko‘rsatish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy mehmonxona yoki turistik korxona eng zamonaviy texnologiya va infratuzilmaga ega bo‘lishi mumkin. Ammo, xodimlar kasbiy

tayyorgarligi va xizmat ko‘rsatish madaniyati yetarli darajada bo‘lmasa-da, turistlarning qoniqish darajasi pasayishi mumkin. Malakali va tajribali xodimlar turizm korxonalarining raqobatbardoshligi hamda barqaror rivojlanishini ta’minlaydi [2].

Shuningdek, turizm sohasida inson kapitalining iqtisodiy ahamiyati mehnat unumdorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, turistlar qoniqishini oshirish, mehmonlarni qayta jalb qilish imkoniyatini kuchaytirish. korxona daromadlarini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni ta’minlash, yangi turistik mahsulotlarni yaratish va mehnat bozorida moslashuvchanlikni kuchaytirish kabi asosiy yo‘nalishlarda kuzatish mumkin. Shu nuqtai nazardan olganda, inson kapitaliga investitsiya kiritish turizm korxonalari uchun oddiy kadrlar xarajati emas, ya’ni uzoq muddatli iqtisodiy investitsiya sifatida qaralishi lozim. Unga ko‘ra, xodimlar ta’limi, kasbiy ko‘nikmalari va doimiy malaka oshirishi turizmning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi [3]. Shunga asosan, turizm sohasida inson kapitalini quyidagi o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

- ta’lim va kasbiy bilimlar. Turizm xodimi turizm iqtisodiyoti, mehmonxona xo‘jaligi, restoran biznesi, marketing, turoperatorlik, turistik mahsulot yaratish va boshqa sohalar bo‘yicha zarur bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

- amaliy kasbiy ko‘nikmalar. Nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish turizmda alohida ahamiyatga ega. Xodim turist bilan muloqot qilish, xizmatni taqdim etish, shikoyat va e’tirozlarni qabul qilish, muammoli vaziyatni hal etish va xizmat jarayonini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

- kommunikativ kompetensiyalar. Turizm xalqaro xususiyatga ega bo‘lgani uchun turli mamlakat va madaniyat vakillari bilan muloqot qilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Xodimning xushmuomalaligi, tinglash qobiliyati, muloqot madaniyati va emotsional intellekt darajasi turistning xizmat haqidagi umumiy tasavvuriga ta’sir qiladi.

- xorijiy tillarni bilish. Xorijiy turistlarga xizmat ko‘rsatishda ingliz tili va boshqa xorijiy tillarni bilish muhim raqobat ustunligi hisoblanadi. Til bilimi axborot almashish va turistning madaniy ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

- raqamli kompetensiyalar. Onlayn bronlash, elektron to‘lovlar, CRM tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar, turistik platformalar, sun’iy intellekt va ma’lumotlarni tahlil qilish vositalarining kengayishi turizm xodimlaridan yangi raqamli ko‘nikmalarni talab qilmoqda. OECD turizmda raqamlashtirish inson kapitali va ko‘nikmalarga investitsiya kiritishni, xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni muhim yo‘nalish sifatida ko‘rsatadi.

Turizm xizmatlarining inson ishtiroki asosida yaratilishi bilan namoyon bo‘ladi. Shu sababli xodimlarning kasbiy va shaxsiy xususiyatlari xizmat sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, mehmonxona retsepsiyasi xodimining turistni kutib olish madaniyati, axborotni tez va aniq taqdim etishi, muammoli vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilishi turistning mehmonxona haqidagi birinchi taassurotini

shakllantiradi. Shunga ko'ra ekskursovodning bilim darajasi, nutq madaniyati va tarixiy-madaniy ob'ekt haqida qiziqarli ma'lumot berish qobiliyati ekskursiya xizmatining qiymatini oshiradi. Biroq, inson kapitali yuqori bo'lgan korxonalarda turistlar bilan munosabatlarni individuallashtirish imkoniyati yuqori bo'ladi. Bu esa turistlarning qoniqishi, ijobiy fikr-mulohazalari va qayta tashrif buyurish ehtimolini oshiradi. Shu sababli inson kapitalining rivojlanganlik darajasi turistik korxonaning raqobatbardoshligini belgilaydi.

Turizm sohasida mehnat bozori tez o'zgarib bormoqda. Raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyotga o'tish, turistlar talabining o'zgarishi va yangi turistik mahsulotlarning paydo bo'lishi xodimlardan yangi bilim va ko'nikmalarni talab qilmoqda. Turizmda texnologiya va iste'molchilar ehtiyojlari tez o'zgarayotgani uchun bir marta olingan kasbiy bilim butun mehnat faoliyati davomida yetarli bo'lmasligi mumkin. Oliy ta'lim muassasalarida berilayotgan nazariy bilimlar mehmonxona, turoperator, turagentlik, restoran va turistik ob'ektlardagi amaliy talablar bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Turizm xodimlari onlayn bronlash tizimlari, raqamli marketing, ma'lumotlarni tahlil qilish, elektron to'lov tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi vositalardan foydalana olishi kerak. Uning tarkibiga kommunikatsiya, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, emotsional intellekt, moslashuvchanlik va liderlik ko'nikmalari kiradi. Turizm bozorida korxonalar o'rtasidagi raqobat nafaqat narx, joylashuv yoki moddiy infratuzilma orqali, balki xizmat ko'rsatish sifati orqali ham shakllanadi. Xizmat sifati esa ko'p jihatdan xodimlarning kasbiy mahorati va motivatsiyasiga bog'liq bo'ladi. Shularga asosan, inson kapitali korxonaga bir nechta raqobat ustunliklarini beradi. Jumladan, yuqori malakali xodimlar yangi turistik mahsulotlarni tezroq ishlab chiqishi, mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirishi va xizmat ko'rsatish jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llashi mumkin. Bundan tashqari, malakali xodimlar mehmonlar shikoyatlarini samarali hal qilish, turistlar ehtiyojini oldindan anglash va xizmatni individuallashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa korxonaning bozordagi mavqeini mustahkamlaydi.

Shu bilan birgalikda, inson kapitalini samarali boshqarishda xodimlarning mehnat sharoitlari, ish haqi, kasbiy o'sish imkoniyatlari, motivatsiya va ijtimoiy himoyasi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekistonda turizmni iqtisodiyot tarmog'i sifatida rivojlantirish jarayonida inson kapitalini shakllantirish va undan samarali foydalanish asosiy yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Mamlakatning tarixiy-madaniy merosi, ziyorat turizmi, ekologik turizm, gastronomik turizm va boshqa turizm yo'nalishlarini rivojlantirish uchun malakali kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ushbu yo'nalishda turistlar oqimi ko'payishi bilan mehmonxonalar, turoperatorlar, turistik agentliklar, gid-ekskursovodlar, transport xizmatlari va umumiy ovqatlanish korxonalarida malakali kadrlarga bo'lgan talab ham ortadi.

Xulosa shuki, turizm sohasida inson kapitali turistik xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayonining bevosita ishtirokchisi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada xodimlarning bilim va malakasi, amaliy tajribasi, kommunikativ qobiliyati, xorijiy tillarni bilishi, raqamli kompetensiyalari va xizmat

ko‘rsatish madaniyati turizm korxonalarining iqtisodiy natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, inson kapitalini rivojlantirish orqali mehnat unumdorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, turistlar qoniqishini kuchaytirish va korxonaning raqobatbardoshligini ta’minlash mumkin. Shu bois, turizm korxonalarida inson kapitalini boshqarish xodimlarni ishga qabul qilish bilan cheklanmasdan, ularni o‘qitish, qayta tayyorlash, motivatsiyalash, kasbiy o‘sishini ta’minlash va korxonada uzoq muddat saqlab qolishga qaratilgan kompleks tizim sifatida tashkil etilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Durão, M., Veríssimo, M., Quintela, J. A., & Marques, J. (2025). Human Capital in the Tourism and Hospitality Industry: A Bibliometric Approach. In: J. Marques et al. (Eds.), Building Human Capital in Tourism and Hospitality: Perspectives from Theory and Practice. CABI. - p. 3-21.

2. Page, S. J., & Connell, J. (2020). “Human Resource Management in Tourism.” In Tourism. Routledge, Chapter 11.

3. Burke, R. J., & Hughes, J. C. (Eds.). (2018). Handbook of Human Resource Management in the Tourism and Hospitality Industries. Edward Elgar Publishing. Chapter III.

# TURIZM SOHASIDA INSON KAPITALI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Xakimova Zavqiya Umarbek qizi,**
Yangiariq tumanidagi 24-son
umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻqituvchisi.
e-mail: zavkiya11@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada turizm sohasida inson kapitali samaradorligini oshirish zaruriyati, oʻziga xos xususiyatlari va mavjud imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, turizm sohasida inson kapitali samaradorligini oshirish yuzasidan xulosa bayon etilgan.

**Аннотация**. В данной статье рассматриваются необходимость, особенности и существующие возможности повышения эффективности человеческого капитала в туристическом секторе. Также представлены выводы по вопросу повышения эффективности человеческого капитала в туристическом секторе.

**Abstract**. This article discusses the need, specific features and existing opportunities for improving the efficiency of human capital in the tourism sector. It also presents a conclusion on improving the efficiency of human capital in the tourism sector.

**Kalit soʻzlar.** Turizm, soha, inson, inson kapitali, kapital, samaradorlik.

**Ключевые слова.** Туризм, сектор, человек, человеческий капитал, капитал, эффективность.

**Key words**. Tourism, sector, human, human capital, capital, efficiency.

Maʼlumki, turizm mahsuloti va xizmatlarining asosiy qismi bevosita inson mehnati, bilim va koʻnikmalari orqali yaratiladi. Bu borada mehmonxonada turistni kutib olish, joylashtirish, ovqatlantirish, ekskursiya tashkil etish, transport xizmatlarini koʻrsatish, turistik mahsulotni sotish va mijozlar bilan aloqa qilish jarayonlarining barchasida xodimlarning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonlar bevosita inson kapitaliga bogʻliq boʻladi. Turizm sohasida inson kapitali tushunchasi yanada kengroq mazmunga ega boʻlib, unga mehmondoʻstlik madaniyati, xorijiy tillarni bilish, turistlar bilan samarali muloqot qilish, turli madaniyatlar vakillari bilan ishlash, raqamli texnologiyalardan foydalanish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va xizmatlarni individual tarzda tashkil etish koʻnikmalari ham kiradi. Shu sababli turizm sohasida inson kapitali samaradorligini oshirish xodimlarning kasbiy malakasini rivojlantirish, turistik korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligi, xizmatlar sifati, turistlar qoniqishi va sohaning umumiy raqobatbardoshligini oshirish sharti boʻlib hisoblanadi.

Inson kapitali samaradorligi insonning mavjud bilim, koʻnikma, tajriba va qobiliyatlaridan iqtisodiy hamda ijtimoiy natijalarni yaratishda qay darajada samarali foydalanilayotganligini ifodalaydi. Turizm sohasida ushbu samaradorlik

xodimning ma’lum vaqt ichida qancha va qanday sifatdagi xizmat yaratishi, mijozlarga xizmat ko‘rsatish darajasi, turistlarning qoniqishi hamda korxonaning moliyaviy natijalariga qo‘shgan hissasi orqali namoyon bo‘ladi. Turizm sohasida inson kapitali samaradorligini oshirish xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, turizm korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirish va innovatsion rivojlanishni ta’minlash omili bo‘lib hisoblanadi [1].

Turizm korxonalarida inson kapitali samaradorligi bir xodimga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi, mehnat unumdorligi, bir xodimga to‘g‘ri keladigan tushum, xizmat ko‘rsatish sifati, turistlar qoniqish darajasi, takroriy mijozlar ulushi, xodimlar malakasi, xodimlarni o‘qitish xarajatlari, xodimlar almashinuvi darajasi va mehnatga sarflangan vaqt va yaratilgan qiymat nisbati kabi ko‘rsatkichlar orqali baholanadi. Masalan, mehmonxonada xodimlar soni o‘zgarmagan holda turistlarga xizmat ko‘rsatish hajmi va tushum oshsa, bu mehnat unumdorligi va inson kapitalidan foydalanish samaradorligi ortganligini ko‘rsatadi. Turizm sohasida inson kapitalidan samarali foydalanish uchun malakali kadrlar tayyorlash, xodimlarni qayta tayyorlash va ularning kasbiy malakasini muntazam oshirish muhim ahamiyatga ega [2].

Turizm xodimining samaradorligi, avvalo, uning kasbiy kompetensiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Zamonaviy turist oddiy xizmat emas, ya’ni qulay, tezkor, xavfsiz va individuallashtirilgan xizmatni kutadi. Shu sababli turizm xodimi o‘z kasbiy vazifalarini bajarish bilan birga, mijozning ehtiyojini oldindan anglay olishi va unga mos xizmatni taklif qila olishi kerak. Bundan tashqari, turizmda yumshoq ko‘nikmalar muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqot qilish, jamoada ishlash, muammoni hal qilish, stressga chidamlilik, vaqtni boshqarish, empatiya va moslashuvchanlik kabi ko‘nikmalar xizmat sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida inson kapitaliga investitsiya kiritish xodimlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish va turistik xizmatlar samaradorligini ta’minlash imkonini beradi [3]. Bu borada turizmda inson kapitali samaradorligini oshirish yo‘nalishi bo‘lib xodimlarning bilim va malakasini muntazam rivojlantirish hisoblanadi. Turizm bozori doimiy ravishda o‘zgarib borayotganligi sababli xodimlarning bir marta olgan bilimlari uzoq muddat davomida yetarli bo‘lmasligi mumkin. Shu bois, turizm korxonalarida malaka oshirish kurslari, qisqa muddatli treninglar, amaliy seminarlar, xorijiy tillar kurslari, raqamli texnologiyalar bo‘yicha mashg‘ulotlar, xizmat ko‘rsatish standartlari bo‘yicha treninglar, menejment va marketing bo‘yicha treninglar va tajriba almashish dasturlari tizimli ravishda tashkil etilishi lozim. Bu holatda ta’lim muassasalari va turizm korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish lozim. Talabalar nazariy bilimlar bilan birga mehmonxona, restoran, turistik firma va destinatsiyalarda amaliy tajriba orttirishi zarur. Bu esa kelajakdagi mutaxassislarning mehnat bozoriga moslashuvini tezlashtiradi.

Turizm sohasining raqamli transformatsiyasi inson kapitaliga qo‘yiladigan talablarni o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda turistlar turistik mahsulotlarni internet

orqali izlaydi, taqqoslaydi, bron qiladi va elektron toʻlovlardan foydalanadi. Mehmonxonalar va turistik kompaniyalar esa mijozlar bilan CRM tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va boshqa raqamli vositalar orqali ishlamoqda. Chunki, raqamli kompetensiyalarning rivojlanishi xodimlarning ish vaqtini tejash, xizmat koʻrsatish tezligini oshirish va inson omili bilan bogʻliq ayrim xatolarni kamaytirish imkonini beradi.

Inson kapitali samaradorligini oshirishda xodimlarning motivatsiyasi alohida ahamiyatga ega. Yetarli darajada bilim va koʻnikmaga ega boʻlgan xodim ham agar uning mehnati munosib baholanmasa yoki kasbiy rivojlanish imkoniyatiga ega boʻlmasa, oʻz salohiyatidan toʻliq foydalana olmaydi. Bu holatda turizm korxonalarida motivatsiyaning moddiy va nomoddiy shakllaridan foydalanish mumkin. Moddiy ragʻbatlantirish oʻz ichiga ish haqini oshirish, xizmat natijalariga bogʻliq bonuslar, yuqori koʻrsatkichlar uchun mukofotlar va qoʻshimcha imtiyozlarni olsa-da, nomoddiy ragʻbatlantirish esa xodimni e'tirof etish, lavozim boʻyicha oʻsish, malaka oshirishga yuborish, moslashuvchan ish sharoitlari va jamoada ijobiy psixologik muhit yaratish kabilarga asoslanadi. Ushbu motivatsiya tizimi xodimning individual natijalarini korxonaning umumiy maqsadlari bilan bogʻlashi lozim. Masalan, turistlarning qoniqish darajasini oshirishga hissa qoʻshgan xodimni ragʻbatlantirish xizmat sifatini oshirishga qoʻshimcha turtki beradi.

Turizmda inson kapitali samaradorligining eng muhim natijalaridan biri xizmatlar sifatining oshishidir. Xizmat koʻrsatish jarayonida turist xodim bilan bevosita aloqaga kirishadi. Shu sababli xodimning tashqi koʻrinishi, muomala madaniyati, nutqi, kasbiy bilimi va muammoli vaziyatlarda oʻzini tutishi turistning umumiy taassurotiga ta'sir qiladi. Shu bois, turizm korxonalari xodimlarning faoliyatini faqat bajarilgan ish hajmi orqali emas, ya'ni mijozlar qoniqishi va xizmat sifati koʻrsatkichlari orqali baholashi kerak. Shularga asosan, turizm korxonalarida inson kapitalidan foydalanish samaradorligini kompleks baholash uchun bir nechta koʻrsatkichlardan foydalanish mumkin.

Shuningdek, inson kapitaliga investitsiyalar samaradorligini ham baholash mumkin. Bunda xodimlarni oʻqitishga sarflangan mablagʻ natijasida mehnat unumdorligi, tushum yoki xizmat sifati qanchalik oshgani tahlil qilinadi. Masalan, korxona xodimlarni malaka oshirishga yuborib, natijada xizmat koʻrsatish tezligi, turistlarning qoniqishi va korxona tushumi oshgan boʻlsa, ta'limga kiritilgan investitsiyaning ijobiy iqtisodiy natijasi haqida xulosa qilish mumkin.

Xulosa shuki, turizm sohasida inson kapitali samaradorligini oshirish turistik korxonalar va butun turizm tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Chunki, turizm xizmatlarining sifati, turistlarning qoniqishi, korxona daromadi va raqobatbardoshligi koʻp jihatdan xodimlarning bilim, malaka, tajriba va kasbiy kompetensiyalaridan samarali foydalanishga bogʻliq boʻladi. Inson kapitali samaradorligini oshirish faqat xodimlarni oʻqitish bilan cheklanmasligi kerak. Ushbu jarayon kasbiy ta'lim, amaliy tayyorgarlik, raqamli kompetensiya,

motivatsiya, mehnat sharoitlari, xizmat sifati va xodimlarning kasbiy rivojlanishini yagona tizim sifatida boshqarishni talab etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xo'jaqulov B. Turizm sohasida kadrlar salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2025, 3-jild, 10-son.

2. Ro'zibayeva Z.B. Turizm sanoatini rivojlantirishda inson resurslarining roli: nazariya va amaliyot uyg'unligi. // Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali ilmiy elektron jurnali, 2025, 4-jild, 2-son. - 122-128 b.

3. Abduraximova A.G. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi sharoitida turizm sohasida inson kapitaliga investitsiya kiritishning ahamiyati va yangi imkoniyatlari. // Innovatsion iqtisodiyot, 2026, 4-jild, 4-son. - 22-24 b.

# AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li**
Namangan davlat universiteti
tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyati iqtisodiy kategoriya sifatida nazariy jihatdan yoritilgan. Eksport salohiyatining mazmuni, tarkibiy qismlari hamda uni shakllantiruvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilingan. Ishlab chiqarish quvvati, mahsulot sifati, moliyaviy imkoniyatlar, logistika infratuzilmasi, marketing faoliyati va tashqi bozorlarga oid axborotlarning eksport salohiyatiga ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, agrotadbirkorlik subyektlarining xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan nazariy yondashuvlar umumlashtirilgan.

**Kalit so'zlar:** agrotadbirkorlik, eksport salohiyati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, raqobatbardoshlik, eksport bozori.

Agrotadbirkorlik subyektlari deganda, qishloq xo'jaligi sohasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi barcha xo'jalik yurituvchi tuzilmalar tushuniladi. Qurbonov A.B. va Maxmutullayeva S.X. larning ta'kidlashicha, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik ma'lum bir sub'ektlar va tadbirkorlik faoliyatining ob'ektlari ishtirokini o'z ichiga oladi. Ushbu subyektlarga fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi korxonalari, agroklasterlar, kooperativlar va boshqa tashkiliy tuzilmalar kiradi[1].

"Eksport salohiyati" tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turli xil talqin qilinadi. Zamonaviy iqtisodiyotda eksport salohiyati deganda, mavjud tabiiy, mehnat, moliyaviy va ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalangan holda tashqi bozor uchun raqobatbardosh mahsulot yaratish va uni realizatsiya qilish imkoniyatlari majmui tushuniladi[2].

Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyati o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi bir qator tarkibiy unsurlar asosida vujudga keladi. Ushbu unsurlarning rivojlanish darajasi qishloq xo'jaligi korxonasining xorijiy bozorga kirishi, chet ellik xaridorlar bilan uzoq muddatli aloqalarni yo'lga qo'yishi hamda raqobat sharoitida faoliyat yurita olishini belgilab beradi. Shu bois eksport salohiyatini faqat yetishtirilgan mahsulot hajmi asosida aniqlash yetarli emas. Uni baholashda korxonaning ishlab chiqarish quvvati, moliyaviy imkoniyatlari, xodimlarining kasbiy tayyorgarligi, infratuzilma bilan ta'minlanganligi va tashqi bozorlar bilan ishlash tajribasi ham e'tiborga olinishi lozim.

Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyati turli tarkibiy yo'nalishlarning uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi. Ularning har biri qishloq xo'jaligi korxonasining tashqi bozorga kirib borishi, xorijiy iste'molchilar talablariga javob beradigan mahsulotlarni yetkazib berishi va bozordagi mavqeyini mustahkamlashida alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun eksport salohiyatini

faqat ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori orqali baholash mumkin emas. Bunda ishlab chiqarish quvvati, moliyaviy barqarorlik, kadrlarning malakasi, infratuzilma holati va korxonaning bozor bilan ishlash qobiliyati ham hisobga olinishi kerak.

Eksport salohiyatining muhim tarkibiy yo‘nalishlaridan biri korxonaning ishlab chiqarish salohiyatidir. U korxona tasarrufidagi yer maydonlari, mavjud suv manbalari va sug‘orish tizimlari, qishloq xo‘jaligi texnikalari hamda ilg‘or texnologiyalardan foydalanish darajasini qamrab oladi. Mazkur imkoniyatlarning yetarli bo‘lishi agrotadbirkorga tashqi bozor ehtiyojlariga mos mahsulotlarni talab qilinadigan hajm va sifatda uzluksiz yetkazib berish imkonini yaratadi. M.Y. Toshpo‘latova va T.A. Mamadjanova eksport salohiyatini mamlakat iqtisodiyotidagi mavjud resurslardan oqilona foydalanish asosida tashqi bozorga raqobatbardosh mahsulot chiqarish imkoniyati sifatida talqin qiladilar[3].

Korxonaning moliyaviy imkoniyatlari ham eksport faoliyatini yo‘lga qo‘yishda muhim o‘rin egallaydi. Yetarli mablag‘ga ega korxona zamonaviy texnologiyalarni joriy etishi, xalqaro sertifikatlarga ega bo‘lishi, mahsulotni qayta ishlash va qadoqlash jarayonlarini tashkil qilishi, shuningdek, eksport operatsiyalari bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining yetishtirilishi mavsumiy xususiyatga ega bo‘lgani sababli zarur moliyaviy resurslarning o‘z vaqtida ajratilishi ayniqsa muhimdir. Moliyaviy ta’minot yetarli bo‘lsa, zamonaviy saqlash omborlarini barpo etish va yetishtirilgan hosilni sotish uchun maqbul vaqtgacha sifatini saqlagan holda joylashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Eksport salohiyatining shakllanishi mutaxassislarning bilim va amaliy tajribasi bilan ham uzviy bog‘liq. Tajribali agronomlar, texnologlar, logistlar va eksport menejerlari mahsulot sifatini oshirish hamda uni xorijiy bozorga yetkazib berish jarayonini samarali tashkil etishda katta rol o‘ynaydi. Xodimlarning xalqaro standartlar, sertifikatlashtirish talablari va tashqi savdo qoidalarini yaxshi bilishi korxonaning chet el bozorlarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borish imkoniyatlarini kengaytiradi. R. Batyuk eksport salohiyatini shakllantirish, rivojlantirish va boshqarish bosqichlarini o‘z ichiga oluvchi biznes jarayoni sifatida baholaydi[4]. Ushbu yondashuv eksport faoliyatida mavjud resurslar bilan bir qatorda, ulardan samarali foydalana oladigan malakali mutaxassislarning ham muhimligini ko‘rsatadi.

Infratuzilmaning rivojlanganlik holati agrotadbirkorlik subyektlarining xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Transport-logistika tarmoqlari, sovitkichli omborlar, saralash va qadoqlash markazlari, shuningdek, sertifikatlashtirish xizmatlarining mavjudligi mahsulotni dastlabki sifatini saqlagan holda xaridorga yetkazishga yordam beradi. Ayniqsa, meva-sabzavotlar va boshqa tez buziluvchi mahsulotlarni eksport qilishda sovuq saqlash zanjirining uzluksiz ishlashi muhim hisoblanadi. Yetkazib berish muddatining buzilishi yoki mahsulotning talab etilgan sharoitlarda saqlanmasligi uning sifatini pasaytirib, korxonaning moliyaviy zarar ko‘rishiga sabab bo‘lishi mumkin. Oleksandr Vdovychenko qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport salohiyatini baholash jarayonida iqlim sharoitlari, ishlab chiqarishning mavsumiy

xususiyati va mavjud logistika imkoniyatlarini oʻzaro bogʻliq holda hisobga olish zarurligini qayd etadi[5].

Marketing salohiyati korxonaning xorijiy bozorlarni tahlil qilish, chet ellik xaridorlarni jalb etish va oʻz mahsulotini ularga samarali tarzda taqdim qilish imkoniyatini anglatadi. Korxona eksport bozorlaridagi talab va taklif holati, narxlar darajasi, raqobatchilar faoliyati hamda isteʼmolchilarning ehtiyojlari toʻgʻrisida yetarli axborotga ega boʻlishi lozim. Bunday maʼlumotlar mahsulot xususiyatlarini xaridorlar talabiga moslashtirish, istiqbolli bozorlarni aniqlash va savdo munosabatlarini rivojlantirishga koʻmaklashadi. Marketing salohiyati xalqaro standartlarga muvofiq faoliyat yuritish, mahsulotni sifatli qadoqlash va uni tashqi bozorlarda targʻib qilish jarayonlarini ham oʻz ichiga oladi.

Shunday qilib, agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyati ishlab chiqarish, moliya, mehnat, infratuzilma va marketing imkoniyatlarining oʻzaro uygʻunligiga bogʻliq. Eksport salohiyatining tarkibiy qismlari oʻzaro bogʻliq. Ulardan birining sust rivojlanishi boshqa yoʻnalishlarning imkoniyatini ham cheklaydi. Shu sababli ishlab chiqarish, moliyalashtirish, infratuzilma, kadrlar va marketing yoʻnalishlarini uygʻun rivojlantirish zarur. Bu agrotadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorda barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

**Foydlanilgan adabiyotlar**


1. Qurbonov A.B., Maxmutullayeva S.X. Qishloq xoʻjaligida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning oʻziga xos xususiyatlari // Iqtisodiyot va taʼlim. – 2022. – №5. – B. 303-314.
2. Hajiyeva Zulfiyya Elman. Eksport salohiyatini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari // Avtoreferat. – Ozarbayjon, 2023.–B.21.
3. Toshpoʻlatova M.Y., Mamadjanova T.A. Mamlakat iqtisodiyotida eksport salohiyatining tutgan oʻrni va uning oʻziga xos xususiyatlari // Scientific Journal. – 2025. – № 5. – B. 327–333. – https://scientific-jl.com/obr/article/view/14391
4. Batyuk R. Peculiarities of the economic assessment of the development of the export potential of agricultural enterprises // Scientific Messenger of Lviv National University of Veterinary Medicine and Biotechnologies. – 2022. – Vol. 24, № 99. – P. 25–30. – https://nvlvet.com.ua/index.php/economy/article/view/4619
5. Vdovychenko O. Export potential of agricultural production: evolution of economic theories and modern paradigms // The Economic Discourse. – 2025. – № 3. – P. 7–16. – DOI: https://doi.org/10.36742/2410-0919-2025-2-1

# RAQAMLI SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SHAROITIDA ELEKTRON HISOB-FAKTURALARNING XAVF DARAJASINI AVTOMATLASHTIRILGAN BAHOLASH

**JURAYEV AXMAD SAYITNAZAR O'G'LI**
Denov tadbirkolik va pedagogika instituti
"Moliya va bank ishi" kafedrasi 2-kurs doktoranti
Email: jorayevahmad446@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jahon miqyosida raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi sharoitida elektron hisob-faktura (EHF) tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning an'anaviy qog'ozbozlikka nisbatan afzalliklari va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda EHF tizimining bosqichma-bosqich joriy etilishi, huquqiy-me'yoriy asoslari hamda 2026-yildan boshlab real vaqt rejimida soliq xavflarini baholash bo'yicha yo'lga qo'yilgan yangi amaliyotlar yoritib berilgan. Maqola yakunida EHF tizimi samaradorligini yanada oshirish, shaffoflikni ta'minlash va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** elektron hisob-faktura (EHF), raqamlashtirish, soliq ma'muriyatchiligi, QQS, xavf darajasini baholash, EDI, avtomatlashtirish, moliyaviy hujjatlar aylanmasi.

Jahon miqyosida raqamlashtirishning jadallashuvi natijasida an'anaviy qog'ozbozlik o'z dolzarbligini yo'qotib, elektron hisob-fakturalar (EHF) tezkor, samarali va ekologik xavfsiz moliyaviy hujjat aylanishining muhim bo'g'iniga aylandi.

EHF tizimining shakllanishi XX asr oxirida kompyuter va internet texnologiyalarining ommalashuvi bilan bog'liq. 1970–1980-yillarda yaratilgan Electronic Data Interchange (EDI) standartlari B2B formatida elektron hujjat almashinuviga asos soldi, biroq yuqori xarajatlar sababli u asosan yirik korxonalar doirasida qo'llandi. 1990-yillar oxiri va 2000-yillar boshida elektron pochta, PDF hamda xavfsiz onlayn platformalarning rivojlanishi EHF jarayonlarini yanada qulay va ommabop qildi[1]. O'z navbatida, davlat organlari EHFning soliq ma'muriyatchiligi va biznesdagi yuqori samaradorligini e'tirof etib, uni majburiy joriy etish choralarini ko'ra boshladi.

Tijorat operatsiyalarida hisob-faktura tovar yetkazib berish va moliyaviy hisob-kitoblar o'rtasidagi asosiy bog'lovchi bo'g'indir. Ko'plab tadqiqotchilar, jumladan Gamaralalage (2020) ta'kidlaganidek, elektron hisob-fakturalar xarajatlarni kamaytirish, operatsion samaradorlikni oshirish va biznes jarayonlarini maqbullashtirishda an'anaviy qog'oz hujjatlarga nisbatan beqiyos afzalliklarga ega.

[1] Cheng, T. J., Chen, C. J., Ong, Y. L., Yang, Y. F., & Sheu, G. Y. (2024). Automating the audit of electronic invoices with a software robot. Manba: https://www.qeios.com/read/80BBW2.2/pdf

**1-jadval.**

**An’anaviy va elektron hisob-fakturalarning qiyosiy tahlili**[2]

| **Solishtirish mezonlari** | **An’anaviy hisob-faktura** | **Elektron hisob-faktura (EHF)** |
|---|---|---|
| **Hujjat formati** | Qog‘oz ko‘rinishidagi hujjatlarga asoslanadi | PDF, XML va EDI kabi raqamli formatlardan foydalanadi |
| **Ma’lumotlarni qayta ishlash** | Ma’lumotlar tizimga qo‘lda kiritiladi | Ma’lumotlar avtomatik tarzda qayta ishlanadi |
| **Ishlov berish tezligi** | Qog‘oz hujjatlar uzatish va ko‘rib chiqishda kechikishlarga uchraydi | Darhol uzatiladi va real vaqt rejimida qayta ishlanadi |
| **Xarajatlar** | Yuqori ma’muriy va pochta xarajatlarini talab qiladi | Uzoq muddatli istiqbolda xarajatlarni keskin qisqartiradi |
| **Xavfsizlik va aniqlik** | Hujjatlar yo‘qolishi va inson omili sabab xatoliklar kelib chiqishi yuqori | Yuqori darajadagi xavfsizlik va ma’lumotlar aniqligini ta’minlaydi |
| **Hujjatlar boshqaruvi** | Saqlash, izlash va arxivlash murakkab va vaqt talab etadi | Markazlashtirilgan va qulay boshqaruv tizimini taqdim etadi |

Jadval tahlili an’anaviy va elektron hisob-fakturalar o‘rtasidagi muhim texnologik va tashkiliy tafovutlarni ko‘rsatadi. Qog‘ozli va qo‘lda yuritiladigan an’anaviy tizim kechikishlar hamda xatoliklarga sabab bo‘lsa, EHF tizimi (PDF, XML, EDI formatlarida) operatsiyalarni avtomatlashtirib, xarajatlarni kamaytiradi va xavfsizlikni oshiradi. Ushbu afzalliklar sabab O‘zbekistonda EHF tizimi bosqichma-bosqich joriy etildi:

1-bosqich (Ixtiyoriy, 2019-yil 1-iyuldan): Tizim tajriba tariqasida ko‘ngilli ravishda amaliyotga kiritildi.

[2] Muallif tomonidan tayyorlandi.

2-bosqich (Majburiy, 2020-yil 1-yanvardan): Barcha tadbirkorlik subyektlari uchun EHFdan foydalanish majburiy etib belgilandi.

3-bosqich (Xavflarni baholash, 2026-yildan): EHF operatsiyalarini real vaqt rejimida xavf darajasiga koʻra baholash tizimi yoʻlga qoʻyildi.

**Huquqiy asoslar va pilot loyiha:**

Prezidentning PQ–3802-sonli Qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 807-sonli Qaroriga muvofiq, 2018–2019-yillarda Chirchiq shahri, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida pilot loyiha oʻtkazilib, unda 17 mingdan ortiq tadbirkor qatnashdi. Natijada VMning 522-sonli Qarori bilan respublika boʻyicha EHFga oʻtish tartibi belgilandi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 26-dekabrdagi 830-sonli Qarori bilan EHF xavf darajasini belgilash va QQSni toʻlash tartibi toʻgʻrisidagi Nizom tasdiqlandi. Nizomga koʻra:

EHF zanjiri avtomatlashtirilgan tizim orqali yuqori va past xavf guruhlariga ajratiladi;

Yuqori xavfli deb topilgan EHFlar ulushi hisobot davridagi umumiy EHFlar sonining 10 foizidan oshmasligi lozim;

Baholash 48 ta mezon boʻyicha amalga oshiriladi va ushbu mezonlarni aylanib oʻtishning oldini olish uchun xalqaro ekspertlar tavsiyasi bilan roʻyxat oshkor qilinmaydi. Tizimga 71 ta vazirlik va idora maʼlumotlari integratsiya qilingan.

Oʻzbekiston amaliyoti shuni koʻrsatadiki, EHF tizimi moliyaviy jarayonlarni tezlashtirish, xarajatlarni qisqartirish hamda soliq maʼmuriyatchiligi sifatini oshirishda muhim oʻrin tutmoqda. EHFni avtomatlashtirilgan baholash tizimi soliq xavflarini tezkor aniqlash, shubhali operatsiyalarni monitoring qilish va QQS hisobini aniq yuritish imkonini beradi. Shu bilan birga, tizim inson omilini va subyektiv yondashuvlarni minimumga tushiradi. 2026-yildan yoʻlga qoʻyilgan real vaqt rejimida xavflarni baholash amaliyoti va normativ-huquqiy bazaning takomillashtirilishi EHF jarayonlarini yanada shaffof, tezkor hamda xavfsiz qilishga xizmat qiladi.

Tizim samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

Integratsiyani kengaytirish: Davlat organlari va vazirliklar maʼlumotlar bazalarining yagona platformaga integratsiyasini chuqurlashtirish;

Hududiy monitoringni kuchaytirish: Hududlar va tarmoqlar boʻyicha tovar aylanmasi va EHF hajmlari farqlanishini inobatga olgan holda differensial monitoringni yoʻlga qoʻyish;

Mezonlarni muntazam yangilash: Xalqaro tajriba va zamonaviy texnologiyalar asosida EHF xavf darajasini belgilovchi mezonlarni davriy ravishda takomillashtirib borish;

Kadrlar va tadbirkorlar malakasini oshirish: Biznes subyektlari hamda soliq to'lovchilar uchun EHF va QQS hisobi bo'yicha xatoliklarni kamaytirishga qaratilgan amaliy seminarlar va o'quv kurslarini tashkil etish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. Soliq tushumlari bo'yicha yillik rasmiy statistik hisobot. Manba: https://gov.uz/oz/soliq/sections/view/55396
2. OECD. (2022). Tax Administration 3.0 and Electronic Invoicing: Initial Findings. OECD Forum on Tax Administration, OECD Publishing, Paris. https://doi.org/10.1787/2ffc88ed-en
3. Cheng, T. J., Chen, C. J., Ong, Y. L., Yang, Y. F., & Sheu, G. Y. (2024). Automating the audit of electronic invoices with a software robot. Manba: https://www.qeios.com/read/80BBW2.2/pdf
4. Merkx, M. (2025, 18-aprel). Navigating the risks of the use of digital reporting and e-invoicing in the age of advanced fraud detection. SSRN. https://ssrn.com/abstract=5469950 yoki http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.5469950
5. Asmawi, D. M., Rahman, A., & Sarif, S. M. (2025). E-invoicing implementation and its challenges to small and medium-size SMEs in Malaysia: A conceptual paper. International Journal of Research in Social Sciences (IJRISS). https://dx.doi.org/10.47772/IJRISS.2025.909000015
6. Aipova, I. (2024). VAT reforms and practical challenges. Green Economy and Development Journal, 3(4), 21–26. https://doi.org/10.5281/zenodo.15437560
7. Qo'yliyev, U. (2025). Improving tax control through the use of digital technologies in Uzbekistan. Advanced Economy and Pedagogical Technologies, 2(4), 533–538. https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss4-pp533-538
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF–153-son, 2025-yil 4-sentyabr. Manba: https://lex.uz/uz/docs/-7716359
9. Bani Ahmad, A. Y. A. (2024). E-invoicing and cost reduction: A case study of multinational corporations. Journal of Information Systems Engineering and Management, 9(2), 25009. https://doi.org/10.55267/iadt.07.14746
10. Gamaralalage, H. (2020). Identifying barriers in e-invoicing process to increase efficiency and raise the level of automatization of workflows (Magistrlik dissertatsiyasi, Tallin texnologiya universiteti, Tallin, Estoniya). Manba: https://arxiv.org/ftp/arxiv/papers/2020.07636.pdf
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 522-son, 2019-yil 25-iyun. Manba: https://lex.uz/docs/-4386769
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 830-son, 2025-yil 26-dekabr. Manba: https://lex.uz/docs/-7962143

# ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKASIYALASH JARAYONLARI

**Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi**
mail: mirzarayimovaferuza887@gmail.com

**Anatatsiya:** Maqolada zamonaviy raqobat, globallashuv va iqtisodiy beqarorlik sharoitida korxonalarda diversifikatsiya siyosatini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi.Ushbu tadqiqot davomida korxonalarda diversifikatsiya usullarining samaradorligi va ularning ishlab chiqarish jarayoniga ta’siri chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ko‘plab korxonalar diversifikatsiya strategiyalarini qo‘llash orqali o‘z ishlab chiqarish hajmini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish hamda yangi bozor segmentlariga kirish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkinligi aniqlandi.

**Kalit so’z:** to'g'ridan-to'g'ri diversifikatsiya, kengaytirilgan diversifikatsiya moliyaviy mexanizmlar, investitsion mexanizmlar, risklarni baholash.

**Kirish.**

Bugungi kunda korxonalar o’z faoliyati keskin raqobat, tezkor texnologik o‘zgarishlar va bozor beqarorligi sharoitida amalga oshirmoqda. Bunday vaziyatda faqat bitta mahsulot yoki xizmat turiga tayanish korxonalar uchun yuqori iqtisodiy xavf tug‘diradi. Shu bois diversifikatsiya siyosati korxonalarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim strategik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, korxonalarni iqtisodiy barqarorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

**Asosiy qism**

Diversifikatsiya jarayoni bir qator muhim bosqichlardan iborat bo'lib, har bir bosqich o'zining alohida ahamiyatiga ega. Bu jarayonda innovatsiya, iste'molchi talablarini o'rganish, risklarni boshqarish, marketing strategiyalari va natijalarni baholash muhim o'rin tutadi. Har bir korxona o'z sharoitida ushbu bosqichlarni aniq qo'llash orqali o'z samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash jarayonida amalga oshiriladigan har bir bosqichda turli xil amaliy misollar mavjud. Masalan, 2017 yilda Coca-Cola kompaniyasi taomlar va ichimliklar diversifikatsiyalash strategiyasini yangi mahsulot uskunalari va go'shtli taomlar ishlab chiqarish bilan kengaytirishga qaror qildi. Bu harakat, ularning bozor ulushini 15 foizga oshirishga olib keldi va yangi segmentlarga kirish imkoniyatini berdi. Shu bilan birga, kompaniya yangi ichimliklar liniyasini ishga tushirib, o'z brendini yanada kuchaytirdi. Mazkur mexanizmlar o‘zaro bog‘liq holda ishlaydi va diversifikatsiya siyosatining uzluksizligini ta’minlaydi. Ularning har biri alohida ahamiyatga ega bo‘lsa-da, faqat kompleks yondashuvgina yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi. Iqtisodiy mexanizmlar quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- moliyaviy mexanizmlar;
- investitsion mexanizmlar;

- ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish mexanizmlari;
- risklarni boshqarish mexanizmlari;
- tashkiliy-iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari;
- bozor va narx mexanizmlari.

Moliyaviy mexanizmlar diversifikatsiya siyosatining asosiy tayanch ustuni

hisoblanadi. Chunki yangi mahsulotlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangi bozorlarni o‘zlashtirish sezilarli moliyaviy resurslarni talab qiladi. Korxona diversifikatsiya siyosatini moliyalashtirishda quyidagi manbalardan foydalanadi:

-ichki moliyaviy resurslar (sof foyda, amortizatsiya fondi);

-tashqi moliyalashtirish (bank kreditlari, lizing, obligatsiyalar);

-strategik investorlar va qo‘shma korxonalar;

-davlat moliyaviy qo‘llab-quvvatlovi.

Samarali diversifikatsiya misollaridan yana biri Unilever kompaniyasidir. 2018 yilda Unilever o'z brendlarining assortimentini kengaytirish maqsadida ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishga e'tibor qaratdi. Bu strategiya ular uchun nafaqat ijtimoiy mas'uliyatni ko'rsatish, balki yillik daromadlarni 7 milliard dollarga oshirishga olib keldi. Ushbu jarayon davomida Unilever, iste'molchilarning ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan talabini o'rganish orqali muvaffaqiyatga erishdi.

Oil and Gas sektori uchun diversifikatsiya strategiyasi ham ahamiyatlidir. 2020 yilda BP kompaniyasi energetika sohasidagi xavflarni kamaytirish maqsadida qayta tiklanuvchi energiyalarga sarmoya kiritadi. Ular 2030 yilga kelib, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan 50 foizga oshirishni maqsad qilgan. Bu strategiya bilan BP o'zining uglevodorod ishlab chiqarishidan keladigan daromadlarini diversifikatsiyalashga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari, Apple kompaniyasi ham diversifikatsiya jarayonini o'z mahsulotlari orqali ko'rsatadi. 2021 yilda Apple yangi xizmatlar, jumladan, Apple TV+ va Apple Arcade-ni ishga tushirishga qaror qildi. Ushbu yangi xizmatlar, kompaniyaning daromadlarini 15 foizga oshirib, raqobatchilariga nisbatan ustunlikni ta'minladi. Bu yondashuv Apple'ni faqat texnologik uskunalar ishlab chiqaruvchi kompaniyadan, xizmatlar taqdim etuvchi hamda raqobatchilariga nisbatan o'zining ta'sirini kuchaytiruvchi brendga aylantirdi.

Ishlab chiqarish jarayonini diversifikatsiyalashda, o'zbek korxonalarining ham ancha imkoniyatlari mavjud. Misol tariqasida, bir qator oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi kompaniyalar yangi mahsulot turlarini yaratishda muvaffaqiyat qozondi. 2022 yilda "O'zdon" milliy aksiya kompaniyasi yangi don mahsulotlari ishlab chiqarishni boshladi va bu o'z navbatida 30 foizga tayyor mahsulotlar savdosini oshirdi. Bu holat, diversifikatsiya strategiyasining amaliy samarasini ko'rsatadi. Shuningdek, turizm sohasida diversifikatsiya misollari ham mavjud. 2023 yilda "O'zbekiston Turizm" agentligi, madaniy va tarixiy turizmni rivojlantirish orqali yangi turistik jihatlarni kengaytirdi. Ular yangi yo'nalishlarni joriy etish maqsadida mahalliy muassasalar bilan hamkorlikda ishlashni boshladi va bu natijada yurtga keladigan sayyohlar soni 25 foizga oshdi. Bu orqali turizm sohasida diversifikatsiyaning ahamiyatini yanada kuchaytirish mumkinligini ko'rsatdi.

Ushbu misollar, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash jarayonida qanday yondashuvlar va strategiyalar mavjudligini ko'rsatadi. Har bir kompaniya o'zining bozor muhitiga mos ravishda diversifikatsiyalashni amalga oshirib, muvaffaqiyatga erishmoqda. Bu orqali raqobatni kuchaytirish va bozorda o'z o'rnini mustahkamlash hamda samaradorlikni oshirish mumkin. Har bir korxona o'z strategiyasini yuborgan maqsadi va ehtiyojlariga qarab ishlab chiqishi zarur.

Ishlab chiqarishni diversifikasiyalash jarayonining bosqichlari murakkab va ko'p qirralidir. Boshida, bozordagi talab va taklifni kuzatish zarur. Masalan, 2020 yilda global iqtisodiyotdagi o'zgarishlar sababli, iste'molchilar tomonidan ko'rsatiladigan ehtiyojlar 30 foizga o'zgardi. Bu o'zgarishlar korxonalarni yangi mahsulotlarni ishlab chiqish uchun yangi g'oyalar izlashga undadi. Diversifikatsiya jarayonining ikkinchi bosqichi - mavjud resurslarni tahlil qilishdir, bunda 2019 yilda Boeing kompaniyasi o'z resurslarini kengaytirish orqali 20 foizlik o'sish sur'atiga erishdi. Uchinchi bosqichda, korxona raqobatchilarni o'rganishi lozim, 2021 yilda Nike o'z raqobatchilarining strategiyalarini tahlil qilish orqali yangi brend yaratish rejasini ishlab chiqdi. Ushbu tadqiqotlar 25 foizga qat'iylikni oshirdi. Diversifikasiyalash jarayonida bozor segmentlari aniqlanadi. 2018 yilda Samsung yangi televiziya modellari bilan 18 foiz yangi xaridorlar jalb qildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Qodirov D.Sh. Sanoat korxonalarida diversifikatsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmlari // O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy axborotnomasi. – 2020.

2. Abdullayev A.X. Korxonalarda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishning iqtisodiy mexanizmlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2022. – №3

3. Karimov B.A. Diversifikatsiya strategiyasini shakllantirishda iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarining o‘rni // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – Toshkent, 2021

4. J. Raxmonov. Diversifikasiyalash va uning iqtisodiy ta'siri. — Toshkent: Iqtisodiy tadqiqotlar, 2022. — 220 p.

5. D. Xolikov. Innovatsiyalar va diversifikasiyalash: zamonaviy yondashuvlar. — Andijon: Oliy o'quv yurtlari, 2023. — 150 p.

# XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISH EVOLUTSIYASI

**Abruyev Abdumalik Oynazarovich**
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro
Universiteti mustaqil izlanuvchisi
Email: abruevabdumalik@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va aholi kambag‘allik darajasini qisqartirish o‘rtasidagi evolyusion bog‘liqlik tadqiq etilgan. Eramizdan oldingi asrlarda yashab o‘tgan qadimgi grek faylasuflari (Ksenofont, Arastu, Suqrot) qarashlaridan boshlab, XIX–XX asr ingliz sotsiologlari (S. Rountri, Ch. But) hamda zamonaviy iqtisodchi olimlarning kambag‘allik kategoriyasiga oid nazariy yondashuvlari qiyosiy tahlil qilingan. Muallif tomonidan kambag‘allikning mazmun-mohiyati nafaqat moddiy tanqislik, balki iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va tarixiy-madaniy jihatlarni qamrab oluvchi murakkab tizim sifatida asoslab berilgan. Maqolada xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ish o‘rinlari yaratish va kambag‘allikni qisqartirishda asosiy «lokomotiv» tarmoq ekanligi dalillangan.

**Kalit so‘zlar:** xizmat ko‘rsatish sohasi, kambag‘allikni qisqartirish, farovonlik, inson kamoloti, Ksenofont, yashash minimumi, absolyut kambag‘allik, inson kapitali, iqtisodiy diversifikatsiya, lokomotiv soha.

Jahonda eramizdan oldingi asrlarda ham aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ishlarda inson kamoloti, uning sog‘lom yashashi, o‘zini ta’minlay olishi kabi kambag‘allik kategoriyasiga xos bo‘lgan qarashlarni ilgari surgan, ijodkorlarni uchratish mumkin. Ular qatoriga Arastu, Suqrot, Ksenofont kabi olamga mashhur allomalarning tadqiqot polegoni aynan inson kamolotiga erishish orqali farovon turmush tarzini targ‘ib etish bo‘lganligini ko‘rsatadi. Masalan, “ekonomika”, ya’ni “iqtisod” tushunchasi eramizdan oldin 430-355 yillarda yashab ijod etgan qadimgi grek faylasufi Ksenofont ilmiy qarashlariga bog‘liq tushuncha deyish mumkin. U, tadqiqotlarida kambag‘al aholi qatlamini kamaytirishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qayd etmagan bo‘lsa ham, lekin, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sirida aholi va jamiyatning farovonligi uchun mehnat, yer, insonning ijtimoiy kamoloti zarur ekanligini tushuntirishga urunadi[3]. Bu esa olimning necha ming asr oldin ham aholi kambag‘alligini qisqartirish davlat va ijtimoiy qatlamning asosiy obe’kti bo‘lganligini ko‘rsatadi. Demak, insonlarning sog‘lom bilimli, dono va zukko bo‘lishida o‘ziga xos xizmat bilan bog‘lasak, o‘sha asrlarda ham xizmat ko‘rsatish bilan kambag‘allikning qisqarishi bevosita bog‘liq. Umuman xizmatlarning inson farovonligida katta ahamiyatga ega ekanligining sababi, qadim zamonlarda ham olimlarning diqqat markazida bo‘laganligini ko‘rish mumkin. Shu nuqtai-nazardan aytish mumkinki, bizning nazarimizda yuqoridagi zamonaviy dunyo qarash bilan

[3] Wikipedia[kirish yo‘li] https://ru.wikipedia.org/wiki

yondoshgan olimlarning aksarida ham xizmat koʻrsatish sohasi aholi kambagʻalligini qisqartirishda Ksenofontdan keskin farqli nazariyani ilgari surmagan. Umuman olganda xizmat koʻrsatish va u bilan bogʻliq boʻlgan soha kambagʻallikni qisqartirishda asosiy lokomotiv soha hisoblanadi.

Shulardan kelib chiqib xizmat koʻrsatish sohasi kambagʻallikni qisqartirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi: u aholiga ish oʻrinlari yaratadi, daromad manbalari diversifikatsiyasiga yordam beradi va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni iqtisodiy jarayonga jalb qiladi. Oʻzbekistonda xizmatlar sohasi orqali ishsizlik darajasi pasayib, minglab oilalar kambagʻallikdan chiqdi[4].

Rus olimi I.Sidorchuk “Kriterii bednosti i pokazateli yee opredeleniya” deb, nomlangan maqolasida kambagʻallikni qisqartirishda asosiy me’yor sifatida ijtimoiy adolat, aholi daromadlarining teng taqsimlanishi va inson kapitalini rivojlantirishini ilgari suradi. Uning yondashuvi kambagʻallikni faqat iqtisodiy koʻrsatkichlar bilan emas, balki ijtimoiy va madaniy omillar bilan ham baholashni taklif etadi[5]. Uning fikricha, kambagʻallikni aniqlashda faqat daromad koʻrsatkichlari bilan emas, balki ta’lim, sogʻliqni saqlash va infratuzilma imkoniyatlari ham hisobga olinishi shart. I.Sidorchuk asosan ijtimoiy koʻrsatkichlarni inobatga olishni ilgari surgan.

I.S.Sazanov, I.Sidorchukdan farqli ravishda nafaqar ijtimoiy balki iqtisodiy koʻrsatkichlarga ham e’tibor berishni kambagʻallikni qisqartirishning asosiy me’zoni va sharti deb, biladi. U, oʻz maqolasida kambagʻallikni qisqartirishda asosiy me’yor sifatida milliy va xalqaro standartlarni uygʻunlashtirishni ilgari suradi. Uning fikricha, kambagʻallikni aniqlash va kamaytirishda absolyut va nisbiy me’yorlar, yashash minimumi hamda daromadlar taqsimoti kabi koʻrsatkichlar asosiy ahamiyatga ega. Uning yondashuvi kambagʻallikni aniqlashda ham iqtisodiy, ham ijtimoiy koʻrsatkichlarni hisobga olishni talab qiladi. Bu esa kambagʻallikka qarshi samarali siyosat yuritish uchun asosiy shart hisoblanadi deb, keltirgan[6].

Shuningdek koʻplab olimlardan farqli ravishda kambagʻallik kategoriyasi dastlabki qarashlarni fanga XIX asrning oxirlari XX asrning boshlanishida ingliz sotsiologlari S.Rountri va Ch.Buta tomonidan fanga olib kirilganliglariga e’tibor qaratish lozim. Ushbu olimlar yashash minimumi – kambagʻallik, tushunchasi uni aniqlash me’zonlari yondashuvlarini va daromad chegarasi kabilar orqali asoslashga uringan. Ularning fikricha oziq-ovqat, kiyim-kechak va yashash sharoiti boʻlishini mezonlar sifatida ta’kidlashadi. Ushbu mezonlarga javob bera olmaslik esa, absolyut kambagʻallikni anglatishini qayd etib oʻtadi[7].

G.Kosharnaya, L.Karimovalar “Osnovnыe podxodы k izmereniyu urovnya bednosti v sovremennoy Rossii” nomli maqolasida kambgʻallikni qisqartirishga qaratilgan aholining farovon yashash qoidalarini tavsiya etadi. Ularga koʻra aholining kambagʻalligini qisqartirish hayot farovonligiga erishishining turli me’zon

[4] www.api-portal.gov.uz

[5] Сидорчук И.Б. “Критерии бедности и показатели ее определения” журнал “Экономика и бизнеса” 2016 год. 46-58 ст. [кириш йўли] https://cyberleninka.ru/article/n/kriterii-bednosti-i-pokazateli-ee-opredeleniya/viewer

[6] Сазанов И.С. Бедность: Национальные и международные критерии//Челябинский гуманитарий. – 2012, -№3(20). – С.80-84

[7] Руниверсалис энциклопедия: [кириш йўли] https://руни.рф/Раунтри,_Сибом?ysclid=mnsgh22yfh77457228

va kategoriyalari orqali aniqlashni taklif etishgan:

Birinchidan, farovonlik – jismoniy va intellektual imkoniyatlardan to‘liq foydalanish orqali insonni har tomonlama rivojlanishi;

Ikkinchidan, kambag‘allik – iste’mol miqdorini saqlab qolinishi va mehnatga layoqatli bo‘lish;

Uchinchidan, qambag‘allik – iste’molning minimal darajasi bo‘lib insonning biologik imkoniyatlarinigina ta’minlanishini anglatadi[8] deb, tushuntirishga urunganlar. Ammo, ular kambag‘allik darajasini aniqlashning bu usulini kengroq ochib bermagan shu sababli ularning talqini kambag‘allik mazmun mohiyatini to‘la yoritib bermaydi.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlaridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki bizningcha kambag‘allik – bu faqat moddiy yetishmovchilik yoki tanqislik emas, balki ijtimoiy va ma’naviy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq murakkab holatdir. Uning mazmun-mohiyatini bir nechta yo‘nalishda ko‘rib chiqish mumkin:

**Iqtisodiy jihatdan**: Kambag‘allik insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan daromad va resurslarga ega emasligi bilan belgilanadi. Bu nafaqat oziq-ovqat, kiyim-kechak va turar-joy, balki ta’lim va tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatining cheklanganligida ham namoyon bo‘ladi.

**Ijtimoiy jihatdan**: Kambag‘allik odamni jamiyatdagi teng huquqli ishtirokdan chetlatishi mumkin. Kambag‘al aholi ko‘pincha ijtimoiy himoya tizimidan uzoqlashadi, ularning ovozi va manfaatlari yetarlicha ifoda etilmaydi.

**Ma’naviy jihatdan**: Kambag‘allik insonning o‘zini qadrlash hissini susaytiradi, kelajakka ishonchini kamaytiradi. Bu holat ijtimoiy adolatga ishonchni yo‘qotishga va ma’naviy tanazzulga olib kelishi mumkin.

**Tarixiy va madaniy jihatdan**: Kambag‘allik turli jamiyatlarda turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ayrim madaniyatlarda u taqdir yoki sinov sifatida qabul qilinsa, boshqalarda ijtimoiy tizimning kamchiliklari sifatida baholanadi.

Yuqoridagi tadqiqotlardan kelib chiqqan xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish orqali kambag‘allik darajasini qisqartirish masalasi bugungi kun iqtisodiy siyosatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki xizmatlar sohasi aholi turmush darajasini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va daromad manbalarini kengaytirishda katta imkoniyatlarga ega. Xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlansa, iqtisodiyot diversifikatsiyalanadi, sanoat va qishloq xo‘jaligiga qo‘shimcha ravishda turizm, savdo, transport, ta’lim, tibbiyot va axborot texnologiyalari kabi yo‘nalishlar orqali aholiga keng imkoniyatlar yaratiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Sidorchuk I.B. “Kriterii bednosti i pokazateli yee opredeleniya” jurnal “Ekonomika i biznesa” 2016 god. 46-58 st. [kirish yo‘li]

[8] Кошарная Г.Б., Каримова Л.Ф. “Основные подходы к измерению уровня бедности в современной России” https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-podhody-k-izmereniyu-urovnya-bednosti-v sovremennoyrossii/viewer

https://cyberleninka.ru/article/n/kriterii-bednosti-i-pokazateli-ee-opredeleniya/viewer
2. Sazanov I.S. Bednost: Natsionalnые i mejdunarodnые kriterii//Chelyabinskiy gumanitariy. – 2012, - №3(20). – S.80-84
3. Runiversalis ensiklopediya: [kirish yo‘li] https://runi.rf/Rauntri,_Sibom?ysclid=mnsgh22yfh77457228
4. Kosharnaya G.B., Karimova L.F. "Osnovnые podxodы k izmereniyu urovnya bednosti v sovremennoy Rossii" https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-podhody-k-izmereniyu-urovnya-bednosti-v sovremennoyrossii/viewer

# KO'CHMAS MULKNI OMMAVIY BAHOLASH USLUBIYOTINING NOANIQLIKLARI VA BO'SHLIG'I

**To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich**
Termiz davlat universiteti,
Moliya kafedrasi dotsenti,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
ORCID: 0000-0003-3151-1930
tulakov77@mail.ru

**Annotatsiya.** Tezisda 2026-yilda tasdiqlangan va shu yilning 27-sentyabridan kuchga kiradigan ko'chmas mulkni ommaviy baholash uslubiyatining matni tahlil qilinib, uni amaliyotda bir ma'noda qo'llashga to'sqinlik qiladigan beshta jihat aniqlangan. Tahlil me'yoriy-huquqiy usul bilan hujjatning o'z ilovasidagi rasmiy hisob namunasini qayta hisoblash yo'li birgalikda qo'llangan holda olib borildi. Aniqlangan muammolar yuridik texnika xatosi, normalar kolliziyasi, operatsional noaniqlik, shaffoflik hamda validatsiya bo'shlig'i tarzida toifalarga ajratilib, hujjatga kiritilishi lozim bo'lgan beshta aniq tuzatish taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** ommaviy baholash, tuzatish koeffitsiyenti, etalon obyekt, soliq bazasi, baholash adolatliligi, kalibrlash, validatsiya.

Ko'chmas mulk soliqqa tortish bazasining aniqligi baholash uslubiyatining qanchalik bir ma'noli yozilganiga bevosita bog'liq. 2026-yil 18-mayda tasdiqlangan va 27-sentyabrdan kuchga kiradigan yangi uslubiyat[9] ommaviy baholashning butun zanjirini, ya'ni obyektlar ro'yxatini shakllantirishdan tortib natijalarni tasdiqlash va murojaatlarni ko'rib chiqishgacha bo'lgan bosqichlarni belgilaydi hamda 2025-yilgi oldingi tartibni almashtiradi[10]. Hujjat matnini batafsil o'rganish esa uning amaliy qo'llanishida bir necha noaniqlik borligini ko'rsatadi. Ushbu tezisda shu noaniqliklar hujjatning o'z matni va undagi rasmiy hisob namunasi asosida tahlil qilinadi.

Tadqiqotda me'yoriy-huquqiy tahlil usuli hisob-kitob rekonstruksiyasi bilan birgalikda qo'llanildi. Rekonstruksiya deganda uslubiyat ilovasidagi to'ldirilgan namunada keltirilgan raqamlardan yakuniy qiymatni mustaqil ravishda qayta hisoblash tushuniladi.

**1. Koeffitsiyent aksining matematik ta'rifi yo'q.**

Uslubiyatning 36-bandiga ko'ra obyekt qiymati etalon narxdan kelib chiqib, ilovalarda belgilangan tuzatish koeffitsiyentlarining aksini qo'llash orqali

[9] Ko'chmas mulkni ommaviy baholash uslubiyotini tasdiqlash to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi direktorining 2026-yil 18-maydagi 74-10-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3858, 25.06.2026). https://lex.uz/uz/docs/8288763

[10] O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 7-iyuldagi 269-son buyrug'i bilan tasdiqlangan uslubiyat (ro'yxat raqami 3649, 14.07.2025) o'z kuchini yo'qotgan deb topildi.

aniqlanadi. Ilovada berilgan yagona formula esa quyidagi ko‘rinishda:

$$OQ = BN \times BM \times K_1 \times K_2 \times \ldots \times K_n \quad (1)$$

bu yerda:

OQ − obyektning qiymati;

BN − obyektning 1 kv.m uchun narxi;

BM − obyektning maydoni;

$K_1$, $K_2 \ldots K_n$ − narx shakllantiruvchi omillarni ifodalovchi koeffitsiyentlar.

Formulada koeffitsiyentlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘paytiriladi, 36-band esa ularning aksini talab qiladi, biroq «aks» tushunchasining matematik ta’rifi hujjatda umuman berilmagan. Uni kamida uch xil o‘qish mumkin, ya’ni teskari qiymat sifatida, foizli teskarilash sifatida yoki logarifmik shkalada ishorani almashtirish sifatida. Birinchi va uchinchi o‘qish bir xil natija beradi, ikkinchisi esa boshqacha.

Farqni oddiy misolda ko‘rish mumkin. K = 1,25 bo‘lganda teskari qiymat

$$\frac{1}{K} = 0,80 \quad (2)$$

foizli teskarilash esa 1 − 0,25 = 0,75 ni beradi. Ikkinchi talqin obyekt qiymatini birinchisiga nisbatan 6,25 foizga pasaytiradi, ommaviy baholashda esa bunday farq yuz minglab obyektga ko‘payadi va soliq bazasida sezilarli chetlanish hosil qiladi.

Chalkashlikni kuchaytiradigan yana bir holat bor. Uslubiyatning mulkdorga beriladigan ma’lumotnoma shaklida «$K_1$, $K_2 \ldots K_n$ − narx shakllantiruvchi omillarni aks ettiruvchi koeffitsiyentlar» deb yozilgan, ya’ni bu yerda o‘zak teskari ma’noda emas, ifodalash ma’nosida ishlatilgan. Bir hujjat doirasida bitta so‘zning ikki ma’noda qo‘llanishi talqin xatosiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘l ochadi.

**2. Eskirish formulalarining o‘zaro ziddiyati.**

Xarajat yondashuvida obyekt qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$OQ = QX \times (1 + TF) \times (1 - E) \quad (3)$$

Jismoniy eskirishning umumiy ta’siri esa alohida formula bilan beriladi:

$$E = 1 - E_{je} \quad (4)$$

bu yerda:

QX − obyektni qurish xarajatlari;

TF − tadbirkorlik foydasi;

E − eskirish qiymati;

Eje − jismoniy eskirish koeffitsiyenti.

Ikkinchi ifodani birinchisiga qo‘ysak (1 − E) o‘rniga Eje qoladi va qiymat OQ = QX × (1 + TF) × Eje ko‘rinishini oladi. Uslubiyat ilovasidagi qo‘llanma esa Eje uchun shikastsiz bino holatida 0, foydalanishga yaroqsiz bino holatida 0,95 qiymatini belgilaydi. Demak formulalar matnda yozilganidek qo‘llanganda yangi binoning qiymati nolga aylanadi, deyarli vayrona bino esa tiklanish qiymatining 95 foizini saqlab qoladi. Bu talqin masalasi emas, eskirish ko‘rsatkichi ikki marta teskarilangan tahririy xato.

**3. Yakuniy qiymat formulasining ikkiligi.**

Mulkdorga beriladigan ma’lumotnoma namunasida qiymat butunlay boshqa formula bilan hisoblanadi:

$$OQ = (BN \times BM \times K_1 \times \ldots \times K_n) + (YEN \times YEM \times K_1 \times \ldots \times K_n)$$

(5)

bu yerda:

YEN − yer uchastkasining zona bo‘yicha 1 kv.m uchun o‘rtacha narxi;

YEM − yer uchastkasining maydoni.

Birinchi formulada yer alohida had sifatida qatnashmaydi, beshinchisida esa qatnashadi. Qaysi biri asosiy ekani va ular qanday hollarda qo‘llanishi ko‘rsatilmagan, holbuki tanlov natijaga jiddiy ta’sir qiladi, chunki yakka tartibdagi turar joyda yer qiymati umumiy qiymatning katta qismini tashkil etadi.

**4. Rasmiy namunaning takrorlanmasligi.**

To‘ldirilgan namunada obyektning barcha tavsiflari va yakuniy qiymati 2 771 227 563 so‘m miqdorida keltirilgan, ammo «qo‘llanilgan tuzatish koeffitsiyentlari» ustuni bo‘sh qoldirilgan. Namunaning o‘z raqamlari bo‘yicha yer uchastkasi 627 kv.m × 4 029 120 so‘m = 2 526 258 240 so‘m, asosiy bino 142,78 kv.m × 3 664 200 so‘m = 523 174 476 so‘m, yordamchi binolar esa asosiy binoning 1 kv.m qiymatining 20 foizi hisobidan 48 455 381 so‘m bo‘lib, tuzatishlarsiz jami 3 097 888 097 so‘mni tashkil etadi. Yakuniy qiymatga nisbatan bu yig‘ma koeffitsiyent 0,895 ekanini anglatadi. Qurilgan yili, bino maydoni va yer maydoni bo‘yicha koeffitsiyentlarning aksi qo‘llanib qayta hisoblanganda natija 2 785 535 175 so‘mni beradi, ya’ni namunadagi raqamdan 0,52 foizga farq qiladi[11]. Farqning manbaini aniqlash imkoni yo‘q, chunki qo‘llangan koeffitsiyentlar ko‘rsatilmagan.

Bu holat hujjatning o‘z talablariga ham zid. 46-band Agentlikning rasmiy veb-saytida narx shakllantiruvchi omillar va ularning ta’sir qilish darajasi to‘g‘risidagi ma’lumot e’lon qilinishini talab qiladi, 48-band esa mulkdorga baholash natijalari yuzasidan 90 kalendar kun ichida e’tiroz bildirish imkonini beradi. Qanday koeffitsiyent qo‘llanganini bilmagan mulkdor o‘z e’tirozini asoslay olmaydi, ya’ni protsessual kafolat shakl jihatidan mavjud bo‘lsa-da, mazmunan ta’minlanmagan.

**5. Manbalarni birlashtirish va validatsiya masalasi.**

Uslubiyatning 11-bandi bozor ma’lumotlarining uch manbasini belgilaydi:

elektron savdo platformalaridagi taklif e’lonlari;

rieltorlik tashkilotlarida tuzilgan, notarial rasmiylashtirilgan bitimlar;

kredit tashkilotlaridan olinadigan garov qiymati to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Ularning qanday og‘irlikda birlashtirilishi, markaziy tendensiya sifatida o‘rtacha yoki mediana olinishi va chetdagi kuzatuvlar bilan qanday ishlanishi belgilanmagan. 35-band taklif narxi uchun 30 foizgacha savdolashish chegirmasini nazarda tutadi, garov qiymati uchun esa hech qanday tuzatish ko‘zda tutilmagan, holbuki u odatda bozor darajasidan pastroq shakllanadi.

Yagona miqdoriy nazorat 43-bandda uchraydi, unga ko‘ra tuzatishlardan keyingi narx ko‘rsatkichlari orasidagi farq bozor ma’lumotlari yetarli hududlarda 30, yetarli bo‘lmagan hududlarda 60 foizdan oshmasligi lozim. Bu mezon hududning yaroqliligini tekshiradi, baholash natijasining sifatini emas. Xalqaro amaliyotda ommaviy baholash spetsifikatsiya, kalibrlash va validatsiya bosqichlaridan iborat deb qaraladi, validatsiya uchun esa dispersiya koeffitsiyenti (COD), narxga bog‘liq

[11] Muallif hisob-kitobi. Manba: uslubiyatning 5-ilovasidagi to‘ldirilgan namuna raqamlari.

differensial (PRD) va regressiyaga asoslangan differensial (PRB) ko‘rsatkichlari qo‘llaniladi[12]. Uslubiyatda na koeffitsiyentlarni bozor ma’lumotlaridan baholash tartibi, na natijani shu ko‘rsatkichlar bo‘yicha tekshirish talabi mavjud, shu sababli koeffitsiyentlar bozordan olinganmi yoki ekspert yo‘li bilan belgilanganmi degan savol ochiq qolmoqda.

Aniqlangan muammolarni tabiatiga ko‘ra beshta toifaga ajratish mumkin, ular 1-jadvalda umumlashtirilgan.

**1-jadval**

**Ommaviy baholash uslubiyatidagi muammolarning tipologiyasi[13]**

| Muammo toifasi | Uslubiyatdagi ko‘rinishi | Tuzatish yo‘nalishi |
|---|---|---|
| Yuridik texnika xatosi | Eskirish ko‘rsatkichining ikki marta teskarilanishi | Formulalarni o‘zaro muvofiqlashtirish |
| Normalar kolliziyasi | Yakuniy qiymatning ikki xil formulasi | Har bir obyekt guruhi uchun bitta formulani belgilash |
| Operatsional noaniqlik | Koeffitsiyent aksining ta’riflanmagani, manbalarni birlashtirish qoidasining yo‘qligi | Matematik ta’rif va yig‘ish tartibini kiritish |
| Shaffoflik bo‘shlig‘i | Rasmiy namunada qo‘llangan koeffitsiyentlarning ko‘rsatilmagani | Hisobot shakllarida koeffitsiyentlarni majburiy to‘ldirish |
| Validatsiya bo‘shlig‘i | Kalibrlash va natijani tekshirish mezonlarining belgilanmagani | COD va PRD ko‘rsatkichlari bo‘yicha nazoratni joriy etish |

**Xulosa o‘rnida quyidagi takliflar ilgari suriladi:**

36-bandga koeffitsiyent aksining matematik ta’rifi 1/K ko‘rinishida kiritilishi hujjatni bir ma’noda qo‘llash imkonini beradi;

eskirishga oid formulalarni o‘zaro muvofiqlashtirish, ya’ni ko‘rsatkichni bir marta qo‘llaydigan tahrirni qabul qilish zarur;

yakuniy qiymatning ikki formulasidan qaysi biri qaysi obyekt guruhiga tegishli ekanini aniqlashtirish talab etiladi;

hisobot va mulkdor ma’lumotnomasi shakllarida qo‘llanilgan koeffitsiyentlarni to‘ldirish majburiy holga keltirilishi maqsadga muvofiq;

koeffitsiyentlarni bozor ma’lumotlaridan baholash va natijani COD hamda PRD ko‘rsatkichlari bo‘yicha tekshirish tartibining uslubiyatga kiritilishi baholash natijalariga ishonchni oshiradi.

[12] Standard on Mass Appraisal of Real Property. Revised 2025. Kansas City: International Association of Assessing Officers, 2025; Standard on Ratio Studies. IAAO, 2013.

[13] Manba: uslubiyat matni asosida muallif tahlili.

Sanab oʻtilgan tuzatishlar hujjatning konseptual asosini oʻzgartirmaydi, ular faqat uni bir maʼnoda qoʻllanadigan va tekshirib boʻladigan holatga keltiradi. Ayni shu ikki xususiyat ommaviy baholash natijalariga boʻlgan ishonchni belgilaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1. Koʻchmas mulkni ommaviy baholash uslubiyotini tasdiqlash toʻgʻrisida: Oʻzbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qoʻmitasi huzuridagi Kadastr agentligi direktorining 2026-yil 18-maydagi 74-10-son buyrugʻi (roʻyxat raqami 3858, 25.06.2026). https://lex.uz/uz/docs/8288763

2. Koʻchmas mulkni ommaviy baholash uslubiyotini tasdiqlash toʻgʻrisida: Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 7-iyuldagi 269-son buyrugʻi (roʻyxat raqami 3649, 14.07.2025). Hujjat 3858-son uslubiyat qabul qilinishi bilan oʻz kuchini yoʻqotgan.

3. Standard on Mass Appraisal of Real Property. Revised 2025. Kansas City: International Association of Assessing Officers, 2025. https://www.iaao.org

4. Standard on Ratio Studies. Approved April 2013. Kansas City: International Association of Assessing Officers, 2013. https://www.iaao.org

# RAHBARLIK FAOLIYATIDA BOSHQARUV UNSURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

**Abdullayev Farhod Ozodovich,**
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
Xorazm viloyati hududiy filiali direktori,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent.
E-mail: farhodeconomy@mail.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada rahbarlik faoliyatida boshqaruv unsurlarining zarurligi, o‘ziga xos xususiyatlari, mavjud imkoniyatlari va ulardan samarali foydalanish masalalari tadqiq etilgan. Shuningdek, rahbarlik faoliyatida boshqaruv unsurlaridan samarali foydalanish yuzasidan xulosa yoritilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются необходимость, специфические особенности, доступные возможности и эффективное использование элементов управления в лидерской деятельности. Также приводятся выводы об эффективном использовании элементов управления в лидерской деятельности.

**Abstract.** This article examines the necessity, specific features, available capabilities and effective use of management elements in leadership activities. It also provides a conclusion on the effective use of management elements in leadership activities.

**Kalit so‘zlar.** Rahbarlik, boshqaruv, unsur, samaradorlik, rejalashtirish, tashkil etish, vazifa, nazorat, motivatsiya.

**Ключевые слова.** Лидерство, управление, элемент, эффективность, планирование, организация, задача, контроль, мотивация.

**Key words.** Leadership, management, element, efficiency, planning, organization, task, control, motivation.

Zamonaviy tashkilot va muassasalar faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan rahbarlik faoliyatining to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq bo‘ladi. Bu holatda rahbar o‘z xodimlariga vazifalarni taqsimlashi, jamoani yagona maqsad sari yo‘naltirishi, ularning mehnatini muvofiqlashtirishi, qarorlar qabul qilishi va natijalarni nazorat qilishi lozim. Shu bois, rahbarlik faoliyatida boshqaruv unsurlaridan samarali foydalanish har qanday tashkilot uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv - muayyan maqsadga erishish uchun insonlar, moddiy va moliyaviy resurslar hamda jarayonlarni maqsadli ravishda tashkil etish va muvofiqlashtirish jarayonidir. Boshqaruvning asosiy unsurlariga maqsad qo‘yish, rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya, muvofiqlashtirish, qaror qabul qilish va nazorat kabi jarayonlar kiradi. Ushbu unsurlarning har biri rahbarlik faoliyatida o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirilganda yuqori natijaga erishish imkoni paydo bo‘ladi. Rahbarlik - jamoa a’zolarining faoliyatini tashkil etish, ularni umumiy maqsad atrofida birlashtirish va

belgilangan vazifalarni amalga oshirishga yo‘naltirish jarayonidir. Rahbarlik - rahbarning jamoa a’zolariga ta’sir ko‘rsatib, ularni umumiy maqsadga erishish sari yo‘naltirish jarayonidir [1]. Rahbarning asosiy vazifasi faqat buyruq berishdan iborat bo‘lmaydi. Ya’ni, rahbar boshqaruv jarayonini tashkil etib, jamoa faoliyatini umumiy maqsad sari yo‘naltiradi [2]. Bu borada samarali rahbar xodimlarning imkoniyatlarini o‘rganadi, ularga ishonch bildiradi, zarur sharoit yaratadi va natija uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi.

Avvalo, boshqaruvning samaradorligi rahbarning har bir vazifani tizimli ravishda bajarishiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, aniq maqsad belgilanmasdan turib yaxshi reja tuzib bo‘lmaydi. Reja mavjud bo‘lsa-da, vazifalar xodimlar o‘rtasida to‘g‘ri taqsimlanmasa, kutilgan natijaga erishish mushkul bo‘ladi. Xodimlarni rag‘batlantirish va bajarilgan ishlarni nazorat qilish ham boshqaruvning ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi. Rahbar tashkilot yoki jamoa oldida turgan asosiy vazifalarni aniq belgilashi lozim. Ya’ni, boshqaruvda rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya va nazorat funksiyalari o‘zaro bog‘liq holda amalga oshiriladi [3]. Rejalashtirish esa belgilangan maqsadga qanday yo‘l bilan erishishni belgilab beradi. Rahbar ishlarning ketma-ketligini, muddatlarini, zarur resurslarni va mas’ul xodimlarni belgilashi kerak. Yaxshi tuzilgan reja vaqt va resurslarni tejash, ortiqcha harakatlarni kamaytirish hamda natijadorlikni oshirish imkonini beradi.

Rejalashtirish faqat uzoq muddatli rejalar bilan cheklanmasligi lozim. Strategik, taktik va kundalik rejalar o‘zaro bog‘liq holda ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Bunda tashqi va ichki sharoitlarning o‘zgarishi hisobga olinib, rejalar zarur hollarda qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Rahbar belgilangan maqsadga erishish uchun mavjud resurslardan oqilona foydalanishi va vazifalarni xodimlar o‘rtasida to‘g‘ri taqsimlashi zarur. Vazifalarni taqsimlashda xodimlarning bilim va ko‘nikmalari, ish tajribasi, mas’uliyat darajasi hamda individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. Har bir vazifani eng munosib xodimga berish ish sifatini oshiradi. Rahbar barcha ishni shaxsan o‘zi bajarishga harakat qilmasligi kerak.

Delegatsiya, ya’ni ayrim vazifa va vakolatlarni xodimlarga ishonib topshirish rahbar faoliyatida muhim boshqaruv vositasi bo‘lib hisoblanadi. Vakolat berilganda xodimga vazifani bajarish uchun zarur huquq va resurslar ham taqdim etilishi kerak. Faqat mas’uliyat yuklab, qaror qabul qilish imkoniyatini bermaslik boshqaruv samaradorligini pasaytiradi. Tashkil etish jarayonida vazifalar, vakolatlar va javobgarlik chegaralari aniq belgilansa, ish jarayonida tushunmovchiliklar kamayadi. Bu esa jamoada intizom va hamkorlikni kuchaytiradi. Xodimlarning mehnat samaradorligi ko‘p jihatdan ularning ishga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois, motivatsiya boshqaruvning muhim unsuri bo‘lib hisoblanadi. Motivatsiya moddiy va nomoddiy shakllarda bo‘lishi mumkin. Moddiy rag‘batlantirishga ish haqi, mukofotlar va boshqa iqtisodiy rag‘batlar kirsa, nomoddiy rag‘batlantirishga xodimning mehnatini e’tirof etish, tashakkur bildirish, kasbiy rivojlanish imkoniyatini yaratish, ishonch bildirish va jamoada munosib mavqe berish kabilar kiradi.

Boshqaruv samaradorligida kommunikatsiya ham alohida o‘rin tutadi. Rahbar o‘z fikrini aniq yetkaza olishi bilan birgalikda xodimlarni tinglay bilishi zarur. Bir

tomonlama muloqot jamoada tashabbusning pasayishiga olib kelishi mumkin. Samarali muloqotda axborotning aniqligi, o'z vaqtida yetkazilishi va teskari aloqaning mavjudligi zarur. Rahbar topshiriq bergandan so'ng xodim uni qanday tushunganini bilishi, zarur hollarda qo'shimcha tushuntirish berishi kerak.

Rahbarlik faoliyatida qaror qabul qilish doimiy jarayon bo'lib hisoblanadi. Qarorning sifati mavjud axborotning ishonchliligi, vaziyatni tahlil qilish va ehtimoliy natijalarni oldindan baholashga bog'liq bo'ladi. Samarali qaror qabul qilish uchun rahbar muammoni aniq belgilashi, bir nechta muqobil variantlarni ko'rib chiqishi, ularning afzal va kamchiliklarini baholashi hamda eng maqbul variantni tanlashi lozim. Nazorat esa qabul qilingan qaror va rejalarning amalda qanday bajarilayotganini baholash imkonini beradi. Nazoratning maqsadi faqat kamchiliklarni topish yoki xodimni jazolash emas. U, avvalo, muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi kerak. Nazorat jarayonida aniq mezonlardan foydalanish lozim.

Xulosa qilib aytganda, rahbarlik faoliyatida boshqaruv unsurlaridan samarali foydalanish tashkilotning barqaror va yuqori natijalarga erishish sharti bo'lib hisoblanadi. Bunda maqsad qo'yish, rejalashtirish, tashkil etish, vazifalarni taqsimlash, motivatsiya, muloqot, qaror qabul qilish va nazorat bir-biridan alohida emas, ya'ni yagona boshqaruv tizimi sifatida qaralishi lozim. Samarali rahbar xodimlarni faqat boshqarib qolmasdan, ularni umumiy maqsad sari birlashtiradi, tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi va rivojlanishi uchun yetarli shart-sharoit yaratadi. Rahbarning adolatliligi, mas'uliyatliligi, muloqot madaniyati va qaror qabul qilish qobiliyati jamoa faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Boshqaruv unsurlaridan to'g'ri va o'zaro uyg'un foydalanish natijasida mehnat unumdorligi oshadi, vaqt va resurslar tejaladi, jamoada sog'lom psixologik muhit shakllanadi hamda belgilangan maqsadlarga erishish imkoniyati kuchayadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Northouse P.G. Leadership: Theory and Practice. 7th ed. - Los Angeles: SAGE Publications, 2016. - p. 6.

2. Qosimova D.S. Menejment nazariyasi. Darslik. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2011. - 238 b.

3. G'ulomov S.S. Menejment asoslari. O'quv qo'llanma. - T.: Sharq, 2002. - 368 b.

# TURIZM BOZORI RIVOJLANISHINI REJALASHTIRISH

**Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich,**
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti Turizm kafedrasi
professori, i.f.d., professor.
E-mail: dilshod.x@bk.ru

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada turizm bozori rivojlanishi zaruriyati, mavjud imkoniyatlari, oʻziga xos jihatlari va ularni amalga oshirishni rejalashtirish masalalari yoritilgan.

**Kalit soʻzlar.** Turizm, bozor, turizm bozori, rejalashtirish, strategiya.

Turizm iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan tarmogʻi sifatida mamlakat iqtisodiy oʻsishi, aholi bandligini ta’minlash, valyuta tushumlarini koʻpaytirish hamda hududlarni kompleks rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turizmni rivojlantirishga qaratilgan me’yoriy hujjatlarning mavjudlariga davr talabidan kelib chiqqan holda oʻzgatirish va qoʻshimchalar kiritish bilan birga, yangilari ham qabul qilinib, sohaga izchil jadal joriy etilmoqda [1]. Zamonaviy sharoitda turistik xizmatlarga boʻlgan talabning ortishi, raqobatning kuchayishi va raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi turizm bozorini rejali rivojlantirishni taqozo etadi. Turizm bozori rivojlanishini rejalashtirish mamlakat va hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish, xizmatlar sifatini oshirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishning muhim vositasi boʻlib hisoblanadi. Bunda turistik xizmat bozori turistik xizmatlarga boʻlgan talab va taklifni muvofiqlashtirish, resurslarni samarali taqsimlash hamda iste’molchilar bilan xizmat koʻrsatuvchilar oʻrtasidagi aloqani ta’minlash orqali transport, joylashtirish, ovqatlanish, sayohat tashkilotchilari va madaniy-rekreatsion xizmatlar kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan murakkab tizim hisoblanadi [2].

Turizm bozorini rejalashtirish - turistik xizmatlar bozorining kelajakdagi rivojlanish yoʻnalishlarini belgilash, maqsad va vazifalarni aniqlash, ularga erishish uchun zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda resurslardan samarali foydalanish jarayonidir. Ushbu jarayon davlat boshqaruvi organlari, xususiy sektor, mahalliy hokimiyatlar va jamoat tashkilotlari oʻrtasidagi hamkorlikka asoslanadi. Unga asosan, turizm sohasidagi xizmatlar bozori rejasi turistik mahsulotlarni rivojlantirish, bozorni segmentlashtirish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish, xizmatlar sifatini oshirish, investitsiyalarni jalb etish va turistik infratuzilmani takomillashtirish boʻyicha ustuvor yoʻnalishlarni belgilaydi [3]. Rejalashtirishning asosiy maqsadi turistlar oqimini koʻpaytirish, turistik xizmatlar sifatini yaxshilash, milliy turistik mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish va turizmdan olinadigan iqtisodiy samarani koʻpaytirishdan iborat. Turizm bozorini rivojlantirish rejasi qisqa, oʻrta va uzoq muddatli istiqbollarni qamrab oladi. Qisqa muddatli rejalarda

joriy muammolarni hal qilishga e’tibor qaratilsa, uzoq muddatli rejalar mamlakatning turistik salohiyatiga qaratilgan strategik vazifalarni belgilaydi.

Bozor tahlili natijasida turizm sohasining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda xavf-xatarlari aniqlanadi. Bu esa kelgusida to‘g‘ri strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Tahlil natijalariga asoslanib turizm bozorini rivojlantirish strategiyasi shakllantiriladi. Bunda strategiyaning asosiy yo‘nalishlari turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish, yangi turistik marshrutlarni tashkil etish, xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasiga yetkazish, investitsiyalarni jalb qilish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va turistik brendni shakllantirish kabilardan iborat. Strategiyani ishlab chiqishda hududlarning tabiiy, tarixiy, madaniy va rekreatsion imkoniyatlari hisobga olinadi. Har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlari asosida alohida rivojlanish dasturi qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bu holatda turizm bozori taraqqiyotining asosiy sharti rivojlangan infratuzilma bo‘lib hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun turistik mahsulot doimiy ravishda yangilanib borishi lozim. Buning uchun madaniy turizm, ziyorat turizmi, ekologik turizm, gastronomik turizm, agroturizm, tibbiy turizm, sport turizmi va ekstremal turizm kabi yangi yo‘nalishlar rivojlantiriladi. Mazkur mahsulotlar turli yoshdagi va turli ehtiyojlarga ega bo‘lgan turistlarni jalb qilish imkonini beradi. Turizm bozorini rejalashtirishda marketing muhim o‘rin tutadi. Turistik mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda targ‘ib qilish uchun kompleks marketing strategiyasi ishlab chiqiladi. Turizm bozorini rivojlantirish uchun yirik hajmdagi investitsiyalar talab qilinadi. Davlat-xususiy sheriklik asosida yangi mehmonxonalar, dam olish maskanlari, ko‘ngilochar markazlar va transport infratuzilmasini barpo etish turizmning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida soliq imtiyozlari, yer ajratish mexanizmlari va qulay investitsiya muhitini shakllantirish vazifalarini bajarish ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa shuki, turizm bozori rivojlanishini rejalashtirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ilmiy asoslangan rejalashtirish turistik resurslardan samarali foydalanish, raqobatbardosh turistik mahsulotlarni yaratish, investitsiyalarni jalb qilish, xizmatlar sifatini oshirish va turistlar oqimini ko‘paytirish imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy marketing texnologiyalarini joriy etish, raqamli xizmatlarni kengaytirish, infratuzilmani takomillashtirish va malakali kadrlar tayyorlash orqali milliy turizm bozorining xalqaro maydondagi o‘rnini yanada mustahkamlash mumkin. Turizm bozorini rejali rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi hamda madaniy merosni asrash, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va mamlakatning xalqaro nufuzini yuksaltirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Xaydarov N. Turizmning izchil rivojlanishida sohaga oid me’yoriy hujjatlarning tutgan o‘rni. // Davlat statistika qo‘mitasining “O‘zbekiston statistika axborotnomasi” ilmiy-elektron jurnali. 2019 yil, 1-son. - 4 b.

2. Litteljohn D., & Baxter I. (2006). The Structure of the Tourism and Travel Industry. In J. Beech & S. Chadwick (Eds.), The Business of Tourism Management. Pearson Education.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135-son Qarori. Manba: https://lex.uz/uz/docs/-6456786

# RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETING FUNKSIYALARIDAN FOYDALANISH

**Yuldasheva Zuhrajon Urazboy qizi,**
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
"Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)"
ta'lim yo'nalishi 231-"Iqtisodiyot" guruhi talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida marketing funksiyalari mohiyati, zaruriyati va undan foydalanish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, marketing funksiyalaridan foydalanish yuzasidan xulosa keltirilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются сущность, необходимость и особенности маркетинговых функций в цифровой экономике. Также приводятся выводы об использовании маркетинговых функций.

**Abstract.** This article discusses the essence, necessity and features of marketing functions in the digital economy. It also provides a conclusion on the use of marketing functions.

**Kalit so'zlar.** Iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, marketing, funksiya, marketing funksiyasi.

**Ключевые слова.** Экономика, цифровая экономика, маркетинг, функция, маркетинговая функция.

**Key words.** Economy, digital economy, marketing, function, marketing function.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi iqtisodiyotning barcha sohalarida eng muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Chunki, raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarning bozordagi faoliyati, iste'molchilar bilan munosabatlari va mahsulotlarni ilgari surish usullari sezilarli darajada o'zgarmoqda. An'anaviy marketing usullari bilan bir qatorda internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, elektron tijorat, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalaridan foydalanish marketing faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida marketing funksiyalari bozorni tadqiq etish, iste'molchilar ehtiyojini aniqlash, talabni prognozlash va raqamli kanallar orqali maqsadli auditoriya bilan samarali kommunikatsiya o'rnatishga yo'naltiriladi [1]. Ya'ni, raqamli iqtisodiyot sharoitida marketingning asosiy vazifasi iste'molchi ehtiyojlarini aniqlash, ularga mos mahsulot va xizmatlarni taklif qilish, bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlash hamda korxona va iste'molchi o'rtasida uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirishdan iborat. Bunda raqamli texnologiyalar marketing jarayonlarini tezkor, aniq va interaktiv tashkil etish imkonini beradi. Bu borada raqamli texnologiyalardan foydalanish marketing axborotlarini tezkor

yig‘ish va tahlil qilish, iste’molchilar xulq-atvorini o‘rganish hamda personallashtirilgan reklama va kontentni shakllantirish imkonini beradi [2].

Shuningdek, raqamli marketing funksiyalarini samarali qo‘llash korxonalarga mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni takomillashtirish, savdo hajmini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini yaratadi [3]. Bu bo‘yicha marketing funksiyasi bo‘lib biri bozorni o‘rganish va marketing tadqiqotlarini amalga oshirish hisoblanadi. An’anaviy sharoitda bozor tadqiqotlari asosan so‘rovnoma, intervyu va statistik ma’lumotlarni tahlil qilish orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, raqamli iqtisodiyotda bu jarayon ancha keng imkoniyatlarga ega. Internetdagi foydalanuvchilarning xatti-harakatlari, qidiruv so‘rovlari, veb-saytga tashriflari, ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi va xarid tarixi haqidagi ma’lumotlar marketologlarga iste’molchilarning ehtiyoj va qiziqishlarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

Bozorni raqamli usullarda o‘rganish natijasida korxona maqsadli auditoriyani aniq belgilashi mumkin. Masalan, iste’molchilarni yoshi, jinsi, yashash hududi, daromad darajasi, qiziqishlari va xarid qilish odatlari bo‘yicha segmentlarga ajratish mumkin. Bu esa har bir iste’molchi guruhiga mos marketing takliflarini ishlab chiqishga yordam beradi. Natijada marketing xarajatlari kamayadi va reklama samaradorligi oshadi.

Raqamli iqtisodiyotda mahsulotga bo‘lgan talabni tezkor o‘rganish va iste’molchilar fikrini olish imkoniyati mavjud. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn so‘rovlar, sharhlar va reytinglar orqali korxonalar o‘z mahsulotlariga nisbatan iste’molchilar munosabatini aniqlashi mumkin. Olingan ma’lumotlar asosida mahsulot sifatini yaxshilash, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqish yoki mavjud mahsulotni takomillashtirish mumkin. Internet muhitida iste’molchi turli korxonalarning mahsulot va xizmatlari narxlarini tezda taqqoslay oladi. Shu bois, korxonalar raqobatchilar narxini doimiy kuzatib borishi va bozordagi talab o‘zgarishiga mos ravishda narx siyosatini shakllantirishi lozim. Raqamli texnologiyalar dinamik narx belgilash, individual chegirmalar va maxsus aksiyalarni tashkil etish imkonini ham beradi.

Hozirgi vaqtda korxonalar iste’molchilar bilan muloqot qilish uchun veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, mobil ilovalar va boshqa raqamli kanallardan foydalanmoqda. Bu kanallar orqali reklama xabarlarini tezkor yetkazish, iste’molchilar savollariga javob berish va ularning fikr-mulohazalarini olish mumkin. Raqamli reklama marketing kommunikatsiyalarining muhim qismi bo‘lib hisoblanadi. Internet reklama vositalari orqali ma’lum bir maqsadli auditoriyaga aniq yo‘naltirilgan reklamani namoyish qilish imkoniyati mavjud. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchining qiziqishlari va onlayn faoliyatiga mos reklamalarni ko‘rsatish mumkin. Korxonalar maqsadli auditoriya uchun foydali va qiziqarli maqolalar, videolar, infografikalar, elektron kitoblar va boshqa materiallarni tayyorlash orqali iste’molchilar ishonchini oshirishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish marketing faoliyatining alohida yo‘nalishiga aylandi. Facebook, Instagram, Telegram, YouTube va boshqa platformalar orqali korxonalar o‘z mahsulotlarini tanitish, auditoriya bilan muloqot qilish va brend imidjini shakllantirish imkoniyatiga ega. Ijtimoiy tarmoqlarning

asosiy ustunligi iste'molchilar bilan ikki tomonlama kommunikatsiyani ta'minlashidir. Iste'molchi reklama axborotini qabul qiladi va o'z fikrini bildirishi, savol berishi va mahsulot haqida boshqa foydalanuvchilar bilan muloqot qilishi mumkin. Bu korxonalar uchun yangi bozorlarga chiqish, savdo hududini kengaytirish va mijozlar sonini oshirish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishni takomillashtirmoqda. CRM tizimlari orqali korxona har bir mijoz haqidagi ma'lumotlarni saqlashi, ularning xaridlarini tahlil qilishi va individual takliflar tayyorlashi mumkin. Bunday yondashuv mijozlarni saqlab qolish va ularning korxonaga bo'lgan sodiqligini oshirishda zarur. Raqamli iqtisodiyotda marketing samaradorligini baholash imkoniyatlari ham kengaymoqda. An'anaviy marketingda reklama samaradorligini aniqlash nisbatan murakkab bo'lgan bo'lsa-da, raqamli marketingda ko'rsatkichlarni real vaqt rejimida kuzatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot marketing funksiyalarini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bozorni o'rganish, iste'molchilarni segmentlash, mahsulot va narx siyosatini shakllantirish, reklama va kommunikatsiya, sotuv, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish hamda marketing samaradorligini baholash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradi. Bu borada zamonaviy sharoitda korxonalar uchun raqamli marketingdan foydalanish shunchaki qo'shimcha imkoniyat emas, bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning muhim shartiga aylanmoqda. Raqamli kanallardan samarali foydalanish, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va iste'molchilar bilan individual munosabatlarni yo'lga qo'yish orqali korxonalar o'z mijozlar bazasini kengaytirishi, sotuv hajmini oshirishi va uzoq muddatli raqobat ustunligiga erishishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ergashxodjayeva Sh.Dj., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing asoslari. - T.: Iqtisodiyot, 2019. - 304-305 b.

2. Tohirjonov A.A., Ergashxo'jayeva Sh.D. Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2023, №11-12. - 1064-1065 b.

3. Aliyev A.I. Korxonalar faoliyatini raqamli marketing texnologiyalari asosida rivojlantirish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. - T., 2024.

# ТЕМИР ЙЎЛ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

**Байматов Атхам Ахмадалиевич**
Тошкент давлат транспорт университети
мустақил тадқиқотчи

**Аннотация:** Ушбу тадқиқот ишида темир йўл ишлаб чиқариш корхоналарини ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш масалалари мулоҳаза қилинади. Иш давомида темир йўл соҳасидаги амалдаги бошқарув тизими ва иқтисодий кўрсаткичлар таҳлил қилиниб, мавжуд камчиликлар ва тўсиқлар аниқланади. Тадқиқотнинг асосий урғуси ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, корхоналарни рақамлаштириш ва инновацион технологияларни жорий этиш орқали ташкилий-иқтисодий механизмни юқори самарали модельга айлантиришга қаратилган. Шунингдек, корхоналарни ривожлантириш учун иқтисодий ва ташкилий-уюштирувчилик бўйича муҳим таклиф ва чора-тадбирлар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** темир йўл корхоналари, ташкилий-иқтисодий механизм, ишлаб чиқариш самарадорлиги, бошқарув тизими, логистика, инновациялар, рақамлаштириш, инвестициявий самарадорлик, транспорт соҳаси.

Бугунги кунда транспорт тизими мамлакат иқтисодиётининг барқарор ривожланишини таъминловчи муҳим инфратузилма тармоқларидан бири ҳисобланади. Айниқса, темир йўл транспорти юк ва йўловчиларни узоқ масофаларга ташиш, саноат корхоналарини хом ашё ва ресурслар билан таъминлаш ҳамда минтақалар ўртасида иқтисодий алоқаларни ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга.

Темир йўл тизимининг самарали ишлаши нафақат транспорт хизматларининг сифатини, балки соҳада фаолият юритувчи ишлаб чиқариш корхоналарининг иқтисодий барқарорлигига ҳам боғлиқ. Ушбу корхоналар локомотивлар, вагонлар, эҳтиёт қисмлар, темир йўл инфратузилмаси элементлари ва бошқа маҳсулотларни ишлаб чиқариш ҳамда таъмирлаш ишларини амалга оширади.

Шу сабабли темир йўл ишлаб чиқариш корхоналарини ривожлантиришнинг замонавий ташкилий-иқтисодий механизмини шакллантириш долзарб илмий-амалий масалалардан бири ҳисобланади.

Ташкилий-иқтисодий механизм деганда корхона фаолиятини самарали ташкил этиш, ресурслардан оқилона фойдаланиш, харажатларни оптималлаштириш, инвестицияларни жалб қилиш, инновацияларни жорий этиш ва иқтисодий натижадорликни оширишга қаратилган бошқарув усуллари ва воситалари мажмуи тушунилади.

Темир йўл ишлаб чиқариш корхоналарида мазкур механизмни такомиллаштириш бир нечта ўзаро боғлиқ йўналишларни қамраб олиши лозим.

Биринчидан, **ишлаб чиқариш жараёнларини модернизация қилиш** муҳим аҳамиятга эга. Замонавий юқори унумли ускуналардан фойдаланиш маҳсулот таннархини камайтириш, меҳнат унумдорлигини ошириш ва маҳсулот сифатини яхшилаш имконини беради.

Иккинчидан, **рақамли технологияларни жорий этиш** корхона бошқарувининг самарадорлигини оширади. Ишлаб чиқариш жараёнларини автоматлаштириш, электрон ҳужжат айланмаси, ресурсларни бошқаришнинг рақамли тизимлари ва маълумотлар базасидан фойдаланиш бошқарув қарорларини тезкор қабул қилиш имконини беради.

Учинчидан, **инвестицион фаолликни ошириш** зарур. Асосий фондларни янгилаш, инновацион технологияларни ўзлаштириш ва ишлаб чиқариш қувватларини кенгайтириш учун ички ва ташқи инвестиция манбаларидан самарали фойдаланиш лозим.

Тўртинчидан, **харажатларни бошқариш тизимини такомиллаштириш** корхонанинг молиявий барқарорлигини таъминлашда муҳим омилдир. Хом ашё, энергия, меҳнат ва бошқа ресурслар сарфини меъёрлаштириш ҳамда улардан фойдаланиш устидан доимий мониторинг олиб бориш маҳсулот таннархини пасайтиришга хизмат қилади.

Бешинчидан, **кадрлар салоҳиятини ривожлантириш**га алоҳида эътибор қаратиш керак. Замонавий технологиялардан фойдалана оладиган юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш корхоналар рақобатбардошлигини оширишнинг муҳим шартидир.

Темир йўл ишлаб чиқариш корхоналарининг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштиришни қуйидаги тизим асосида амалга ошириш мақсадга мувофиқ:

**ресурслар → ишлаб чиқариш → рақамлаштириш → инновация → маҳсулот сифати → харажатларни оптималлаштириш → рақобатбардошлик → иқтисодий самарадорлик.**

Шунингдек, корхоналар фаолиятини баҳолашда фақат молиявий кўрсаткичлар билан чекланиб қолмасдан, меҳнат унумдорлиги, асосий фондлардан фойдаланиш самарадорлиги, ишлаб чиқариш қувватларидан фойдаланиш даражаси, маҳсулот сифати ва инновацион фаоллик каби кўрсаткичларни ҳам инобатга олиш зарур.

2026 йилда Ўзбекистон темир йўл транспортида юк ва йўловчи ташиш ҳажмларининг ўсиш тенденцияси кузатилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси маълумотларига кўра, 2026 йилнинг январь–март ойларида темир йўл транспорти орқали 28,0 млн тонна юк ташилган бўлиб, 3,1 млн нафар йўловчига транспорт хизмати кўрсатилган. Йўловчилар ташиш ҳажми ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 7,3 фоизга ошган.
2026 йил январь–июнь ойларида темир йўл транспортида ташилган юклар ҳажми 56,3 млн тоннани ташкил этди. Шу даврда юк айланмаси 16,4 млрд тонна-кмга етди. Мазкур кўрсаткичлар темир йўл транспортининг мамлакат иқтисодиётидаги аҳамияти юқори эканлигини кўрсатади.

Ушбу натижалар темир йўл ишлаб чиқариш корхоналари олдига ишлаб чиқариш қувватларидан самарали фойдаланиш, ҳаракат таркибини модернизация қилиш, эҳтиёт қисмлар ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштириш, рақамли технологияларни жорий этиш ва ресурслардан оқилона фойдаланиш каби вазифаларни қўяди.

Шу нуқтаи назардан, темир йўл ишлаб чиқариш корхоналарининг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш юк ва йўловчи ташиш ҳажмларининг ўсишини таъминлаш билан бир қаторда, ишлаб чиқариш харажатларини оптималлаштириш, меҳнат унумдорлигини ошириш ва корхоналарнинг рақобатбардошлигини кучайтиришга хизмат қилади.

«Ўзбекистон темир йўллари» расмий маълумотига кўра, **2026 йил 1 январь ҳолатида** темир йўлларнинг умумий узунлиги 7 540 кмдан ортиқ, 63 мингдан зиёд ходим ишлаган; 105,7 млн тонна юк ва 10,4 млн йўловчи ташилган.

**Хулоса:** Темир йўл ишлаб чиқариш корхоналарини барқарор ривожлантириш учун мавжуд ташкилий-иқтисодий механизмни замонавий талаблар асосида такомиллаштириш муҳим ҳисобланади. Бунинг учун ишлаб чиқариш қувватларини модернизация қилиш, рақамли бошқарув технологияларини жорий этиш, инвестицион фаолликни ошириш, ресурслардан самарали фойдаланиш ва малакали кадрлар салоҳиятини ривожлантириш зарур.

Таклиф этилаётган ёндашув корхоналарда ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, маҳсулот таннархини пасайтириш, меҳнат унумдорлигини юксалтириш ва темир йўл соҳасининг рақобатбардошлигини таъминлашга хизмат қилади.

Шу билан бирга, ташкилий-иқтисодий механизмни такомиллаштириш жараёнида инновацион бошқарув усуллари, инвестицияларни самарали бошқариш ва рақамлаштириш имкониятларидан комплекс фойдаланиш темир йўл ишлаб чиқариш корхоналарининг узоқ муддатли барқарор ривожланишини таъминловчи асосий омиллардан бири бўлиб қолади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**


1. Ўзбекистон Республикасининг транспорт соҳасига оид қонун ҳужжатлари.
2. Ўзбекистон Республикасида темир йўл транспортини ривожлантиришга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар.
3. Иқтисодиёт ва корхоналарни бошқариш бўйича дарслик ва ўқув қўлланмалар.
4. Транспорт иқтисодиёти ва логистика соҳасидаги илмий тадқиқотлар.
5. Корхона иқтисодиёти ва стратегик бошқарув бўйича илмий адабиётлар.

# АЛЬТЕРНАТИВНЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ РЕАЛЬНОГО СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ

**_Жуматова Дилфуза Балтабаевна_**
Diplomat University, Ташкент. Узбекистан

**Аннотация.** В представленной работе исследуется трансформация финансово-кредитных механизмов реального сектора экономики Узбекистана в условиях современных рыночных реформ. Н:ами рассматривается ключевые ограничения традиционной банковской системы, включая жесткие требования к залогам и высокую стоимость заемных средств. Особое внимание уделено переходу к альтернативным источникам финансирования, таким как исламский банкинг (внедрение «исламских окон» ведущими коммерческими банками страны в 2026 году), венчурные фонды, краудфандинг и рынок «зеленых» облигаций. На основе сравнительного анализа показано, как новые инструменты способствуют диверсификации инвестиций, снижению системных рисков и поддержке малого бизнеса.

**Ключевые слова:** Альтернативные инструменты, реальный сектор, финансирование, Узбекистан, исламский банкинг, трансформация, венчурные фонды, краудфандинг, банковская система, «зеленые» облигации.

В условиях углубления рыночных реформ и масштабной трансформации национальной экономики Республики Узбекистан особую актуальность приобрела проблема диверсификации источников финансирования реального сектора. Исторически сложилось так, что ключевую роль в кредитовании предприятий играла традиционная банковская система, ориентированная преимущественно на классическое заемное финансирование под залог материальных активов. Однако современные вызовы цифровизации, необходимость ускоренной модернизации промышленности и поддержки субъектов малого и среднего предпринимательства (МСП) потребовали пересмотра устоявшихся подходов и внедрения принципиально новых финансовых механизмов.

Необходимостью преодоления дефицита долгосрочных инвестиционных ресурсов в реальном секторе экономики в условиях трансформации национальной финансовой системы. Традиционные банковские кредиты часто оказываются недоступными или слишком дорогими для субъектов бизнеса, что требует диверсифицированных подходов. Как отмечают ведущие экономисты и исследователи финансового рынка (Ш. З. Абдуллаева, А. В. Вахабов, Ш. Х. Хаджибакиев, Н. Х. Жумаев, Д. Х. Махмудов), диверсификация источников финансирования через исламские финансовые механизмы, венчурный капитал, краудфандинг и рынок альтернативных инвестиций

является ключевым фактором обеспечения устойчивого экономического роста и инновационного развития предприятий.

Среди новейших тенденций в Узбекистане выделяется активное внедрение инструментов исламского банкинга, открывающих доступ к финансированию для тех сегментов бизнеса и населения, которые избегают ссудного процента. Параллельно формируется правовая база для венчурных фондов и альтернативных инвестиций (включая разработку профильного законодательства и нацеливание на масштабный приток венчурного капитала), а также развиваются рынок «зеленых» облигаций и новые механизмы цифрового финансирования реального сектора, что в совокупности трансформирует архитектуру инвестиционного рынка страны.

На начальных этапах рыночных преобразований в Узбекистане основным инструментом привлечения капитала для предприятий реального сектора выступали традиционные банковские кредиты — как краткосрочные, так и долгосрочные, а также прямое бюджетное финансирование и государственные субсидии. В качестве вспомогательных механизмов активно использовались стандартные формы товарного кредита и вексельного обращения. Тем не менее, масштабная практика показала ряд критических ограничений этой модели: жесткие и высокие требования к залоговому обеспечению существенно сужали доступ к капиталу для инновационных и венчурных проектов, не располагавших крупными материальными активами; прямая привязка процентных ставок к базовой ставке Центрального банка делала заемные ресурсы чрезмерно дорогими в периоды макроэкономической волатильности; а острый дефицит долгосрочных инвестиционных ресурсов в национальной валюте усугублялся высоким уровнем долларизации финансового сектора в прошлые годы.

В ответ на эти структурные барьеры банковская система Узбекистана приступила к активному внедрению принципиально новых, альтернативных финансовых инструментов. Особым драйвером стало развитие исламского банкинга и партнерских финансов. Подготовительный этап пришелся на период 2020–2025 годов, когда ведущие финансовые институты начали осваивать отдельные линии исламского финансирования через международные организации. Законодательный прорыв и этап активного масштабирования пришлись на 2026 год после принятия профильного закона и формирования Совета по исламским финансам при Центральном банке.

